O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI

KAMBAG‘AL VA ISHSIZ FUQAROLARNI KASB-HUNARGA O‘QITISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH HAMDA MEHNAT ORGANLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO‘YICHA QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o‘qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4804-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Belgilansinki, 2021-yil 10-apreldan boshlab:

a) O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimidagi Toshkent shahri Yashnobod tumanidagi band bo‘lmagan aholiga xizmat ko‘rsatuvchi “Ishga marhamat” monomarkazi mas’uliyati cheklangan jamiyati Toshkent shahridagi “Ishga marhamat” monomarkazi davlat muassasasi etib qayta tashkil etiladi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o‘qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4804-son qaroriga (keyingi o‘rinlarda — Qaror) muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda “Ishga marhamat” monomarkazlari davlat muassasalari shaklida tashkil etiladi. Bunda:

Toshkent shahridagi “Ishga marhamat” monomarkazi bosh muassasa sifatida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda tashkil etiladigan “Ishga marhamat” monomarkazlariga o‘quv-metodik jihatdan rahbarlik qiladi, ular tomonidan aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar, jumladan, kasb-hunarga, tadbirkorlik ko‘nikmalariga, xorijiy tillarga o‘qitish, ichki va tashqi mehnat bozorida bandlikka ko‘maklashish, kasbiy malakani baholash bo‘yicha faoliyatni muvofiqlashtiradi;

“Ishga marhamat” monomarkazlari faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek, ular uchun kasb-hunar, xorijiy tillar hamda tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish bo‘yicha o‘quv-metodik materiallarni ishlab chiqish maqsadida Toshkent shahridagi “Ishga marhamat” monomarkazi tuzilmasida 10 ta shtat birligidan iborat bo‘lgan “Ishga marhamat” monomarkazlari faoliyatini muvofiqlashtirish va o‘quv-metodik ta’minlash boshqarmasi tashkil etiladi.

2. Quyidagi ta’lim muassasalarining bino va inshootlari operativ boshqaruv huquqi asosida O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga ikki hafta muddatda berilsin:

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining Nukus kommunal xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish kasb-hunar kollejining bir qismi va Angor politexnika kasb-hunar kolleji;

Transport vazirligining Andijon transport va xizmat ko‘rsatish kasb-hunar kollejining bir qismi;

Namangan viloyati hokimligi operativ boshqaruvidagi sobiq “Karbonam” mas’uliyati cheklangan jamiyatining bino va inshootlari.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hududlarda tashkil etilayotgan aholini kasb-hunarga o‘qitish maskanlariga berilayotgan bino va inshootlarni (yoki ularning bir qismini) O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining kasb-hunarga o‘qitish markazlariga tekin foydalanish uchun ajratsin hamda zarur asbob-uskunalar bilan jihozlash choralarini ko‘rsin.

4. Quyidagilar:

“Ishga marhamat” monomarkazlarining maqomi, maqsad va vazifalari, huquq va majburiyatlari, faoliyatini tashkil etish hamda moliyalashtirish tartibini nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining “Ishga marhamat” monomarkazlari to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

kasb-hunarga o‘qitish markazlari maqomi, maqsadi va asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlari, faoliyatini tashkil etish va boshqarish, shuningdek, ularni moliyalashtirish tartibini nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining kasb-hunarga o‘qitish markazlari to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;

ishsiz hamda ish qidirayotgan shaxslarni mehnat bozorining joriy va istiqboldagi ehtiyojlari asosida kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirishni tashkil etish tartibini nazarda tutuvchi Ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirishni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq;

nodavlat kasb-hunarga o‘qitish muassasalarining aholi bandligini ta’minlashda ishtirokini qo‘llab-quvvatlash tartibini nazarda tutuvchi “Eng yaxshi kasbga tayyorlash dasturi” bo‘yicha nodavlat ta’lim tashkilotlari o‘rtasida ochiq tanlov o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. “Ishga marhamat” monomarkazlari va kasb-hunarga o‘qitish markazlarini saqlash, qayta ta’mirlash, asbob-uskuna va jihozlar bilan ta’minlash hamda o‘qituvchi va ishlab chiqarish ta’lim ustalarining ish haqlarini to‘lash uchun Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasiga Inqirozga qarshi kurashish jamg‘armasidan 2020-yil uchun ajratiladigan mablag‘larga qo‘shimcha ravishda 150 mlrd so‘m mablag‘ ajratilganligi inobatga olinsin.

Belgilab qo‘yilsinki:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyalari “Ishga marhamat” monomarkazlari va kasb-hunarga o‘qitish markazlarini qurish, rekonstruksiya va kapital ta’mirlash ishlari buyurtmachisi hisoblanadi, shuningdek qurilish, rekonstruksiya va ta’mirlash ishlari qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

“Ishga marhamat” monomarkazlari o‘quv jarayonida foydalanishi uchun asbob-uskuna va jihozlar Ishchi kasblarni ommalashtirish va rivojlantirish assotsiatsiyasi (WorldSkills Uzbekistan) talablari asosida (WorldSkills standartlari asosida) belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan xarid qilinadi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi 2021-yil avgustga qadar Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan “Eng yaxshi kasbga tayyorlash dasturi” bo‘yicha nodavlat ta’lim tashkilotlari o‘rtasida o‘tkaziladigan ochiq tanlovlarni shaffoflik va xolislik tamoyillariga asosan baholash, grantlar ijrosini monitoring qilish hamda natijadorligini aniqlashni “onlayn” rejimda amalga oshirish imkonini beruvchi elektron dasturiy ta’minot ishlab chiqilishini ta’minlasin.

Bunda “Eng yaxshi kasbga tayyorlash dasturi” bo‘yicha nodavlat ta’lim tashkilotlari o‘rtasida ochiq tanlov o‘tkazish ishlari ushbu qaror bilan tashkil etilgan Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o‘rgatish va ularning mehnat faolligini oshirish bo‘yicha respublika ishchi guruhi tomonidan muvofiqlashtiriladi.

Belgilansinki:

tanlov tashkilotchilari tanlov g‘oliblari aniqlangandan keyin uch kun muddatda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga tanlov g‘oliblari to‘g‘risidagi ma’lumotni taqdim etadi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tanlov g‘oliblarini ular tomonidan bino va inshootga zarurat bo‘lgan taqdirda, o‘n besh kun muddatda ijara to‘lovlari bevosita tanlov g‘olibi tomonidan to‘lanishi sharti bilan maqbul shart-sharoitlarga ega binolar bilan ta’minlash choralarini ko‘radi;

tanlov g‘oliblariga grant ajratish bilan bog‘liq xarajatlar Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi hisobidan moliyalashtiriladi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining quyidagilar to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin:

a) jamoat ishlarida, shuningdek, bandlikni ta’minlash bo‘yicha subsidiya ajratilishida shaffoflikni ta’minlash, suiiste’molliklarning oldini olish maqsadida jamoat ishlarida ishtirok

etayotgan va bandlikni rag‘batlantiruvchi subsidiyalar ajratilayotgan fuqarolarning biometrik avtorizatsiya hamda GPS-trekking tizimlarini joriy etish;

b) mehnat organlariga murojaat etayotgan, ayniqsa, ishsiz yoshlar va xotin-qizlar, chet eldan qaytib kelayotgan mehnat migrantlarini mehnat bozoriga moslashtirish (reintegratsiya qilish), jumladan, ular bilan yakka tartibda suhbatlar o‘tkazish asosida ijtimoiy, psixologik va boshqa sinab ko‘rish usullaridan foydalangan holda har bir shaxsning sog‘ligini, kasbiy qiziqishini, qobiliyatini, shaxsiy xususiyatlarini o‘rganib, kasb-hunarga moyilligini aniqlash, ish beruvchi bilan suhbatga tayyorlash, mehnat jamoasida ishlash ko‘nikmalariga o‘rgatish, mehnat faolligini oshirishga rag‘batlantirish maqsadida autsorsing shartlarida psixolog mutaxassislarni jalb etish;

psixolog mutaxassislar mehnatiga Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan haq to‘lash;

v) 2021-yil 1-mayga qadar aholi bandligiga ko‘maklashish markazlarini ishga joylashtirishga yo‘llanma berilayotgan ishsizlarning elektron anketasi va shaxsiy rezyumesini shakllantirish maqsadida zarur jihoz va moslamalar (raqamli fotokamera va planshet) bilan ta’minlash;

g) mazkur bandning “a” va “v” kichik bandlarida nazarda tutilgan jihoz va moslamalarni xarid qilish bilan bog‘liq xarajatlarni Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshirish.

8. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq:

hududda vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olingan hamda vaqtincha yashash joyiga ega bo‘lgan fuqarolar ushbu hududda joylashgan mehnat organi tomonidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ish qidirayotgan shaxs sifatida ro‘yxatga olinishi mumkin. Bunda ularga qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ish qidirayotgan shaxslarga taqdim etiladigan barcha bandlik xizmatlari turi va shaklidan qat’i nazar, ko‘rsatiladi hamda uning xarajatlari xizmat ko‘rsatayotgan mehnat organlarining xarajatlar smetasida Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasining mazkur maqsadlar uchun nazarda tutilgan mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi;

mehnat organlari tomonidan ish qidirayotgan shaxs sifatida ro‘yxatga olingan vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdagi hamda vaqtincha yashash joyiga ega bo‘lgan fuqarolarni tadbirkorlik ko‘nikmalari va xorijiy tillarga o‘qitish, kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish qonunchilik hujjatlari hamda mazkur qarorda belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

mehnat organlari tomonidan ish qidirayotgan va ishsiz shaxs sifatida ro‘yxatga olingan shaxslarni ishga joylashtirish 5-ilovaga muvofiq shakllardagi ishga joylashtirishga doir yo‘llanma va ishga joylashishga ko‘maklashish yuzasidan murojaatnoma berish orqali amalga oshiriladi.

9. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi 2021-yil 1-mayga qadar mehnat organlari tomonidan aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini monitoring qilish maqsadida Vazirlik markaziy apparati huzurida aholi bandligiga ko‘maklashish markazlari faoliyatini videokuzatuv kameralari va “abkm.mehnat.uz” tizimi orqali doimiy nazorat qilish imkonini beruvchi Situatsion tezkor markazni tashkil etsin. Bunda:

a) O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimidagi “Mehnat sohasidagi loyihalarni boshqarish markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyati Situatsion tezkor markaz faoliyatini tashkil etish va yuritish uchun mas’ul etib belgilansin;

b) Situatsion tezkor markazni tashkil etish va kerakli uskunalarni xarid qilish Jahon bankining “O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash” loyihasi doirasida jalb etilayotgan kreditlar hisobidan amalga oshirilsin;

v) quyidagilar Situatsion tezkor markazning asosiy maqsad va vazifalari etib belgilansin:

jismoniy va yuridik shaxslarga bandlik sohasida xizmatlar ko‘rsatishda shaffof tizimni yaratish;

aholi bandligiga ko‘maklashish markazlari faoliyati samaradorligini monitoring qilish;

sohada yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar bo‘yicha ma’lumotlarni yig‘ish, tizimlashtirish, jamlash va tahlil qilish;

aholi bandligiga ko‘maklashish markazlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlarni fuqarolar tomonidan baholash imkoniyatini yaratish.

10. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 6-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

11. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ikki oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

12. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari — iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vaziri J.A. Qo‘chqorov hamda O‘zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vaziri N.B. Xusanov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2021-yil 5-aprel,
183-son

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-apreldagi 183-son qaroriga
1-ILOVA

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining “Ishga marhamat” monomarkazlari to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining “Ishga marhamat” monomarkazlari (keyingi o‘rinlarda — monomarkaz) maqomi, maqsad va vazifalari, huquq va majburiyatlari, faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Monomarkazlar ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarga xizmat ko‘rsatuvchi davlat muassasasi hisoblanadi.

Monomarkazlar Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining (keyingi o‘rinlarda — Vazirlik) Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi band bo‘lmagan aholiga xizmat ko‘rsatuvchi monomarkazlari tizimidan iborat.

3. Toshkent shahridagi “Ishga marhamat” monomarkazi bosh muassasa sifatida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda tashkil etiladigan monomarkazlarga o‘quv-metodik jihatdan rahbarlik qiladi, ular tomonidan aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar, jumladan, kasb-hunarga, tadbirkorlik ko‘nikmalariga, xorijiy tillarga o‘qitish, kasbiy malakani baholash bo‘yicha faoliyatni muvofiqlashtiradi.

4. Monomarkazlar faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek, ular uchun kasb-hunar, xorijiy tillar hamda tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish bo‘yicha o‘quv-metodik materiallar Toshkent shahridagi “Ishga marhamat” monomarkazi tarkibidagi monomarkazlar faoliyatini muvofiqlashtirish va o‘quv-metodik ta’minlash boshqarmasi tomonidan ishlab chiqiladi.

5. Monomarkazlarning xodimlari malakasini oshirishni tashkil etish Vazirlik tizimidagi mehnat organlari xodimlari malakasini oshirish respublika kurslarida amalga oshiriladi. Bunda Toshkent shahridagi “Ishga marhamat” monomarkazi xodimlari malaka oshirish jarayoniga jalb etiladi va malaka oshirish jarayonida amaliyot mashg‘ulotlari Toshkent shahridagi “Ishga marhamat” monomarkazida olib boriladi.

6. Monomarkazlar o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlikning qarorlariga, mazkur Nizom hamda boshqa qonunchilik hujjatlariga, shuningdek, o‘z ustaviga amal qiladi.

7. Monomarkazlar ustavi Vazirlik tomonidan tasdiqlanadi.

8. Monomarkazlarni moddiy-texnik ta’minlash va saqlash xarajatlari O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda — Davlat

jamg‘armasi) mablag‘lari, xo‘jalik faoliyati natijasida tushgan mablag‘lar va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

9. Monomarkazlarning tarkibiy tuzilmasi, shtatlar jadvali, rahbar, o‘qituvchi va boshqa xodimlarning mehnatiga haq to‘lash tizimi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi. Bunda Toshkent shahar “Ishga marhamat” monomarkazining amaldagi xodimlar mehnatiga haq to‘lash tizimi saqlab qolinadi hamda yangidan tashkil etilayotgan “Ishga marhamat” monomarkazlari xodimlariga ham tatbiq etiladi.

10. Monomarkazlar faoliyati hududiy jihatdan tegishliligi bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar bandlik bosh boshqarmalari tomonidan muvofiqlashtiriladi.

11. Monomarkazlarning o‘quv-metodik faoliyati Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan belgilangan tartibda muvofiqlashtiriladi.

12. Monomarkazlar yuridik shaxs hisoblanadi, o‘zining mustaqil balansiga, alohida mol-mulkiga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan, nomi davlat tilida yozilgan muhrga, shtampga, davlat namunasidagi blankalarga, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligida, shu jumladan, xorijiy valyutadagi va boshqa hisobvaraqlariga, rekvizitlariga ega bo‘ladi, o‘z nomidan shartnomalar tuzadi, mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarni amalga oshiradi, yuklangan majburiyatlarni bajaradi hamda sud, arbitraj organlarida da’vogar va javobgar bo‘ladi.

2-bob. Monomarkazlarining maqsadlari va vazifalari

13. Monomarkazlarining asosiy maqsadi ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasb-hunarga, tadbirkorlikka va xorijiy tillarga o‘qitish, shuningdek, belgilangan tartibda xorijga vaqtincha ishga joylashish uchun ketayotgan fuqarolarni oldindan moslashtirish, shu jumladan, ularni kasb-hunar, tadbirkorlik va chet tillariga o‘qitishdan iborat.

14. Quyidagilar monomarkazlarning asosiy vazifalari hisoblanadi:

band bo‘lmagan aholini servis va xizmat ko‘rsatish, texnika, umumqurilish, qishloq xo‘jaligi sohalari, raqamli texnologiyalar bo‘yicha hamda ichki va tashqi mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan boshqa kasblarga o‘qitish, qayta o‘qitish va malakasini oshirish;

Oldingi tahrirga qarang.

texnikum, kollej yoki oliy ta’lim muassasasiga o‘qishga kirmagan hamda kasb egallash istagidagi yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni kasb-hunarga o‘qitish;

(14-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 25-oktabrdagi 656-sonli qaroriga asosan uchinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.10.2021-y., 09/21/656/0996-son)

xorijiy tillarga o‘qitish;

tadbirkorlik asoslari va moliyaviy savodxonlikka o‘qitish;

ishchi kasblarini rivojlantirish va ommalashtirish;

xorijiy ish beruvchilarning talablariga asosan ishchi kuchini tayyorlash;

kasb faoliyatini amalga oshirish uchun talab qilinadigan bilimlar, mahorat, malaka va ko‘nikmalar, shaxsiy va kasbiy bilim va ko‘nikmalarni baholash;

xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirmoqchi bo‘lgan fuqarolarni kasb-hunarga va xorijiy tillarga o‘qitish, ular bilan oldindan moslashtirish tadbirlarini amalga oshirish, xorijda ishlash uchun talab etiladigan hujjatlarni rasmiylashtirishda ko‘maklashish.

Ushbu vazifalarni bajarish uchun monomarkazlar tomonidan xorijiy tajribaga, kasb-hunarga, tadbirkorlik ko‘nikmalariga va xorijiy tillarga o‘qitishning innovatsion texnologiyalari joriy etish, jumladan:

monomarkazlarda kasb-hunarga o‘qitish jarayoniga yuqori malakali o‘qituvchi va ishlab chiqarish ta’lim ustalarini jalb etish, zarur hollarda WorldSkills va boshqa xalqaro standartlarga asosan ularning malakasini oshirib borishni ta’minlash;

ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni mehnat bozorining joriy hamda istiqboldagi ehtiyojlari asosida qisqa muddatlarda zamonaviy kasbiy ko‘nikmalarga o‘qitishning samarali innovatsion dasturlarini ishlab chiqish;

monomarkazlar bitiruvchilarining kasbiy malakasini milliy va WorldSkills standartlari asosida baholash, shuningdek, baholashdan muvaffaqiyatli o‘tgan bitiruvchilarga mamlakat hududida va xalqaro darajada tan olinadigan Skills pasporti berilishini yo‘lga qo‘yish va ularni Tasdiqlangan malakaga ega shaxslar milliy reyestriga o‘rnatilgan tartibda kiritish;

kasb-hunarga o‘qitish va bilim va ko‘nikmalarni baholashga doir turli tanlovlar o‘tkazish, WorldSkills standartlari asosida ishchi kasblar bo‘yicha milliy va mintaqaviy chempionatlarni o‘tkazish;

ta’lim faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan, hududlarning asosan qishloq va chekka joylari, chegara hududlarini qamrab olgan holda ishsiz va ish qidirayotgan shaxslar, ayniqsa, kambag‘al fuqarolar, yoshlar va xotin-qizlarni kasb-hunarga, xorijiy tillar yoki tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitishni zimmasiga olgan, o‘quv dasturi va qo‘llanmalariga ega, o‘qish jarayonida axborot-kommunikatsiya vositalaridan va innovatsion o‘qitish uslublaridan keng foydalanadigan nodavlat kasb-hunarga o‘qitish muassasalari bilan hamkorlik qilish;

band bo‘lmagan aholini ish bilan ta’minlashga doir hududiy va tarmoq dasturlarini amalga oshirishda o‘z vakolatlari doirasida ishtirok etish;

o‘z vakolatlari doirasida xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va mustahkamlash;

aholini monomarkazlarda kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, tadbirkorlik asoslariga va xorijiy tillarga o‘qitish, bilim va ko‘nikmalarni baholash, ishga joylashtirishga ko‘maklashish va xorijga vaqtincha ishga joylashish uchun ketayotgan fuqarolarni tayyorlash masalalari bo‘yicha ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda muntazam targ‘ibot-tashviqot va axborot-tushuntirish tadbirlari amalga oshiriladi.

3-bob. Monomarkazlarning huquq va majburiyatlari

15. Monomarkazlar quyidagi huquqlarga ega:

o‘z nomidan vakolati doirasida yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalar, kelishuvlar va boshqa huquqiy hujjatlar tuzish;

qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan va ushbu Nizomga zid bo‘lmagan faoliyat turlarini amalga oshirish;

o‘qitish sifati, o‘qituvchilar, ishlab chiqarish ta’limi ustalari, xodimlarning boshqa toifalarining mehnat faoliyati samaradorligini va raqobatbardoshligini oshirish, sohaga ilg‘or mehnat, o‘quv-metodik tajribalarni joriy etish maqsadida turli tanlovlar, tadbirlar, reklama faoliyati, ommaviy-axborot vositalarida ko‘rsatuvlar, eshittirishlar, chiqishlar tashkil qilish;

budjetdan tashqari mablag‘larni jalb qilish maqsadida o‘quv jarayonlari davomida tayyorlangan mahsulotlarni (tovar, ish, xizmatlarni) sotish;

o‘quv jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb etish;

o‘quvchilarga xalqaro darajadagi sertifikatni (guvohnoma, diplom va boshqa hujjatlar) berish;

o‘quv jarayonida ishlab chiqarilgan yarim tayyor, tayyor mahsulotlarni (tovar, ish, xizmatlarni) o‘z hududida joylashgan ko‘rgazmali pavilonlar va yarmarkalar hamda elektron tijorat orqali namoyish qilish va sotish (tushgan mablag‘larni o‘quv jarayoni uchun zarur bo‘lgan ehtiyot qismlar va xomashyo materiallarini xarid qilish, xodimlar malakasini oshirish va ularni rag‘batlantirish uchun sarflashga yo‘naltirish sharti bilan);

o‘qitishdan tushadigan mablag‘lar hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalardan tushgan mablag‘larni aholiga sifatli xizmat ko‘rsatish bo‘yicha moddiy-texnik bazani rivojlantirishga va o‘qitish jarayonini zamonaviy o‘quv-texnik vositalar, mebellar bilan jihozlashga, xodimlarni ijtimoiy himoya qilishga va ularning faoliyat samaradorligini oshirishni rag‘batlantirishga sarflash;

monomarkazlarda hududiy mehnat organlari tomonidan ro‘yxatga olingan ishsiz va ish qidirayotgan shaxslar, shuningdek, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar hamda “lbr-migrtin” dasturiy majmuasida ro‘yxatga olingan fuqarolarni Davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan tadbirkorlik ko‘nikmalari va xorijiy tillarga o‘qitish, kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish buyurtmachi hamda o‘quv markazi o‘rtasida belgilangan tartibda to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzish asosida amalga oshiriladi.

Davlat jamg‘armasi va o‘z mablag‘laridan samarali foydalanishi hamda mablag‘ bilan ta’minlashning muqobil manbalarini, shu jumladan, tashkilotlar o‘z mablag‘larini, homiy xayriyalari, xorijiy investitsiyalarni jalb etishi mumkin.

Monomarkazlar qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

16. Monomarkazlar:

qonunchilik hujjatlari, Vazirlikning hujjatlari va topshiriqlarida belgilangan vazifalarni bajarishi;

ishsiz va kambag‘al aholida tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish uchun olti oydan oshmaydigan o‘qitishni tashkil etishi hamda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish borasida Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi bilan hamkorlikda faoliyat olib borishi;

fuqarolarni ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy kasb standartlari, o‘quv dasturlari, darsliklar va boshqa o‘quv-metodik materiallar asosida mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasb-hunarga o‘qitishi;

xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikda o‘qituvchilar va muhandis-ustalar malakasini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida muntazam oshirib borishi;

mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi hamda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablariga javob beradigan o‘quv va mehnat sharoitlarini yaratishi mumkin.

Monomarkazlar qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham bajarishi mumkin.

4-bob. Monomarkazlarni boshqarish

17. Monomarkazga O‘zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vaziri tomonidan (tegishlicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari boshliqlari tavsiyasiga ko‘ra) lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor rahbarlik qiladi.

Monomarkaz direktorining O‘zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan uch nafar o‘rinbosari, shu jumladan, bir nafar birinchi o‘rinbosari bo‘ladi.

18. Direktor:

monomarkaz faoliyatiga rahbarlik qiladi va zimmasiga yuklangan vazifalar bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

o‘rinbosarlari vakolatlarini o‘rnatilgan tartibda belgilaydi, ular o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi, monomarkaz tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari vakolatlarini, ularning faoliyat uchun javobgarligini belgilaydi;

qonunchilik hujjatlariga asosan monomarkaz nomidan ish olib boradi, barcha tashkilotlarda uning vakili sifatida qatnashadi, shartnomalar tuzadi, ishonchnomalar beradi;

monomarkaz tarkibiy bo‘linmalari to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

monomarkaz tarkibiy bo‘linmalari rahbarlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi;

monomarkaz o‘qituvchilari, muhandis-ustalari va boshqa xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi;

monomarkaz xodimlari va o‘quvchilari uchun bajarilishi majburiy bo‘lgan buyruqlar chiqaradi va ko‘rsatmalar beradi;

monomarkazning tashkiliy va moliyaviy faoliyati masalalarini hal qiladi;

monomarkazning mol-mulkiga egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish bo‘yicha qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda qarorlar qabul qiladi;

nodavlat kasb-hunarga o‘qitish muassasalarini tashkil etayotgan xususiy investorlarga davlat yordami sifatida ko‘rsatish maqsadida nodavlat kasb-hunarga o‘qitish tashkilotlarini tashkil etish uchun monomarkazning binolari yoki ularning bir qismini, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tavsiyasiga ko‘ra bo‘sh turgan boshqa binolar yoki ularning bir qismini operativ boshqaruvga yoki uzoq muddatli imtiyozli ijaraga beradi;

monomarkazning xarajatlar smetasini tasdiqlaydi;

mehnat faoliyatida erishgan yutuqlari uchun asosiy ish haqiga ustama va qo‘shimcha haqlar belgilash orqali monomarkaz o‘qituvchilari, muhandis-ustalari va boshqa xodimlarini Davlat jamg‘armasi hamda budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan rag‘batlantirish masalalarini hal etadi;

mehnat qonunchiligiga asosan xodimlarga jamoa shartnomasi va ichki mehnat tartibi qoidalarini buzganligi uchun intizomiy jazo choralarini belgilaydi.

5-bob. Monomarkazlarning tuzilishi

19. Monomarkazlarining tashkiliy tuzilmasi va shtatlar jadvali qonunchilik hujjatlari talablari asosida ishlab chiqiladi, tasdiqlanadi hamda ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

20. Monomarkazlar faoliyatiga taalluqli ilmiy va o‘quv-metodik masalalarni ko‘rib chiqish uchun direktor huzurida kollegial organ hisoblangan O‘quv-metodik kengash (keyingi o‘rinlarda — Kengash) tashkil etiladi.

Kengash tarkibi direktor tomonidan tasdiqlanadi. Direktor Kengash raisi hisoblanadi. Kengash tarkibiga Vazirlik tizimining tajribali xodimlari, hamkor tashkilotlarning mutasaddi vakillari, Monomarkaz direktori o‘rinbosarlari, tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari, Kengash kotibi, tajribali o‘qituvchilar va muhandis-ustalar kiradi.

21. Kengash:

yillik ish rejasini va boshqa tegishli hujjatlarni tasdiqlaydi;

budjetdan tashqari mablag‘lar tushumi va sarf-xarajat hisobotlarini ko‘rib chiqadi;

o‘quv-metodik jarayonni tashkil etish, moddiy-texnik bazadan unumli foydalanish masalalarini ko‘rib chiqadi;

ustaxonalar, o‘quv xonalari, binolar va jihozlarning sanitariya-gigiyenik holati, texnika xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish, xodimlar salomatligini himoya qilish masalalarini muhokama qiladi va tegishli qarorlar qabul qiladi;

fuqarolarni o‘qishga qabul qilish, kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda kasbiy malakani baholash jarayoni, bitiruv malaka imtihonlarini topshirish va kasb-hunarga o‘qitishni yakunlash yuzasidan tegishli bo‘linmalar rahbarlari, o‘qituvchilar va muhandis-ustalar hisobotlarini eshitadi;

direktor o‘rinbosarlari, tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari, o‘qituvchilar, muhandis-ustalar va boshqa xodimlar faoliyati to‘g‘risidagi axborotlarni eshitadi;

kasb-hunarga o‘qitishning ilg‘or o‘quv-metodik, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni tatbiq etish choralarini ko‘radi;

o‘quvchilarni kursdan chetlashtirish, o‘qishga tiklash, bitiruvchilarga o‘qishni tamomlaganlik to‘g‘risidagi hujjatlar, shu jumladan, ularning dublikatini berish masalalarini ko‘rib chiqadi;

yuqori malakali o‘qituvchilar va muhandis-ustalar ish tajribasini o‘rganish va ommalashtirish, ularni davlat mukofotlariga tavsiya etish, o‘qituvchilarga metodik yordam ko‘rsatish ishlarini tashkil etadi;

o‘z vakolati doirasida ichki hujjatlarni tasdiqlash va ularning bajarilishini nazorat qilish va monomarkazlar faoliyatini tartibga solishning boshqa masalalarini hal qiladi.

Kengash faoliyati masalalari monomarkaz ustavida belgilanadi.

22. Monomarkazlar tarkibida kasaba uyushmasi, O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi va boshqa jamoatchilik tuzilmalari tashkil etilishi mumkin.

6-bob. Monomarkazlarning faoliyatini tashkil etish

1-§. Kasb-hunarga, tadbirkorlikka, xorijiy tillarga o‘qitish

23. Monomarkazda hududiy mehnat organlari tomonidan ro‘yxatga olingan ishsiz va ish qidirayotgan shaxslar, shuningdek, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar hamda “labor-migration” dasturiy majmuasida ro‘yxatga olingan fuqarolarni tadbirkorlik ko‘nikmalari va xorijiy tillarga o‘qitish, kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish Davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomaga asosan bepul amalga oshiriladi.

24. Ushbu Nizomning 23-bandida nazarda tutilgandan tashqari shaxslarni tadbirkorlik ko‘nikmalari va xorijiy tillarga o‘qitish, kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini

oshirish fuqarolarning o‘z mablag‘lari, buyurtmachilar mablag‘lari va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

25. Kasb-hunarga, tadbirkorlikka, xorijiy tillarga o‘qitish, qayta tayyorlash va malaka oshirish yil davomida uzluksiz, o‘qitish jarayonini boshlash esa guruhlar o‘quvchilar bilan to‘ldirilish holatiga ko‘ra amalga oshiriladi. O‘qitish rejasida kasb yo‘nalishlari (kasblar, mutaxassisliklar, ixtisosliklar yoki malaka turlari) va boshqa zarur o‘qitish parametrlari ko‘rsatiladi.

O‘qitish rejasining asosiy ko‘rsatkichlari (kasbiy yo‘nalishlar va bilim va ko‘nikmalarni baholash parametrlari bo‘yicha) aholini kasb-hunarga o‘qitish imkoniyatlaridan xabardor qilish, ayniqsa, aholining ishsiz, band bo‘lmagan va kambag‘al toifalari uchun belgilangan iqtisodiy-ijtimoiy kafolatlarni ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarini ehtiyojmand fuqarolarga yetkazish maqsadlarida muntazam ravishda ommaviy axborot vositalari orqali va ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilib boriladi.

26. Kasb-hunarga o‘qitish quyidagi turlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

uzoq muddatli o‘qitish — o‘quv jarayoni o‘ttiz haftadan qirq haftagacha davom etadi;

o‘rta muddatli o‘qitish — o‘quv jarayoni besh haftadan yigirma besh haftagacha davom etadi;

qisqa muddatli o‘qitish — o‘quv jarayoni to‘rt haftagacha davom etadi;

ishlab chiqarishda kasb-hunarga o‘qitish — o‘quv jarayoni ish beruvchida bir vaqtning o‘zida olib boriladigan mehnat faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bir nafar o‘quvchi uchun kelgusida ish beruvchida ishga joylashtirilgan holda kasb-hunarga tayyorlashdan (stajirovkadan) o‘tishi yigirma besh haftagacha davom etadi;

maqsadli o‘qitish — o‘quv jarayoni to‘rt haftagacha davom etadi.

Uzoq muddatli va o‘rta muddatli kasb-hunarga o‘qitish monomarkaz, ish beruvchi, mahalliy mehnat organi va ishsiz shaxs o‘rtasida tuziladigan to‘rt tomonlama shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Agar ishsiz shaxs o‘qish tugagach, jismoniy va yuridik shaxslar uchun ish haqini (mehnat daromadini) olishga qaratilgan xizmatlarni ko‘rsatish, ishlarni bajarish bo‘yicha mehnat faoliyatini mustaqil ravishda amalga oshirish majburiyatini hamda o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tishni o‘z zimmasiga oladigan bo‘lsa, o‘rta muddatli o‘qitishga doir shartnoma tuzilayotganda ish beruvchining ishtirok etishi talab qilinmaydi.

Bunday holatda o‘qitish monomarkaz, mahalliy mehnat organi va ishsiz shaxs o‘rtasida tuziladigan ijtimoiy shartnomaga asosan tashkil etiladi.

27. O‘qitish jarayonida o‘quvchilar o‘qish kurslari bo‘yicha guruhlarga, o‘qitish yo‘nalishlari bo‘yicha bo‘linmalarga birlashtiriladi.

Guruhlarni o‘quvchilar bilan to‘ldirish monomarkazlar rahbariyati tomonidan mustaqil belgilanadi, biroq har bir guruhdagi o‘quvchilar soni o‘qitish yo‘nalishlari xususiyatlaridan kelib chiqib, yigirma nafardan oshmasligi kerak.

O‘qitish muddatlari, o‘quv jarayoni va ishlab chiqarish amaliyoti davomiyligi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan o‘quv dasturlari asosida belgilanadi.

28. Bunda kasb-hunarga o‘qitishni amalga oshirishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

o‘quvchilar bilimlari, malakasi va ko‘nikmalarining tegishli kasbiy faoliyat (kasblar, mutaxassisliklar) turlari bo‘yicha belgilangan kasb standartlariga mosligini ta’minlash;

olingan nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan mustahkamlash hamda o‘quvchilarda tegishli kasbiy faoliyat (kasblar) turlari bo‘yicha zarur bilim va ko‘nikmalarning shakllanishini ta’minlash;

o‘quvchilarning bilim darajasi va amaliy ko‘nikmalarini baholash.

29. Monomarkazlarning o‘quv dasturlari tegishli kasbiy faoliyat (kasblar, mutaxassisliklar) yo‘nalishlari bo‘yicha zarur mavzularni o‘z ichiga oladi.

O‘quvchilarning ishlab chiqarish va o‘qitish amaliyotini tashkil qilish va o‘tkazish o‘qitishning zamonaviy innovatsion uslublarini qo‘llagan holda, kasbiy ta’limning fan va ishlab chiqarish bilan o‘zaro hamkorligi asosida amalga oshiriladi.

Tadbirkorlikka va xorijiy tillarga o‘qitish alohida o‘qitish kurslari yoki modul tizimida — kasb-hunarga o‘qitishga qo‘shib olib boriladi.

30. Monomarkazlar bitiruvchilarining kasbiy malakasini WorldSkills standartlari asosida baholash, shuningdek, baholashdan muvaffaqiyatli o‘tgan bitiruvchilarga O‘zbekiston Respublikasida va xorijiy davlatlarda tan olinadigan Skills pasporti beriladi.

Bunda kasbiy malakasi tasdiqlangan bitiruvchilarning yagona reyestri yuritiladi.

Monomarkazlar tomonidan bitiruvchilarga belgilangan shakl va talablarga muvofiq bo‘lgan:

o‘qishni tamomlaganlikni tasdiqlovchi hujjat;

kasbiy malakasini WorldSkills standartlari asosida baholashdan muvaffaqiyatli o‘tgan bitiruvchilarga O‘zbekiston Respublikasida va xorijiy davlatlarda tan olinadigan Skills pasporti beriladi.

Monomarkaz tomonidan bitiruvchilarga berilgan o‘qishni tamomlaganlikni tasdiqlovchi hujjat hamda Skills pasporti o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi diplomi darajasiga tenglashtiriladi hamda egallagan bilimlarni mehnat faoliyatida qo‘llash huquqini beradi, biroq ta’limning keyingi turini davom ettirish uchun asos hisoblanmaydi.

2-§. Bilim, ko‘nikma va malakani baholash

31. Monomarkazlarda aholining bilim, ko‘nikma va malaka darajasini baholash uchun tashkil etiladigan Kasbiy kompetensiyalarni baholash markazining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

talabgorlarning bilim, ko‘nikma va malakasini milliy va xalqaro (Worldskills va boshqa) standartlarga muvofiq mustaqil va xolis baholash;

keng va tor ixtisosliklar bo‘yicha ishchilarga malaka razryadlarini va mutaxassislarga malaka toifalarini berish;

talabgorning mavjud bilim, ko‘nikma va malakasi belgilangan kasb standartlariga mosligini aniqlash;

kasb malakalari bo‘yicha normativ hujjatlar va standartlarni ishlab chiqishda qatnashish.

Kompetensiyalarni baholash markazi o‘z faoliyati samaradorligini ta’minlash uchun taalluqli boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

32. Toshkent shahridagi “Ishga marhamat” monomarkazi tarkibidagi Kompetensiyalarni baholash markazi Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar monomarkazlarida fuqarolarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash uchun zarur bo‘lgan metodik hujjatlar va tavsiyalar ishlab chiqadi hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimidagi monomarkazlar hamda kasb-hunarga o‘qitish tashkilotlarida bilim, ko‘nikma va malakani baholash talablariga rioya qilinishini muvofiqlashtiradi.

3-§. Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish istagida bo‘lgan fuqarolarga ko‘maklashish

33. Monomarkazda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirmoqchi bo‘lgan fuqarolarni tayyorlash bo‘yicha quyidagi xizmatlar ko‘rsatiladi:

kasb-hunarga o‘qitish;

xorijiy tillarga o‘qitish;

xorijiy davlatlarning qonunchiligi va mehnat qilish sharoitlarini o‘rgatish va boshqa kerakli ma’lumotlar berish bo‘yicha moslashtirish tadbirlarini amalga oshirish;

xorijda ishlash uchun talab etiladigan hujjatlarni rasmiylashtirish, kredit olish, sug‘urta polisini va boshqa zarur hujjatlarni rasmiylashtirishga ko‘maklashish;

xalqaro standartlar bo‘yicha kasbiy malakani baholash.

Monomarkazlarda xorijga ishga ketayotgan fuqarolarni ketishdan oldin kasb-hunarga yo‘naltirish markazlari tashkil etilishi mumkin.

34. Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirmoqchi bo‘lgan fuqarolarni tayyorlash xarajatlari:

Davlat jamg‘armasi;

Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg‘armasi;

xorijiy ish beruvchilar yoki ularning vakillari mablag‘lari;

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi mablag‘lari;

fuqarolarning o‘z mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

7-bob. Monomarkazlar xodimlari

35. Monomarkazlarda o‘qituvchilar, muhandis-ustalar, boshqaruv, texnik, xizmat ko‘rsatuvchi va yordamchi xodimlar faoliyat yuritadi.

36. Monomarkazlar xodimlarini ishga qabul qilish mos lavozimlar (kasblar) bo‘yicha kasb standartlariga (lavozim talablariga, kasb-malaka ma’lumotnomalariga) ko‘ra qonunchilik hujjatlariga binoan amalga oshiriladi.

37. Belgilangan talablarga muvofiq kasbiy tayyorgarlikka ega, zamonaviy talablarga javob beradigan o‘qituvchilar va muhandis-ustalar monomarkazlarda pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishlari mumkin.

38. Davlat boshqaruvi organlari, xo‘jalik birlashmalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar mutaxassislari o‘rindoshlik asosida yoki qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda soatbay ish haqi to‘lash shartlari asosida Monomarkazlarning kasb-hunarga o‘qitish va boshqa faoliyat yo‘nalishlariga jalb etilishi mumkin.

8-bob. Monomarkazlarning mol-mulki va ularni moliyalashtirish

39. Monomarkazlar faoliyatini moliyalashtirish Davlat jamg‘armasi va qonunchilik hujjatlari taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Shartnoma asosida fuqarolarni kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, tadbirkorlik va xorijiy tillarga o‘qitish, xorijga ishchi kuchini tayyorlash, Kasbiy kompetensiyalarni baholash markazi hamda qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa xo‘jalik faoliyatidan tushgan mablag‘lar tegishlicha Vazirlik, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari boshliqlari bilan kelishilgan holda kasb-hunarga o‘qitish markazining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, o‘quv-metodik faoliyatini takomillashtirish, o‘quv qurollari va xomashyo xarid qilish hamda xodimlarni rag‘batlantirish uchun sarflanishi mumkin.

40. Monomarkazlarning tuzilmasi, shtatlar jadvali, rahbar, o‘qituvchi va boshqa xodimlarining mehnatiga haq to‘lash, ustama, rag‘batlantirish va mukofotlash miqdori Vazirlik tomonidan tasdiqlanadi.

41. Monomarkazlarning o‘qitish xarajatlari quyidagi manbalar hisobidan qoplanadi:

mehnat organlari yo‘llanmasi bilan yuborilgan ishsiz fuqarolarni o‘qitish bilan bog‘liq xarajatlar — Davlat jamg‘armasi mablag‘lari;

boshqa fuqarolar uchun — fuqarolarning o‘z mablag‘lari yoki o‘z ishchilarining kasbiy malakasini oshirish uchun (kasb-hunarga o‘qitish, qayta o‘qitishga) yuborgan ish beruvchilar yoki yangi ishchilarni kasb-hunarga tayyorlash uchun buyurtma bergan tashkilotlar mablag‘lari va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

9-bob. Yakunlovchi qoidalar

42. Monomarkazlarda ishlab chiqarilgan tovar-moddiy, o‘quv-metodik, dasturiy-elektron va boshqa ko‘rinishdagi mahsulotlarga mualliflik huquqi qonunchilik hujjatlariga muvofiq muhofaza qilinadi.

43. Monomarkazlarni qayta tashkil etish va tugatish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining kasb-hunarga o‘qitish markazlari to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi kasb-hunarga o‘qitish markazlarining (keyingi o‘rinlarda — kasb-hunarga o‘qitish markaz) maqomi, maqsadlari va asosiy vazifalari, huquqlari va majburiyatlari, faoliyatini tashkil etish va boshqarish, shuningdek, uni moliyalashtirish tartibini belgilaydi.

2. Kasb-hunarga o‘qitish markazi mustaqil yuridik shaxs sifatida tashkil etiladigan kasb-hunarga o‘qitish muassasasi hisoblanadi, o‘zining mustaqil balansiga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va blankalarga, boshqa zarur muhr va shtamplarga, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligida shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga, banklarda hisobvarag‘iga va boshqa hisobvaraqlarga ega bo‘ladi.

3. Kasb-hunarga o‘qitish markazi davlat muassasasi hisoblanadi, ularning faoliyati ishsiz va band bo‘lmagan aholini kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ularning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakasini baholash va tasdiqlash, tadbirkorlik va xorijiy tillarga o‘qitish, kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini amalga oshirishga yo‘naltiriladi.

Kasb-hunarga o‘qitish markazi qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa faoliyatni ham amalga oshirishlari mumkin.

4. Kasb-hunarga o‘qitish markazi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining (keyingi o‘rinlarda — Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi) qarorlari, mazkur Nizom hamda boshqa qonunchilik hujjatlariga, shuningdek, o‘z ustaviga amal qiladi.

Kasb-hunarga o‘qitish markazining ustavi O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

5. Kasb-hunarga o‘qitish markazining kasbga o‘qitish jarayonini tashkil qilish, kasb-hunarga o‘qitish markazlariga o‘qishga qabul qilish va malaka imtihonlarini o‘tkazish tartibi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida Kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to‘g‘risida” 2020-yil 15-maydagi 287-son qarori asosida amalga oshiriladi.

6. Kasb-hunarga o‘qitish markazi tomonidan bitiruvchilarga berilgan o‘qishni tamomlaganlikni tasdiqlovchi hujjat hamda Skills pasporti o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi diplomi darajasiga tenglashtirilib, egallagan bilimlarni mehnat faoliyatida qo‘llash huquqini beradi, biroq ta’limning keyingi turini davom ettirish uchun asos hisoblanmaydi.

7. Kasb-hunarga o‘qitish markazi negizida chet elga ishga ketayotgan fuqarolarni ketishdan oldin kasbga yo‘naltirish markazlari tashkil etilishi mumkin.

Chet elga ishga ketayotgan fuqarolarni ketishdan oldin kasbga yo‘naltirish markazlari chet elga jo‘nab ketayotgan fuqarolarni xorijiy mehnat bozorida talab etilgan mutaxassisliklar va xorijiy tillar bo‘yicha qisqa muddatli o‘qitish, qayta o‘qitish va malakasini oshirish, shuningdek, professional kompetensiyasini test sinovdan o‘tkazish va tasdiqlash ishlarining tashkil etilishi va amalga oshirilishini ta’minlaydi.

2-bob. Kasb-hunarga o‘qitish markazining maqsad va asosiy vazifalari

8. Quyidagilar kasb-hunarga o‘qitish markazining maqsadlari hisoblanadi:

mehnat bozori konyunkturasidan kelib chiqqan holda, ishsiz va band bo‘lmagan aholini kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

ishsiz va band bo‘lmagan aholini tadbirkorlik ko‘nikmalari va xorijiy tillarga o‘qitish;

talabgorlarning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakasini ixtiyoriy, xolis va mustaqil baholash;

ishchi kasblarini rivojlantirish va ommalashtirish;

xorijga ishchi kuchini tayyorlash;

ishsiz va band bo‘lmagan aholini kasbga yo‘naltirish.

9. Quyidagilar kasb-hunarga o‘qitish markazining asosiy vazifalari hisoblanadi:

kasbiy faoliyatning (kasblarning) tegishli turlari bo‘yicha sifatli kasb-hunarga o‘qitish, qayta o‘qish va malaka oshirishni ta’minlash;

shaxsning intellektual va kasbiy rivojlanishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish;

iqtisodiyot tarmoqlari subyektlarining joriy va istiqboldagi kadrlar(ga) va ularning kasbiy ko‘nikmalariga bo‘lgan talabini muntazam o‘rganib borish;

kasbiy faoliyatning (kasblarning) tegishli turlari bo‘yicha mehnat faoliyati bilan mashg‘ul bo‘lish uchun bilimlar va yuqori sifatli kasbiy tayyorgarlikni ta’minlovchi kasb standartlari doirasida kasb-hunarga o‘qitish dasturlarini amalga oshirish;

iqtisodiyot tarmoqlarini kasbiy faoliyatning (kasblarning) tegishli turlari bo‘yicha kasbiy ma’lumotga ega bo‘lgan xodimlar bilan ta’minlash;

xorijga vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ketmoqchi bo‘lganlarni tayyorlash;

kasbiy faoliyatning (kasblarning) tegishli turlari bo‘yicha o‘quv-metodik hujjatlar va kasb standartlarini ishlab chiqishda ishtirok etish.

3-bob. Kasb-hunarga o‘qitish markazining huquq va majburiyatlari

10. Kasb-hunarga o‘qitish markazi:

yuridik va jismoniy shaxslarga o‘z faoliyati ixtisosligiga muvofiq ishsiz va band bo‘lmagan aholini kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakasini baholash va tasdiqlash, tadbirkorlik va xorijiy tillarga o‘qitish, kasb-hunarga yo‘naltirish sohasida shartnoma asosida pulli xizmatlar ko‘rsatish, ko‘rsatilgan xizmatlar uchun qonunchilik hujjatlariga muvofiq xarajatlar va haq to‘lash miqdorini belgilash;

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ko‘rsatmasiga muvofiq ishsiz va band bo‘lmagan aholini kasb-hunar, tadbirkorlik ko‘nikmalari va xorijiy tillarga o‘qitish jarayonini takomillashtirish maqsadida kasb-hunarga o‘qitish markazida yangi kasb (mutaxassislik) yo‘nalishlarini ochish yoxud mehnat bozori ehtiyoji ko‘rsatkichlari darajasi past bo‘lgan kasb (mutaxassislik) yo‘nalishlari bo‘yicha faoliyatni tugatish;

o‘quv jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb etish;

o‘quvchilarga xalqaro darajadagi sertifikatni (guvohnoma, diplom va boshqa hujjatlarni) berish;

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va uning hududiy bo‘linmalari bilan kelishilgan holda kasbiy mahorat tanlovlarini o‘tkazish;

Kasbiy malakani baholash markazi faoliyatini tashkil etish;

kasb-hunarga o‘qitish markazining o‘qituvchilari, ishlab chiqarish ta’limi ustalari, boshqaruv, xizmat ko‘rsatuvchi va texnik xodimlari tarkibi va o‘quvchilarni almashish, qo‘shma tadbirlar, uchrashuvlar, tajriba almashish, stajirovka, seminarlar va boshqa tadbirlarni o‘tkazish bo‘yicha xorijiy korxona va tashkilotlar bilan belgilangan tartibda bitimlar tuzish;

ish beruvchi tashkilotlarga o‘quvchilarni amaliyot o‘tash, o‘qituvchilar va ishlab chiqarish ta’limi ustalarini tajriba almashishga (malaka oshirishga) yuborish, kasbiy ko‘nikmalarni egallashning dual tizimini joriy etish hamda hamkorlikning boshqa shakllari bo‘yicha shartnomalar tuzish;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishsiz va band bo‘lmagan aholini kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ularning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakasini baholash va tasdiqlash, tadbirkorlik va xorijiy tillarga o‘qitish, kasb-hunarga yo‘naltirish sohasida xalqaro faoliyatda ishtirok etish huquqiga ega.

Kasb-hunarga o‘qitish markazi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

11. Kasb-hunarga o‘qitish markazi:

kasb-hunarga o‘qitish va o‘quv jarayonlariga tayyorgarlikni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini ta’minlash, pedagog-xodimlar jamoasi, boshqaruv, xizmat ko‘rsatuvchi hamda boshqa tegishli mutaxassislarning o‘z faoliyatiga oid topshiriqlarning bajarilishini, shu

jumladan, o‘quvchilar tomonidan o‘z majburiyatlari doirasida tanlagan kasb-hunar turlari bo‘yicha o‘quv dasturlarini bosqichma-bosqich o‘zlashtirishini ta’minlash;

belgilangan tartibga muvofiq tasdiqlangan o‘quv dasturlari va o‘quv rejasini, o‘quv va amaliyot jadvalini ishlab chiqish;

o‘quv va amaliyot mashg‘ulotlari jarayoni o‘tkazilayotgan davrda o‘quvchilar hamda pedagog-xodimlar jamoasi, boshqaruv, xizmat ko‘rsatuvchi, texnik xodimlar hamda boshqa tegishli mutaxassislarning mehnat xavfsizligini ta’minlash;

moddiy-texnika bazasi va mol-mulkning saqlanishini va ulardan oqilona foydalanilishini ta’minlashga majbur.

Kasb-hunarga o‘qitish markaziga qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

4-bob. Kasb-hunarga o‘qitish markazini boshqarish

12. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda uning hududiy mehnat organlari kasb-hunarga o‘qitish markazlariga umumiy rahbarlik qiladi, nazoratni tashkil etadi, uning tashkiliy-kadrlar va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash choralarini ko‘radi.

13. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Toshkent shahridagi ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o‘qitish markazi kasb-hunarga o‘qitish markazlari ishini tashkil etadi, muvofiqlashtiradi va o‘quv-metodik jihatdan ta’minlaydi.

14. Kasb-hunarga o‘qitish markaziga Qoraqalpog‘iston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari boshliqlari taqdimnomasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan direktor rahbarlik qiladi.

Kasb-hunarga o‘qitish markazi direktorining O‘zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan uch nafar o‘rinbosari, shu jumladan bir nafar birinchi o‘rinbosari bo‘ladi.

15. Direktor:

kasb-hunarga o‘qitish markazi faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi, o‘quvchilarning o‘qishi va amaliyot o‘tashi, o‘quv rejalari va dasturlari bajarilishi, moliya-xo‘jalik faoliyati amalga oshirilishi uchun javob beradi;

kasb-hunarga o‘qitish markazi nomidan ish ko‘radi, uning manfaatlarini ifoda etadi, qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda uning mol-mulkini tasarruf etadi va shartnomalar tuzadi;

kasb-hunarga o‘qitish markazi vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qiladi, o‘quv muassasasiga yuklangan vazifa va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

o‘z o‘rinbosarlari vakolatlarini belgilaydi, ular o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

o‘z vakolatlari doirasida kasb-hunarga o‘qitish markazi o‘quvchilari va xodimlari uchun majburiy bo‘lgan buyruqlar chiqaradi va ko‘rsatmalar beradi;

kasb-hunarga o‘qitish markazi o‘quv-moddiy bazasini mustahkamlash, o‘quv-amaliyot va kasbga yo‘naltirish ishlarini takomillashtirish, malakali o‘qituvchilar va ishlab chiqarish ta’limi ustalari bilan butlash hamda kasb-hunarga o‘qitish markazi faoliyati bo‘yicha ayrim masalalarni ko‘rib chiqish uchun davlat boshqaruvi organlariga takliflar kiritadi;

o‘qituvchi, boshqaruv, xizmat ko‘rsatuvchi, texnik va boshqa xodimlar bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi.

Direktor qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

16. Kasb-hunarga o‘qitish markazi huzurida kollegial organ hisoblanadigan O‘quv-metodik kengash tashkil etiladi.

O‘quv-metodik kengashning asosiy vazifa va funksiyalari kasb-hunarga o‘qitish markazining ustavida belgilanadi.

Kasb-hunarga o‘qitish markazining rahbar va mutaxassis xodimlariga, shu jumladan o‘qituvchilari, ishlab chiqarish ta’limi ustalari va boshqa xodimlariga qo‘yiladigan lavozim malaka talablari O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va uning hududiy mehnat organlari tomonidan belgilanadi.

5-bob. Kasb-hunarga o‘qitishni tashkil etish va kasb-hunarga o‘qitish jarayoni qatnashchilari

17. Kasb-hunarga o‘qitish markazida hududiy mehnat organlari tomonidan ro‘yxatga olingan ishsiz va ish qidirayotgan shaxslar, shuningdek, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar hamda “labor-migration” dasturiy majmuasida ro‘yxatga olingan fuqarolarni tadbirkorlik ko‘nikmalari va xorijiy tillarga o‘qitish, kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomaga asosan bepul amalga oshiriladi.

18. Mazkur Nizomning 17-bandida nazarda tutilgandan tashqari shaxslarni tadbirkorlik ko‘nikmalari va xorijiy tillarga o‘qitish, kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish fuqarolarning o‘z mablag‘lari, buyurtmachilar mablag‘lari va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

19. Kasb-hunarga o‘qitish quyidagi turlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

uzoq muddatli o‘qitish — o‘quv jarayoni o‘ttiz haftadan qirq haftagacha davom etadi;

o‘rta muddatli o‘qitish — o‘quv jarayoni besh haftadan yigirma besh haftagacha davom etadi;

qisqa muddatli o‘qitish — o‘quv jarayoni to‘rt haftagacha davom etadi;

ishlab chiqarishda kasbga o‘qitish — o‘quv jarayoni ish beruvchida bir vaqtning o‘zida olib boriladigan mehnat faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bir nafar o‘quvchi uchun kelgusida ish beruvchida ishga joylashtirilgan holda kasbga tayyorlashdan (stajirovkadan) o‘tishi yigirma besh haftagacha davom etadi;

maqsadli o‘qitish — o‘quv jarayoni to‘rt haftagacha davom etadi.

Uzoq muddatli hamda o‘rta muddatli kasbga o‘qitish kasb-hunarga o‘qitish markazi, ish beruvchi, mahalliy mehnat organi va ishsiz shaxs o‘rtasida tuziladigan to‘rt tomonlama shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Agar ishsiz shaxs o‘qish tugagach, jismoniy va yuridik shaxslar uchun ish haqini (mehnat daromadini) olishga qaratilgan xizmatlarni ko‘rsatish, ishlarni bajarish bo‘yicha mehnat faoliyatini mustaqil ravishda amalga oshirish majburiyatini hamda o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tishni o‘z zimmasiga oladigan bo‘lsa, o‘rta muddatli o‘qitishga doir shartnoma tuzilayotganda ish beruvchining ishtirok etishi talab qilinmaydi.

Bunday holatda kasb-hunarga o‘qitish kasb-hunarga o‘qitish markazi, mahalliy mehnat organi va ishsiz shaxs o‘rtasida tuziladigan ijtimoiy shartnomaga asosan tashkil etiladi.

20. O‘quvchilar, o‘qituvchilar va ishlab chiqarish ta’limi ustalari tarkibi va ish beruvchilar kasb-hunarga o‘qitish markazi ta’lim jarayonining qatnashchilari hisoblanadilar.

21. Kasb-hunarga o‘qitish markazi o‘quvchilari o‘quv markazining ichki tartib-qoidalariga rioya qilishlari shart.

22. Kasb-hunarga o‘qitish markaziga qabul qilingan o‘quvchilar:

kasb-hunar, xorijiy tillar va tadbirkorlikka o‘qish;

tashkilotlarda egallayotgan kasbiy ko‘nikmalariga mos bo‘lgan yo‘nalishlar bo‘yicha amaliyot o‘tash;

kasb-hunarga o‘qitish markazining moddiy-texnik bazasi va mol-mulkidan foydalanish;

o‘quvchilar turar joyida yashash;

belgilangan tartibda o‘qishni boshqa o‘quv markaziga ko‘chirishga haqli.

23. Mahalliy mehnat organlari tomonidan belgilangan tartibda yo‘llanma asosida yuborilgan o‘quvchilarga o‘qish davrida stipendiya to‘lanishi hamda ushbu davrni mehnat stajiga qo‘shish fuqarolarga (ishsizlarga) davlat tomonidan moddiy yordam berishga oid kafolatlar hisoblanadi.

24. O‘qituvchilar tarkibini, ishlab chiqarish ta’limi ustalari va boshqaruv, xizmat ko‘rsatuvchi, texnik va boshqa xodimlarni kasb-hunarga o‘qitish markaziga ishga qabul qilish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

25. O‘qituvchilar va ishlab chiqarish ta’limi ustalarining huquqlari va vazifalari qonunchilik hujjatlariga va kasb-hunarga o‘qitish markazi ustaviga muvofiq belgilanadi.

6-bob. Kasb-hunarga o‘qitish markazi faoliyatini moliyaviy va moddiy ta’minlash

26. Kasb-hunarga o‘qitish markazining faoliyati:

Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasidan ajratiladigan mablag‘lar;

xo‘jalik faoliyati va ustavdagi vazifalariga muvofiq bo‘lgan boshqa faoliyat turlaridan olingan daromadlar;

shartnoma asosida fuqarolarni kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, tadbirkorlik va xorijiy tillarga o‘qitish faoliyatidan tushgan mablag‘lar;

kasbiy malakalarni baholash markazi faoliyatidan kelib tushgan mablag‘lar;

xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat tashkilotlari kreditlari va grantlari;

yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

27. Kasb-hunarga o‘qitish markazi belgilangan tartibda tasdiqlangan xarajatlar smetasi asosida moliyalashtiriladi.

28. Kasb-hunarga o‘qitish markazi tarkibiy tuzilmasi, shtatlar jadvali, rahbar, o‘qituvchi va boshqa barcha xodimlarining mehnatiga haq to‘lash, ustama, rag‘batlantirish va mukofotlash miqdori Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Shartnoma asosida fuqarolarni kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, tadbirkorlik va xorijiy tillarga o‘qitish, kasbiy malakalarni baholash markazi hamda qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa xo‘jalik faoliyatidan tushgan mablag‘lar tegishlicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari boshliqlari bilan kelishilgan holda, kasb-hunarga o‘qitish markazining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o‘quv-metodik faoliyatini takomillashtirish, o‘quv qurollari va xomashyo xarid qilish, xodimlarni rag‘batlantirish uchun sarflanishi mumkin.

29. Kasb-hunarga o‘qitish markazi tasdiqlangan yo‘nalishlarga (mutaxassisliklarga) muvofiq o‘quv jarayoni uchun asbob-uskuna va jihozlar Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan xarid qilinadi.

30. O‘quv jarayonida ishlab chiqarilgan yarim tayyor, tayyor mahsulotlarni (tovar, ish, xizmatlarni) ushbu markazlarga o‘z hududida joylashgan ko‘rgazmali pavilonlar va yarmarkalar hamda elektron tijorat orqali namoyish qilish va sotishga (tushgan mablag‘larni o‘quv jarayoni uchun zarur bo‘lgan ehtiyot qismlar va xomashyo materiallarini xarid qilish, xodimlar malakasini oshirish va ularni rag‘batlantirish uchun sarflashga yo‘naltirish sharti bilan) ruxsat etiladi.

31. Kasb-hunarga o‘qitish markazi mablag‘lari, binolari, inshootlari, asbob-uskunalari va boshqa tovar-moddiy qiymatliklari kasb-hunarga o‘qitish markaziga biriktirilgan mulk hisoblanadi va ulardan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda foydalanadi.

32. Kasb-hunarga o‘qitish markazining ayrim yo‘nalishlarini (kasb, ixtisosliklarini) nogironligi bo‘lgan shaxslarga moslashtirish, ularni kasb-hunarga o‘qitish bo‘yicha maxsus ustaxonalarni qo‘shimcha jihozlash Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

33. Kasb-hunarga o‘qitish markazi belgilangan tartibda o‘z ishlari natijalarining tezkor va buxgalteriya hisobini amalga oshiradi, statistik va buxgalteriya hisobotlarini yuritadi.

34. Kasb-hunarga o‘qitish markazlarining tuzilmasi, shtatlar jadvali, rahbar, o‘qituvchi va boshqa xodimlarning mehnatiga haq to‘lash tartibi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

Bunda rahbarlar, xodimlar va o‘qituvchilar mehnatga haq to‘lash shartlari bo‘yicha o‘rta maxsus professional ta’lim muassasalarining rahbarlari, xodimlari va o‘qituvchilariga tenglashtiriladi.

7-bob. Kasb-hunarga o‘qitish maskanlari faoliyatini tashkil etish tartibi

35. Kasb-hunarga o‘qitish maskanlari Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimidagi o‘quv markazlari filiallari (tarkibiy bo‘linmalari) (keyingi o‘rinlarda — maskanlar) sifatida tashkil etiladi.

Maskanlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari boshliqlari buyruqlariga muvofiq ushbu

hududdagi kasb-hunarga o‘qitish markazlariga alohida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan tarkibiy bo‘linma sifatida biriktiriladi.

36. Maskanlar mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan belgilangan tartibda ajratiladigan mahalla guzarlari, ta’lim muassasalari yoki hududdagi boshqa tashkilotlar binolaridagi alohida joylarda tashkil etiladi.

37. Maskanlarda mehnat bozori ehtiyojlari asosida murakkab jihoz va ko‘nikma talab etilmaydigan yo‘nalishlar (tikuvchilik, oshpazlik, qandolatchilik, sartaroshlik, kompyuter savodxonligi, tadbirkorlik asoslari hamda boshqa kasb va mutaxassisliklar) bo‘yicha uch oydan oshmagan, shuningdek, o‘qitish quvvati bir vaqtning o‘zida 15 kishidan oshmagan holda qisqa muddatli o‘quv kurslari tashkil etiladi.

38. O‘quv kurslariga mehnat organlari yo‘llanmasi asosida yuborilgan ishsiz shaxslar belgilangan tartibda bepul o‘qitiladi, shuningdek, ushbu toifaga kirmaydigan aholi qatlami uchun o‘quv kurslari pulli asosda tashkil etilishi ham mumkin.

39. Maskanlarda o‘qitiladigan yo‘nalishlar (mutaxassisliklar), ularning o‘quv reja va dasturlari, dars jadvallari va o‘quv jarayoniga tegishli boshqa hujjatlar maskanga biriktirilgan kasb-hunarga o‘qitish markazi tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari ko‘rsatmasiga muvofiq tasdiqlanadi.

40. Maskanlarda kasb-hunarga o‘qitish faoliyatini amalga oshiradigan ishlab chiqarish ta’limi ustalari maskanlar joylashgan hududda istiqomat qiluvchi fuqarolar yoki markazdagi ta’lim ustalari orasidan tanlab olinadi hamda qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda biriktirilgan o‘quv markaziga ishga qabul qilinadi.

41. Maskanlarda faoliyat yurituvchi ishlab chiqarish ta’limi ustalari Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimidagi kasb-hunarga o‘qitish markazlari hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ko‘rsatmasiga asosan boshqa muassasalarda malaka oshiradi.

42. Maskanlarga ular biriktirilgan kasb-hunarga o‘qitish markazi umumiy rahbarlik qiladi hamda ularning faoliyati yuzasidan barcha masalalarni muvofiqlashtirib boradi.

43. Maskanlarni tamomlagan bitiruvchilarga maskanlar biriktirilgan kasb-hunarga o‘qitish markazlarining tegishli o‘qishni tamomlaganligini tasdiqlovchi hujjat (sertifikat) beriladi.

44. Maskanlarni moddiy-texnik jihatdan ta’minlash, ularga jihoz, asbob-uskuna, o‘quv qurollari, xomashyo, konselyariya mollari hamda o‘quv jarayoniga tegishli boshqa barcha moddiy qimmatliklarni xarid qilish, saqlash va boshqa xarajatlar ushbu maskanlarga biriktirilgan kasb-hunarga o‘qitish markazi talabnomasi asosida tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari tomonidan Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manba mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

45. Maskanlardagi mavjud jihoz, asbob-uskuna, o‘quv qurollari va boshqa tovar-moddiy qimmatliklar ushbu maskanlarga biriktirilgan kasb-hunarga o‘qitish markazining mol-mulki hisoblanadi.

Ushbu mol-mulkni asrab-avaylash va undan samarali foydalanish bo‘yicha moddiy javobgar shaxs ushbu maskanlarda o‘qitish faoliyatini amalga oshiruvchi ishlab chiqarish ta’limi ustasidir.

46. Maskanlarning mol-mulki va boshqa moddiy qimmatliklarini saqlash, asrab-avaylash bo‘yicha ushbu maskanlarga biriktirilgan kasb-hunarga o‘qitish markazlari barcha chora-tadbirlarni, shu jumladan, texnika xavfsizligi, yong‘inga qarshi signalizatsiya, videokuzatuv, yoritish tizimi, temir panjarali oyna o‘rnatish hamda boshqa ishlarni tashkil etadi.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan maskanlar mol-mulki va boshqa moddiy qimmatliklarini saqlash uchun qorovul va farrosh shtatlari maskanlarga biriktirilgan kasb-hunarga o‘qitish markazi tomonidan ta’minlanadi.

47. Maskanlarda o‘quv jarayonlarini tashkil etish va olib borish tartib-taomillari, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi yo‘riqnomalari, ichki tartib-qoidalar va maskanlar faoliyatiga doir boshqa ichki hujjatlar ushbu maskanlarga biriktirilgan kasb-hunarga o‘qitish markazi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

48. Maskanlar faoliyati ushbu maskanlarga biriktirilgan kasb-hunarga o‘qitish markazining xarajatlar smetasi asosida Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari, o‘qish uchun to‘lovlar, xalqaro moliya institutlari kreditlari va grantlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa moliyaviy manbalar hisobidan moliyaviy ta’minlanadi.

8-bob. Yakunlovchi qoida

49. Kasb-hunarga o‘qitish markazlari va maskanlarni qayta tashkil etish hamda tugatish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-apreldagi 183-son qaroriga
3-ILOVA

Ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirishni tashkil etish tartibi to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom mahalliy mehnat organlarida belgilangan tartibda ishsiz deb e’tirof etilgan (keyingi o‘rinlarda — ishsiz shaxslar) hamda ish qidirayotgan shaxs sifatida ro‘yxatga olingan (keyingi o‘rinlarda — ish qidirayotgan shaxslar), shuningdek, “labor-migration” dasturiy majmuasida ro‘yxatga olingan shaxslar hamda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni mehnat bozorining joriy va istiqboldagi ehtiyojlari asosida kasb-hunarga o‘qitishni tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Ishsiz va ish qidirayotgan, shu jumladan “temir daftar”, “ayollar daftari” va “yoshlar daftari”ga kirgan shaxslarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish (keyingi o‘rinlarda — kasb-hunarga o‘qitish) quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

kasbi (mutaxassisligi) mavjud bo‘lmaganda;

mavjud kasbiy ko‘nikmalariga maqbul ish yo‘qligi sababli kasbni (mutaxassislikni) o‘zgartirish zarur bo‘lganda;

kasbiy ko‘nikmalari mavjud bo‘lmaganligi yoki yetarli bo‘lmaganligi, kasbiga (mutaxassisligiga) doir talablar o‘zgartirilganligi bois malaka oshirishi zarur bo‘lganda;

avvalgi kasbi (mutaxassisligi) bo‘yicha ish bajarish qobiliyati yo‘qotilganda.

3. Ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasb-hunarga o‘qitish quyidagi o‘quv muassasalarida (tashkilotlarda) amalga oshirilishi mumkin:

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (keyingi o‘rinlarda — Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi) tizimidagi “Ishga marhamat” monomarkazlari va kasb-hunarga o‘qitish markazlari;

professional ta’lim tashkilotlari;

xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘quv markazlari va bo‘linmalari;

davlat boshqaruvi organlari, xo‘jalik birlashmalarining malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi tashkilotlari hamda ularning huzuridagi o‘quv markazlari;

ta’lim faoliyatini amalga oshirish bo‘yicha tegishli tartibda ruxsatnomaga (litsenziyaga) ega bo‘lgan tashkilotlar;

shogirdlarga kasb o‘rgatish imkoniyatlariga ega bo‘lgan “Hunarmand” uyushmasiga a’zo bo‘lgan hunarmandlarning “Usta-shogird” maktablari.

4. Kasb-hunarga o‘qitish jarayoni o‘quv muassasasi yoki korxonaning ish o‘rnida amalga oshirilishi mumkin. Ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasb-hunarga tashkilotlarning ish o‘rnida ko‘pi bilan har o‘n nafar o‘quvchilarga ushbu tashkilotning tajribali bir nafar xodimi — ishlab chiqarish ta’limi yo‘riqchisini biriktirgan holda o‘qitishga yo‘l qo‘yiladi.

Ishlab chiqarish sohasida ta’lim jarayoni o‘quv ustaxonalarida, o‘quv amaliyot-mashq maydonchalarida va bitiruvchilar ishga joylashtirilishi uchun mo‘ljallangan tashkilotlarning ishlab chiqarish sharoitida amalga oshirilishiga yo‘l qo‘yiladi. Ushbu maqsadlarda har bir o‘quvchiga ishlab

chiqarish ta’limini boshlashdan oldin zarur asbob, uskuna, ashyolar bilan jihozlangan ish o‘rni ajratib beriladi.

Agar o‘quv muassasasining zarur o‘quv-moddiy bazasi bo‘lmagan taqdirda, ishlab chiqarish sohasida ta’lim jarayoni tashkilotlarning ish o‘rinlarida amalga oshiriladi. Lekin, o‘quv muassasasi kasb-hunarga o‘qitish jarayonini monitoring qilib boradi, tashkilotning malakaviy komissiyasi tarkibida ishtirok etadi va baholaydi, o‘qish yakuni bilan o‘quv muassasasining o‘qishni tamomlaganlik to‘g‘risidagi hujjati (sertifikat, guvohnoma, diplom) beriladi.

5. Pensiya turidan qat’i nazar, pensiya bilan ta’minlanish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar ularning jismoniy imkoniyatlarini hisobga olib, mehnat organlarida ro‘yxatga olinib, kasb-hunarga o‘qitishga muhtoj bo‘lsalar, ularni kasb-hunarga o‘qitish mumkin.

Ushbu toifadagi fuqarolar ishsiz deb e’tirof etilmaydilar. Biroq, mahalliy mehnat organlarida ish qidirayotgan shaxs sifatida ro‘yxatga olinish huquqini saqlab qoladilar. Bunda ularga qonunchilik hujjatlarida belgilangan barcha zarur xizmatlar (kasb-hunarga o‘qitish davrida stipendiya to‘lashdan tashqari) ko‘rsatiladi.

2-bob. Ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasb-hunarga o‘qitish faoliyatini tashkil etish tartibi

6. Ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasb-hunarga o‘qitish faoliyati Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari tomonidan muvofiqlashtiriladi.

7. Mahalliy mehnat organida ish qidirayotgan shaxs sifatida ro‘yxatga olingan hamda kasb-hunar o‘rganish istagini bildirgan taqdirda, qonunchilik hujjatlari hamda ushbu Nizomga muvofiq ushbu shaxs ish qidirayotgan shaxs sifatida ro‘yxatga olingan kundan boshlab kasb-hunarga o‘qitishga yuboriladi.

8. Mahalliy mehnat organida ish qidirayotgan shaxs sifatida ro‘yxatga olinganlar uchun maqbul keladigan ishga doir takliflar mavjud bo‘lmagan va ishga joylashtirish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, ish qidirayotgan shaxs ishsiz deb e’tirof etiladi va kasb-hunarga o‘qitish uchun yuborilishi mumkin.

9. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi:

ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasb-hunarga o‘qitish sohasida yagona davlat siyosatini yuritishni ta’minlaydi;

ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasb-hunarga o‘qitish tizimini shakllantiradi;

ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasb-hunarga o‘qitish uchun to‘lab beriladigan to‘lov miqdorini belgilaydi;

kasb-hunarga o‘qitish faoliyati uchun zarur bo‘lgan normativ-huquqiy bazani yaratadi;

ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasb-hunarga o‘qitadi, shu jumladan, ularga kasbiy maslahatlar beradi;

tizimdagi “Ishga marhamat” monomarkazlari va kasb-hunarga o‘qitish markazlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi va umumiy boshqaruvni amalga oshiradi, ularning moddiy-texnik bazasini rivojlantiradi;

ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasb-hunarga o‘qitish masalalari yuzasidan xalqaro va hududlararo hamkorlikka ko‘maklashadi;

ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasb-hunarga o‘qitishning o‘quv-metodik ta’minotini tashkil etishni ta’minlaydi.

10. Hududiy mehnat organlari:

aholi bandligiga ko‘maklashish markazlarini ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasb-hunarga o‘qitishni tashkil etishga doir faoliyatini tashkil qiladi va muvofiqlashtiradi;

aholi bandligiga ko‘maklashish markazlarining ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasb-hunarga o‘qitish masalalari bo‘yicha uslubiy ta’minlaydi va ularning amalga oshirilishini nazorat qiladi;

nodavlat kasb-hunarga o‘qitish tashkilotlari o‘rtasida ishsiz va ish qidirayotgan, shu jumladan, mehnat migrantlari va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni kasb-hunarga o‘qitish uchun tanlov o‘tkazadi va o‘qitish xarajatlarini qoplash uchun grant ajratadi.

11. Mehnat organlarining mutaxassislari ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarga kasb tanlash va kasbiy ta’lim olish imkoniyatlariga doir bepul maslahatlar beradi.

Mehnat organlariga murojaat qilgan shaxslarga kasbiy maslahatlar asosan mehnat bozorining talablarini — ishchi xodimlardan yuksak saviya, ijodiy tashabbus, zamonaviy iqtisodiy fikrlash, ishning yangi uslub va ko‘nikmalarini egallash talablarini qo‘ygan holda, yakka tartibda suhbatlar o‘tkazish, ijtimoiy, psixologik va boshqa sinab ko‘rish (test) usullaridan foydalanib, tegishli kasbga tayyorlashga doir hujjatlarni, mehnat daftarchasidagi yozuvlar va boshqalarni o‘rganish, har bir shaxsning sog‘ligini, kasbiy qiziqishini, qobiliyatini, shaxsiy xususiyatlarini unga tavsiya qilingan yoki o‘zi tanlangan kasbning xususiyatlariga, ta’lim shakli va o‘rniga muvofiqligini aniqlash maqsadida beriladi.

Kasbiy maslahat berish orqali yordam ko‘rsatishda ayrim aholi guruhlariga — yoshlar, xotin-qizlar, kambag‘al oilalar a’zolari, chet elga ketish istagidagi va u erdan qaytib kelgan mehnat migrantlari, nogironligi bo‘lgan shaxslarga alohida e’tibor qaratilishi lozim.

Ish qidirayotgan va ishsiz shaxslar tarkibidan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga mansub shaxslar ustuvor tartibda kasb-hunarga o‘qitishdan o‘tish huquqiga ega.

12. Ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasb-hunarga o‘qitish quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

o‘qitishga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash;

o‘qitish o‘rnini aniqlash;

o‘qitish va bandlikka ko‘maklashish yuzasidan shartnomalar tuzish;

o‘quv guruhlarini butlash va kasbga tayyorlashga yo‘llash;

kasbiy ta’lim jarayoni;

kasbiy ta’lim jarayonini nazorat qilish;

kasbiy tayyorgarlikdan o‘tgan shaxslardan malakaviy imtihon olish;

kasbga o‘qitishga doir ishlarni hisobga olish va statistik hisobot.

13. Kasb-hunarga o‘qitishga bo‘lgan ehtiyoj mehnat bozorida ishchi kuchiga kasbiy-malakaviy kesimdagi talabni va hududning rivojlanish istiqbollarini inobatga olib, ishsiz va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni ishga joylashtirishning maqbul variantlarini izlab topish orqali aniqlanadi.

14. Ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan kasb-hunarga o‘qitish mazkur Nizomning 3-bandida ko‘rsatilgan o‘quv muassasalari (tashkilotlar) bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzish asosida amalga oshiriladi.

Mehnat organlari tuzilgan shartnomalar asosida kasb-hunarga o‘qitishga muhtoj bo‘lgan shaxslarga belgilangan shakldagi kasbga o‘qitishga yo‘llanmalarni beradi, o‘quv muassasalari esa ularning o‘qishga qabul qilinganligi to‘g‘risida buyruq chiqaradi.

15. Ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasb-hunarga o‘qitish kursli shaklda hamda yakka tartibda tashkil qilinishi mumkin.

16. Kasb-hunarga o‘qitish kursli shaklda tashkil etilganda, odatda, o‘quv guruhlaridagi tinglovchilar soni besh nafardan yigirma nafargacha bo‘lishi mumkin.

17. Ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni yakka tartibda kasb-hunarga o‘qitishda ishlab chiqarish sohasida ta’lim jarayoni asosiy ishidan ozod qilinmagan malakali ishchi — ishlab chiqarish ta’limi yo‘riqchisi rahbarligida tashkilotning ish o‘rnida amalga oshiriladi.

Ishsiz aholini milliy hunarmandchilikning tarixan shakllangan an’analari asosida “Usta-shogird” maktablarida xalq hunarmandchiligining “Usta-shogird” an’anasiga muvofiq kasb-hunar ko‘nikmalarini o‘rgatish ham yakka tartibdagi kasb-hunarga o‘qitish turiga kiradi.

Yakka tartibda kasb-hunarga o‘rgatishda o‘quvchi nazariy bilimlar kursini o‘qituvchilardan maslahatlar (konsultatsiyalar) olish yo‘li bilan va mustaqil ravishda o‘rganishi ham mumkin.

18. Milliy va badiiy hunarmandchilik kasblariga faqat “Hunarmand” uyushmasiga a’zo bo‘lgan va yakka tartibda faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkor ustalarning maktablarida amalga o‘rgatiladi.

19. Milliy hunarmandchilik kasblarini o‘rgatadigan xalq ustalari “Usta-shogird” usulida kasb-hunarga o‘rgatishda o‘zlarining imkoniyatlariga qarab, ta’lim oluvchi shogirdlarning sonini

ixtiyoriy ravishda belgilashlari mumkin, biroq ularning umumiy soni o‘n kishidan ko‘p bo‘lmasligi lozim.

20. Mehnat organlari joylarda faoliyat ko‘rsatayotgan hunarmandlar haqida batafsil ma’lumotlar to‘plab, ularning imkoniyatlari, istaklarini inobatga olgan holda ish yuritadilar. Bu ma’lumotlar majmuasi muntazam ravishda to‘ldirilib boriladi.

21. Ustalarning ish o‘rinlarida xavfsizlik texnikasi qoidalari bo‘yicha shogirdlarga beriladigan yo‘riqlarni hisobga olib borish daftari ochiladi. Shogirdlar xavfsizlik texnikasi qoidalari bo‘yicha yo‘riq olganliklari to‘g‘risida ushbu daftarga imzo chekadilar.

22. Ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasb-hunarga o‘qitish quyidagi o‘qitish muddatlari bo‘yicha amalga oshiriladi:

uzoq muddatli o‘qitish — o‘quv jarayoni o‘ttiz haftadan qirq haftagacha davom etadi;

o‘rta muddatli o‘qitish — o‘quv jarayoni besh haftadan yigirma besh haftagacha davom etadi;

qisqa muddatli o‘qitish — o‘quv jarayoni to‘rt haftagacha davom etadi;

ishlab chiqarishda kasbga o‘qitish — o‘quv jarayoni ish beruvchida bir vaqtning o‘zida olib boriladigan mehnat faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bir nafar o‘quvchi uchun kelgusida ish beruvchida ishga joylashtirilgan holda kasbga tayyorlashdan (stajirovkadan) o‘tishi yigirma besh haftagacha davom etadi;

maqsadli o‘qitish — o‘quv jarayoni to‘rt haftagacha davom etadi.

23. Ishsiz shaxslarni uzoq muddatli hamda o‘rta muddatli kasb-hunarga o‘qitishda mazkur Nizomning 3-bandida ko‘rsatilgan o‘quv muassasalari (tashkilotlar), ish beruvchi, mahalliy mehnat organi va ishsiz shaxs o‘rtasida tuziladigan to‘rt tomonlama shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Agar ishsiz shaxs o‘qish tugagach, jismoniy va yuridik shaxslar uchun ish haqini (mehnat daromadini) olishga qaratilgan xizmatlarni ko‘rsatish, ishlarni bajarish bo‘yicha mehnat faoliyatini mustaqil ravishda amalga oshirish majburiyatini hamda o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tishni o‘z zimmasiga oladigan bo‘lsa, o‘rta muddatli o‘qitishga doir shartnoma tuzilayotganda ish beruvchining ishtirok etishi talab qilinmaydi.

Bunda mazkur Nizomning 3-bandida nazarda tutilgan kasb-hunarga o‘qitish faoliyatini amalga oshiruvchi muassasalar (tashkilotlar) mahalliy mehnat organi va ishsiz shaxs o‘rtasida tuziladigan ijtimoiy shartnomaga asosan tashkil etiladi.

Ish qidirayotgan shaxslarni kasb-hunarga o‘qitishda ular bilan ishga joylashtirish bo‘yicha shartnoma tuzish talab etilmaydi.

24. Ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasb-hunarga o‘qitish mazkur Nizomning 3-bandida nazarda tutilgan o‘quv muassasalari (tashkilotlari) bilan kelishilgan holda kunduzgi, kechki va onlayn shaklda amalga oshirilishi mumkin.

25. Ilg‘or ish tajribasini chuqur o‘rganish maqsadida kambag‘al oilalarning oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarining so‘nggi bosqichida o‘qiyotgan bitiruvchi farzandlari tashkilotlarga stajirovkaga yuboriladi.

Bunda stajirovka mahalliy mehnat organlari yo‘llanmasi hamda uch tomonlama tuziladigan shartnomaga muvofiq o‘quvchini kelgusida ish beruvchida ishga joylashtirish sharti asosida stajirovkadan o‘tishi yigirma besh haftagacha davom etishi mumkin.

Stajirovka o‘tayotgan bitiruvchilarga stajirovka davrida har oy uchun mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 35,2 foizi miqdorida Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan stipendiya to‘lab beriladi.

26. Ishchi (mutaxassis)lar jumlasidan bo‘lgan ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarning kasbiy mahoratini oshirish va keyinchalik ularni ishga joylashtirish, ularda mavjud bo‘lgan kasblar bo‘yicha ushbu guruhdagi fuqarolarning manfaatlarini ko‘zlab va ishlab chiqarish talablariga, ishga joylashtirish imkoniyatlariga muvofiq yuqoriroq tarif razryadlarini (klass, toifa) egallash, ilg‘or texnika va texnologiyalarni, yangi jihoz va materiallarni o‘rganish maqsadida ularning malakasini oshirish tashkil qilinadi.

27. Ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasb-hunarga o‘qitishning belgilangan tartibda tashkil etilganligi, o‘quvchilar davomati hamda o‘quv jarayonlarining ish beruvchi talabiga

muvofiqligi va uning sifati ustidan monitoring hududiy mehnat organlarining tegishli mutaxassislari tomonidan joyiga chiqqan holda amalga oshirilishi mumkin.

28. Ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasb-hunarga o‘qitish jarayoni o‘quv jarayoni tashkil qilingan muassasada (tashkilotda) yakuniy malaka imtihonini joriy tartibda topshirish bilan yakunlanadi.

Ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarning zarur tayyorgarligi bo‘lgan hollarda yakuniy malaka imtihonlari, shuningdek, kasb va tegishli malaka darajasini olish uchun kompetensiyalarni baholash bo‘yicha imtihonlarning belgilangan muddatdan oldin topshirilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Malaka imtihonlari komissiyasining tarkibiga o‘qishga yo‘llanma bergan mehnat organining vakili ham kiritilishi mumkin.

29. Kasb-hunarga o‘qitish jarayonidan o‘tgan va yakuniy malaka imtihonlarini topshirgan shaxslarga o‘quv jarayonini tashkil qilgan muassasa (tashkilot)lar tomonidan o‘qishni tamomlaganligini tasdiqlovchi hujjat (sertifikat, guvohnoma, diplom va boshqalar) beriladi.

30. Mehnat organlari tomonidan kasb-hunarga o‘qitish uchun yuborilgan va o‘qishni yakunlagan shaxslarning elektron mehnat daftarchasida xodimlar mehnat stajini hisobga olish bo‘yicha yozuvlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda kiritiladi. Bunda ko‘rsatilgan kasb-hunarga o‘qitish davri mehnat stajiga qo‘shiladi.

31. Kasb-hunarga o‘qitishni amalga oshirayotgan muassasa (tashkilot)lar texnika xavfsizligi qoidalari bilan o‘quvchilarni tanishtirish, o‘quvchilar davomatining hisobga olish, bitiruv malaka imtihonlari bayonnomalarini rasmiylashtirish va o‘qishni tamomlagan bitiruvchiga o‘qishni tamomlaganligini tasdiqlovchi hujjatni berish majburiyatini oladi.

32. Ishsiz va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni kasb-hunarga o‘qitishni ta’minlay oladigan o‘quv tashkilotlarining ro‘yxati hududiy mehnat organlari tomonidan belgilanadi.

33. Mahalliy mehnat organlari tomonidan kasb-hunarga o‘qitish uchun boshqa hududlarga yo‘llangan o‘quvchilar yotoqxonaga (mehmonxonaga) joylashtirilishi mumkin.

3-bob. Ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasb-hunarga o‘qitishni moliyalashtirish

34. Ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasb-hunarga o‘qitish bilan bog‘liq faoliyat O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga moliyalashtiriladi.

35. Ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasbga tayyorlashga yo‘llagan mahalliy mehnat organlari kasb-hunarga o‘qitish kursi narxi belgilangan shartnoma hamda o‘quvchilar davomati to‘g‘risida taqdim etilgan ma’lumotga muvofiq kasb-hunarga o‘qitish faoliyatini amalga oshirgan o‘quv muassasalarining hisobraqamiga pul mablag‘larini har oyda o‘tkazib beradilar.

36. Ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasb-hunarga o‘qitish uchun mo‘ljallangan sarf-xarajatlar quyidagilardan iborat bo‘ladi:

o‘qituvchilar, ishlab chiqarish ta’limi ustalari (yo‘riqchilari) va usta-hunarmandlarning mehnatiga haq to‘lash;

kasb-hunarga o‘qitish faoliyatini amalga oshiruvchi muassasada (tashkilotda) tuzilgan yakuniy malaka imtihonlari komissiyasi a’zolarining mehnatiga haq to‘lash;

boshqa hududlardan kelib o‘qiyotgan shaxslarning transport va turar-joy bilan bog‘liq xarajatlar;

o‘qish davrida qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda stipendiyalar to‘lash (ish qidirayotgan shaxslar bundan mustasno);

o‘quv jarayoni uchun sarflanadigan kommunal (elektr energiyasi, suv, gaz va boshqalar) va xomashyo xarajatlari;

ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasb-hunarga o‘qitishni tashkil qilish va amalga oshirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlar.

Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi hisobidan ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasb-hunarga o‘qitish uchun xarajatlar smetasi joriy tartibda mehnat organlari tomonidan tasdiqlanadi.

4-bob. Ishsiz shaxslarni kasb-hunarga o‘qitish davrida stipendiya to‘lash tartibi

37. Ishsiz shaxslarga mahalliy mehnat organlarining yo‘llanmasi asosida kasb-hunarga o‘qitish davrida stipendiya to‘lanishi hamda shu davrni umumiy mehnat stajiga qo‘shilishi kafolatlanadi.

Ish qidirayotgan shaxslar kasb-hunarga o‘qitish uchun yuborilganda, ushbu davrda ularga stipendiya to‘lanmaydi hamda ushbu davr umumiy mehnat stajiga qo‘shilmaydi.

Agar pensiyaning turidan qat’i nazar, pensiya bilan ta’minlanish huquqiga ega bo‘lganlar mehnat organlarida ro‘yxatdan o‘tgan va kasb-hunar o‘rganishga muhtoj bo‘lsalar, ularga kasb-hunarga o‘qitish davrida stipendiya to‘lanmaydi, lekin ularga qonunchilik hujjatlarida belgilangan barcha zarur xizmatlar ko‘rsatilishi lozim.

38. O‘qish yakunlangandan so‘ng bitiruvchilar o‘qishga yuborgan mehnat organlariga mazkur Nizomga ilovaga muvofiq o‘qishni bitirganligini tasdiqlovchi varaqani topshiradilar.

39. Kasb-hunarga o‘qitilayotgan ishsiz shaxslarga stipendiyalar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartib va miqdorda to‘lanadi.

40. O‘quv mashg‘ulotlariga sababsiz qatnashmayotgan, o‘zlashtirmayotgan yoki mehnat va jamoat tartibini buzayotgan shaxslarning o‘qishni davom ettirishlari to‘g‘risidagi masala o‘quv tashkilotining rahbariyati va mahalliy mehnat organlari vakillari bilan birgalikda hal qilinadi. Surunkasiga va sababsiz o‘quv mashg‘ulotlariga qatnashmayotgan yoki jamoat tartibini buzganligi, jinoyat sodir qilganligi tufayli hibsga olingan shaxslarga stipendiyalar to‘lash mahalliy mehnat organi va o‘quv muassasasi qabul qilgan qaror asosida to‘xtatib qo‘yiladi.

41. O‘qishni tugatgan ishsiz shaxs o‘quv dasturida ko‘zda tutilgan yakuniy malaka imtihonlarida nazariy va amaliy bilim va ko‘nikmalarining talabga javob bera olmasligi tufayli topshira olmasa, unga stipendiya to‘lanmasdan, qo‘shimcha mashg‘ulotlar o‘tkaziladi va qayta yakuniy malaka imtihoni olinadi.

42. O‘qishni muvaffaqiyatli yakunlagan va tegishli hujjat olgan bitiruvchi ishga joylasha olmasa, u mehnat organlariga kelishi va unga egallagan kasbi (mutaxassisligi) bo‘yicha ishga joylashish yuzasidan yordam ko‘rsatilishi lozim.

43. Ishsiz shaxslar ishlab chiqarishdan ajralgan holda o‘qishni tugatgandan keyin ishga joylashish yoki o‘zini o‘zi band qilish imkoni bo‘lmasa, qonunchilik hujjatlarida belgilangan miqdorda ishsizlik nafaqasi olish huquqiga ega.

44. Mazkur Nizomning 22-bandida belgilangan kasb-hunarga o‘qitish muddatlari mobaynida kasb-hunarga o‘qitishdan o‘tgan ishsiz shaxslar o‘zlariga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra (shartnoma bo‘yicha ishga joylashtiruvchi korxonaning tugatilishi, shtatlar sonining qisqartirilishi, texnologiyalarning o‘zgarishi va boshqalar) ishga joylasha olmasalar, ularni joriy yil mobaynida mehnat organlarida yana ishsiz deb e’tirof etib, o‘zlari tanlagan kasblar bo‘yicha o‘qishga yuborish mumkin.

Bitiruvchi ishsiz shaxslar uzrsiz sabablarga ko‘ra tanlagan kasblari bo‘yicha mehnat faoliyati bilan shug‘ullanmasdan, Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan joriy yil mobaynida takroran kasbga o‘qish istagini bildirsalar, bunday shaxslarni kasbiy ta’lim yakunidan keyin 6 oy o‘tgandan so‘ng qaytadan kasbiy tayyorgarlikka yo‘llash mumkin.

Oldingi tahrirga qarang.

44[1]. Mehnatga layoqatli nogironligi bo‘lgan ishsiz yoki ish qidirayotgan shaxslarni kasb-hunarga o‘qitishni rag‘batlantirish uchun har bir mehnatga layoqatli nogironligi bo‘lgan ishsiz yoki ish qidirayotgan shaxs uchun Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi hisobidan kasb-hunarga o‘qish davrida har oy uchun bazaviy hisoblash miqdorining ikki barobari miqdorida rag‘batlantirish to‘lovi to‘lab beriladi. Bunda:

aholining bandligiga ko‘maklashish markazlari nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun tavsiya etilgan kasblar va ularning qiziqishlaridan kelib chiqib, ularni kasb-hunarga o‘qitish maqsadida davlat yoki nodavlat ta’lim tashkilotlariga yo‘naltiradi;

nogironligi bo‘lgan shaxslarga rag‘batlantirish to‘lovini to‘lash haqidagi ma’lumotlar “Bandlik xizmati” axborot tizimida aks ettiriladi;

rag‘batlantirish to‘lovi o‘n ikki oylik davr ichida o‘qish davrining ko‘pi bilan yigirma olti kalendar haftasi davomida Xalq banki va uning filiallari tomonidan tegishli qaydnomaga asosan to‘lab beriladi;

to‘liq bo‘lmagan kalendar oy uchun to‘lov to‘lanishi kerak bo‘lgan kalendar oydagi kunlar sonining to‘liq kalendar oydagi kunlar soniga mutanosib miqdorda to‘lanadi;

davlat yoki nodavlat ta’lim tashkiloti nogironligi bo‘lgan shaxslarni o‘qishdan chetlatsa, bu haqda 3 kunlik muddatda aholini bandligiga ko‘maklashish markazlarini rasmiy ogohlantirish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi;

aholini bandligiga ko‘maklashish markazlariga o‘qishdan chetlatilganlik to‘g‘risida xat kelib tushgan kundan boshlab 3 ish kunida rag‘batlantirish to‘lovini to‘lashni to‘xtatish to‘g‘risida qaror qabul qiladi;

o‘quv kurslari uzrli sabablarga ko‘ra qoldirgan taqdirda rag‘batlantirish to‘lovlari to‘xtatilmaydi.

(44[1]-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi 596-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.10.2022-y., 09/22/596/0923-son)

5-bob. O‘zini o‘zi band qilganlar hamda “labor-migration” dasturiy majmuasida ro‘yxatga olingan shaxslarni kasb-hunarga o‘qitishni tashkil etish tartibi

45. Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan “labor-migration” dasturiy majmuasida ro‘yxatga olingan va tashkil etilgan mehnat migratsiyasi yo‘li bilan xorijiy mamlakatlarda ishlash uchun ketayotgan fuqarolar mahalliy mehnat organlari tomonidan ish qidirayotgan shaxs sifatida ro‘yxatga olingandan yoxud ishsiz shaxs sifatida e’tirof etilgandan so‘ng kasb-hunarga o‘qitish uchun yuboriladi.

Bunda ish qidirayotgan shaxs sifatida ro‘yxatga olingandan yoxud ishsiz shaxs sifatida e’tirof etilgandan so‘ng kasb-hunarga o‘qitish qonunchilik hujjatlari hamda mazkur Nizomga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

46. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar mazkur Nizomning 3-bandida qayd etilgan o‘quv muassasa (tashkilot)larida Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan kasb-hunarga o‘qitilishi mumkin.

Bunda mehnat organlari tomonidan o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar ish qidirayotgan shaxs sifatida ro‘yxatga olinmaydilar hamda ishsiz deb e’tirof etilmaydilar, ammo mehnat organlari yo‘llanmasi asosida o‘quv muassasa (korxona, tashkilot)larga kasb-hunarga o‘qitish uchun yuboriladilar.

4-bob. Yakunlovchi qoida

47. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Ishsiz va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirishni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomga
ILOVA

TASDIQLOVChI VARAQA _____-son

_____
tuman (shahar) ning nomi

_____
o‘qishga yo‘llagan mehnat organining manzili
I. Fuqaro _____
familiyasi, ismi, otasining ismi

_____ kasbiy tayyorgarlikdan o‘tdi.
Malaka imtihonlari komissiyasining qaroriga binoan ____ yil “___”
_____da unga _____ malakasi
va _____son guvohnoma berildi.

II . Fuqaro

_____
familiyasi, ismi, otasining ismi

_____ sabablarga ko‘ra (o‘qishga kelmadi) o‘qishni _____ sanadan to‘xtatib qo‘ydi, o‘qilgan soatlar _____ soat.

Sizga sarf qilinmagan mablag‘larning qoldiq summasi jo‘natildi

_____

so‘m.

(so‘z bilan)

To‘lov varaqalarining raqami va sanasi.

O‘quv markazining rahbari	Imzo	Sanasi
Bosh hisobchi	Imzo	Sanasi

M.O‘.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-apreldagi 183-son qaroriga
4-ILOVA

“Eng yaxshi kasbga tayyorlash dasturi” bo‘yicha nodavlat ta’lim tashkilotlari o‘rtasida ochiq tanlov o‘tkazish tartibi to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom “Eng yaxshi kasbga tayyorlash dasturi” bo‘yicha nodavlat ta’lim tashkilotlari o‘rtasida ochiq tanlov (keyingi o‘rinlarda — tanlov) o‘tkazish hamda tanlov g‘oliblariga Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi hisobidan grant ajratish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

grant — hududlardagi ishsiz va band bo‘lmagan aholi, birinchi navbatda, kambag‘al oilalar a’zolari, chet eldan qaytib kelgan mehnat migrantlari, xotin-qizlar va yoshlarni kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun tanlov ishtirokchisiga tanlov asosida ajratiladigan mablag‘lar;

kasbga tayyorlash dasturi — ishsiz va band bo‘lmagan aholi, birinchi navbatda, kambag‘al oilalar a’zolari, chet eldan qaytib kelgan mehnat migrantlari, xotin-qizlar va yoshlarni bir (yoki bir necha) kasb-hunarlarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish yoxud tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitishni nazarda tutuvchi chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan dastur loyihasi;

tanlov komissiyasi — tanlov ishtirokchisi tomonidan yuborilgan kasb-hunarga tayyorlash dasturlarini ko‘rib chiqish, umumlashtirish va baholash maqsadida tanlov tashkilotchilari huzurida tuziladigan komissiya.

3. Qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ta’lim faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan nodavlat kasb-hunarga o‘qitish muassasalari tanlovning ishtirokchilari (keyingi o‘rinlarda — tanlov ishtirokchilari) hisoblanadi.

4. Tashkil etish ko‘lamiga ko‘ra tanlov respublika hamda viloyat miqyosda o‘tkaziladi. Bunda mazkur Nizomda belgilangan tartibga muvofiq bir marta o‘tkaziladigan tanlovda kasbga tayyorlash dasturiga muvofiq qamrab olinadigan qishloq va chekka joylarda hamda chegara hududlarida yashovchi ishsiz va band bo‘lmagan aholi, ayniqsa, kambag‘al oilalar a’zolari, chet eldan qaytib kelgan mehnat migrantlari, xotin-qizlar va yoshlarning soni:

500 nafargachani tashkil etsa — tanlov viloyat miqyosida;

500 nafardan ko‘p bo‘lsa — tanlov respublika miqyosida tashkil etiladi va o‘tkaziladi.

5. Tanlov respublika miqyosida o‘tkaziladigan tanlovning respublika tashkilotchisi tomonidan, viloyat miqyosida o‘tkaziladigan tanlovning viloyat tashkilotchisi tomonidan mazkur Nizomga muvofiq belgilangan tartibda tashkil etiladi hamda muvofiqlashtiriladi.

6. Tanlovning respublika tashkilotchisi — O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (keyingi o‘rinlarda — Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi) hamda viloyat tashkilotchilari — tegishlicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda — tanlov tashkilotchilari) hisoblanadi.

7. Respublika va viloyat miqyosida o‘tkaziladigan tanlov uchun bir martalik ajratiladigan grant miqdori tanlovda qamrab olinadigan har bir shaxsga nisbatan bir oy uchun to‘g‘ri keladigan mablag‘ bazaviy hisoblash miqdorining to‘rt baravaridan oshmasligi shart.

8. Tanlov g‘oliblari tanlov komissiyasi tomonidan mazkur Nizomga ilovaga muvofiq sxema bo‘yicha aniqlanadi.

2-bob. Tanlov komissiyasi

9. Tanlov tashkilotchilariga tanlov ishtirokchisidan tushgan kasb-hunarga tayyorlash dasturlarini ko‘rib chiqish, umumlashtirish va ularni baholash maqsadida tanlov tashkilotchilari huzurida komissiya raisi, uning o‘rinbosari va kamida besh nafar a’zodan iborat tarkibda tanlov komissiyasi tuziladi.

Tanlov komissiyasi tarkibi tanlov tashkilotchisi rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

10. Tanlov komissiyasi majlisini uning raisi boshqaradi. Tanlov komissiyasi raisi bo‘lmagan taqdirda, majlisni uning o‘rinbosari boshqaradi.

Tanlov komissiyasi majlisi undagi a’zolarning kamida uchdan ikki qismi qatnashgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

11. Respublika miqyosida o‘tkaziladigan tanlovda O‘zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirining birinchi o‘rinbosari, viloyat miqyosida o‘tkaziladigan tanlovda tegishlicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmasi boshliqlari tanlov komissiyasi raisi hisoblanadi.

12. Tanlov komissiyasi raisi:

tanlov komissiyasi faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi;

rais o‘rinbosari va a’zolar o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

tanlov komissiyasi majlislarini chaqiradi va ularga raislik qiladi;

tanlov komissiyasi majlislari kun tartibini tasdiqlaydi;

tanlov komissiyasining samarali va shaffof ishlashini ta’minlash bo‘yicha boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

13. Tanlov komissiyasi quyidagi tarkibda tuziladi:

a) respublika miqyosida o‘tkaziladigan tanlov komissiyasi raisi o‘rinbosari — Ko‘nikma, muvofiqlik va malakani baholash milliy tizimini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i (1 nafar);

respublika miqyosida o‘tkaziladigan tanlov komissiyasi a’zolari:

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi samarali va maqsadli foydalanish boshqarmasi boshlig‘i (1 nafar);

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining vakili (1 nafar);

Oldingi tahrirga qarang.

Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash vazirligi vakili (1 nafar);

(13-band “a” kichik bandining beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 9-avgustdagi 438-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 10.08.2022-y., 09/22/438/0726-son)

Yoshlar ishlari agentligi vakili (1 nafar);

tanlov tashkilotchisi tasarrufidagi “Ishga marhamat” monomarkazi va Kasb-hunarga o‘qitish markazlari vakillari (2 nafar);

Oldingi tahrirga qarang.

Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi vakili (1 nafar).

(13-bandning “a” kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 9-avgustdagi 438-sonli qaroriga asosan xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 10.08.2022-y., 09/22/438/0726-son)

b) viloyat miqyosida o‘tkaziladigan tanlov komissiyasi raisi o‘rinbosari — tegishlicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Bandlik bosh boshqarmalari Kasbga qayta o‘qitishni tashkil etish shu’basi mudiri (1 nafar);

viloyat miqyosida o‘tkaziladigan tanlov komissiyasi a’zolari:

tegishlicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi samarali va maqsadli foydalanish shu’basi mudiri (1 nafar);

tegishlicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Kasbiy ta’limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmalari boshliqlarining vakili (1 nafar);

Oldingi tahrirga qarang.

tegishlicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash boshqarmalari boshliqlarining vakili (1 nafar);

(13-band “b” kichik bandining beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 9-avgustdagi 438-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 10.08.2022-y., 09/22/438/0726-son)

Yoshlar ishlari agentligining tegishlicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalarining vakili (1 nafar);

tanlov tashkilotchisi tasarrufidagi “Ishga marhamat” monomarkazi va Kasb-hunarga o‘qitish markazlari vakillari (1 nafar);

tanlovda qamrab olinadigan hududlarni inobatga olgan holda, mahalliy hokimliklardan vakillar (har bir mahalliy hokimliklardan 1 nafardan);

Oldingi tahrirga qarang.

tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar oila va xotin-qizlar boshqarmalari boshliqlarining vakili (1 nafar).

(13-bandning “b” kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 9-avgustdagi 438-sonli qaroriga asosan xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 10.08.2022-y., 09/22/438/0726-son)

14. Tanlov komissiyasining majlisi uning a’zolariga avvaldan yozma xabarnoma tarqatish yo‘li bilan chaqiriladi. Xabarnomada majlisni o‘tkazish kuni, vaqti va muhokama qilinadigan masalalar to‘g‘risidagi aniq ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

15. Tanlov komissiyasi a’zolari tarkibi O‘zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vaziri tomonidan mazkur Nizomning 13-bandida belgilangandan boshqacha tarkibda tuzilishi ham mumkin.

16. Tanlov komissiyasi a’zolari quyidagi hollarda tanlov komissiyasi tarkibidan muddatidan oldin chiqarilishi mumkin:

o‘z arizasiga ko‘ra;

u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilingan taqdirda;

zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarishda qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda;

vafot etgan taqdirda.

17. Tanlov komissiyasi majlislari ochiq tarzda o‘tkaziladi.

18. Tanlov komissiyasi majlislariga davlat va nodavlat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda boshqa tashkilotlardan soha mutaxassislari va ekspertlari, ommaviy axborot vositalarining vakillari va boshqa shaxslar taklif etilishi mumkin.

19. Tanlov komissiyasi qarorlari ochiq ovoz berish yo‘li bilan qabul qilinadi. Tanlov komissiyasi qarori majlisda ishtirok etgan a’zolarning ko‘pchiligi ovoz bergan taqdirda, vakolatli hisoblanadi. Ovozlar teng bo‘lgan taqdirda, tanlov komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

20. Tanlov komissiyasi quyidagi huquqlarga ega:

tanlov ishtirokchilarining kasbga tayyorlash dasturlarini o‘rganish va baholash;

tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim qilingan kasbga tayyorlash dasturlarini ma’qullash yoki rad qilish bo‘yicha qarorlar qabul qilish;

majlis o‘tkazish bo‘yicha qarorlar qabul qilish.

21. Tanlov komissiyasi mazkur Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etishi hamda tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim qilingan kasbga tayyorlash dasturi va boshqa hujjatlarni o‘rganish davomida ma’lum bo‘lgan ma’lumotlarni oshkor qilmasligi shart.

3-bob. Tanlovni o‘tkazish haqida xabardor qilish tartibi

22. Tanlov tashkilotchilari tomonidan tanlovni o‘tkazish haqidagi e’lon tanlov o‘tkaziladigan kundan kamida 10 kun oldin ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda hamda tanlov tashkilotchilarining Internet tarmog‘idagi rasmiy veb-saytida joylashtiriladi.

23. Tanlov o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’londa quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi kerak:

tanlovning umumiy tavsifi;

tanlov tashkilotchisining nomi va manzili;

tanlov uchun ajratilgan mablag‘ miqdori va uni moliyalashtirish manbai;

tanlov ishtirokchilariga qo‘yiladigan asosiy shartlar;

loyihani amalga oshirish muddatlari;

tanlov ishtirokchilaridan hujjatlarni qabul qilishning manzili, oxirgi kuni va vaqti.

24. Tanlovda ishtirok etish uchun ariza va unga ilova qilinadigan hujjatlar tanlov tashkilotchilariga ariza beruvchi tanlov ishtirokchisi tomonidan bevosita, pochta orqali va elektron shaklda berilishi mumkin.

25. Tanlov ishtirokchilarining tanlov o‘tkazish to‘g‘risidagi e’londa belgilangan muddatdan kechiktirib topshirilgan hujjatlari qabul qilinmaydi hamda ko‘rib chiqilmaydi.

4-bob. Tanlovni o‘tkazish tartibi va shartlari

26. Tanlov ushbu Nizomga ilovaga muvofiq sxema bo‘yicha berilgan ketma-ketlikka asosan tashkil etiladi va o‘tkaziladi va quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

tanlov o‘tkazilishi to‘g‘risida e’lon berish;

tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni ro‘yxatga olish, umumlashtirish va tanlov komissiyasiga taqdim etish;

mazkur Nizomda belgilangan mezonlar bo‘yicha tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan kasbga tayyorlash dasturlarini baholash va g‘oliblarni aniqlash;

tanlov g‘oliblari bilan kasbga tayyorlash dasturini amalga oshirish uchun grant ajratish bo‘yicha shartnoma imzolash;

tanlov g‘oliblari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga taqdim etish;

tanlov g‘oliblarini, zarur hollarda ijara to‘lovlari bevosita tanlov g‘olibi tomonidan to‘lanishi sharti bilan maqbul shart-sharoitlarga ega binolar bilan ta’minlash bo‘yicha choralar ko‘rish;

tanlovning o‘tishi va natijalarining ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini tashkil etish;

grant mablag‘larining samarali sarflanishi yuzasidan monitoring olib borish;

hisobotlarni yig‘ish, umumlashtirish va tahlil qilish.

27. Tanlovda ishtirok etish uchun tanlov ishtirokchilari tanlov tashkilotchilariga quyidagi hujjatlarni (kasbga o‘qitish dasturini) taqdim etadilar:

tanlovda ishtirok etish haqida ariza;

kasbga tayyorlash dasturi doirasida grantni amalga oshirish bo‘yicha yuqoridagi masalalar nazarda tutilgan batafsil taqdimot;

kasbga tayyorlash dasturi (loyihani amalga oshirishning batafsil tasnifi, loyihani amalga oshirish bo‘yicha qamrab olinadigan hudud (tuman, shahar, shaharcha, qishloq aholi punkti, mahalla, ko‘cha nomi) kasb-hunarga o‘qitish sohasidagi tajribasi, ilgari grantlar asosidagi faoliyatda qatnashganligi to‘g‘risidagi ma’lumot, xalqaro loyihalar va dasturlardagi ishtiroki to‘g‘risidagi hamda boshqa ma’lumotlar);

Oldingi tahrirga qarang.

(27-bandning beshinchi — yettinchi xatboshilari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-dekabrdagi 774-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 27.12.2021-y., 09/21/774/1198-son)

kadrlar (o‘qituvchilar, ishlab chiqarish ta’limi ustalari) tarkibi va ularning malaka darajasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

mavjud moddiy-texnika bazasi to‘g‘risida batafsil ma’lumot (kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakani oshirish faoliyatini amalga oshirish uchun foydalanilayotgan bino-inshootlar, jihozlar va o‘quv qurollari soni, ularning tasnifi va qiymati);

tanlov ishtirokchisi tashabbusi bilan boshqa hujjatlar (erishgan yutuqlari, o‘quv-uslubiy, ilmiy-uslubiy materiallari va shu kabilar) ham taqdim qilinishi mumkin.

Tanlov tashkilotchilari tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni 3 ish kuni mobaynida ro‘yxatga oladi, umumlashtiradi va tanlov komissiyasiga taqdim etadi.

28. Kasbga tayyorlash dasturida loyihani amalga oshirish shakli, mexanizmi, davriyligi, boshlanish va tugash vaqti hamda loyihani amalga oshirishdan kutilayotgan natija aniq, bosqichma-bosqich va tushunarli yoritilgan bo‘lishi lozim.

29. Tanlov ishtirokchisi (nodavlat ta’lim tashkiloti rahbari yoki uning nomidan ish ko‘ruvchi ishonchli vakil) tanlov o‘tkaziladigan kuni tanlov komissiyasi oldida o‘zining kasbga tayyorlash dasturi haqida 10 — 30 daqiqalik taqdimot qiladi.

Ushbu taqdimotda kasbga tayyorlash dasturini amalga oshirish bo‘yicha natijadorlikka yo‘naltirilgan chora-tadbirlar, shu jumladan, mazkur Nizomning 27-bandiga muvofiq taqdim etilgan hujjatlarga asosan kasbga tayyorlash dasturini amalga oshirish imkoniyatlari aks ettiriladi.

30. Tanlov g‘olibi nodavlat ta’lim tashkilotlari tomonidan tanlovga taqdim etilgan kasbga tayyorlash dasturlarini ko‘rib chiqish, umumlashtirish va baholash natijalariga ko‘ra aniqlanadi.

Tanlov komissiyasi tomonidan kasbga tayyorlash dasturlarini ko‘rib chiqish, umumlashtirish va baholash tanlov komissiyasiga mazkur Nizomga muvofiq kasbga tayyorlash dasturlari to‘liq va kamchiliklarsiz kelib tushgandan so‘ng 7 ish kunidan kechiktirmay amalga oshirilishi lozim.

Belgilangan muddatda tanlov komissiyasi majlisi uchun undagi a’zolarning kamida uchdan ikki qismi yig‘ilmagan taqdirda, tanlov boshqa kunga qoldirilishi mumkin, lekin komissiyaning qoldirilgan majlisi ko‘pi bilan 5 ish kunida qayta chaqirilishi lozim.

31. Tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan kasbga tayyorlash dasturlari quyidagi mezonlarga asosan baholanadi:

a) Kasbga tayyorlash dasturining sifati — 30 ballgacha:

natijasi daromadli mehnat bilan band bo‘lish imkoniyatini yaratib beruvchi mehnat bozorida talab bo‘lgan kasblar hamda ushbu kasblar bo‘yicha o‘zining o‘quv (reja) dasturi va qo‘llanmalariga egaligi — 5 ballgacha;

kadrlar (o‘qituvchilar, ishlab chiqarish ta’limi ustalari, trenerlar) tarkibi va ularning malaka darajasi — 5 ballgacha;

tanlov ishtirokchisining mazkur sohadagi tajribasi va erishgan yutuqlari — 10 ballgacha;

o‘qitish jarayonida xalqaro andozalar va axborot-kommunikatsiya vositalaridan keng foydalanish imkoniyatlarining yuqoriligi — 10 ballgacha.

b) o‘quv-moddiy bazasining mavjudligi — 20 ballgacha:

bino-inshootlar — 5 ballgacha;

jihozlar, asbob-uskunalar, o‘quv qurollari, texnika xavfsizligi shartlarining mavjudligi — 15 ballgacha;

v) loyihani amalga oshirish samaradorligi va natijadorligi darajasining yuqoriligi — 40 ballgacha:

har bir o‘quvchiga to‘g‘ri keladigan sarf-xarajat miqdorining kamligi — 15 ballgacha;

chekka va chegara hududlarida, shuningdek, qishloq joylarida yashovchi ishsiz va band bo‘lmagan aholi, ayniqsa, ijtimoiy muhofazaga muhtoj aholi, kambag‘al oilalar a’zolari, chet eldan

qaytib kelgan mehnat migrantlari, xotin-qizlar va yoshlarning jami kasb-hunarga tayyorlanadiganlarga nisbatan yuqori ulushda qamrab olinishi — 15 ballgacha;

bandlikni ta’minlash ko‘rsatkichining yuqoriligi (ish beruvchilar buyurtmasi asosida ishga joylashtirish, o‘zini o‘zi band qilish, tadbirkor sifatida o‘z biznesini boshlashi va bandlikning boshqa rasmiy shakllari) — 20 ballgacha.

32. Qoida tariqasida:

kasbga tayyorlash dasturini amalga oshirishning umumiy muddati ko‘pi bilan 50 haftadan, shuningdek, kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish o‘quv kurslarining davomiyligi:

uzoq muddatli o‘qitish — o‘quv jarayoni 30 haftadan 40 haftagacha;

o‘rta muddatli o‘qitish — 5 haftadan 25 haftagacha;

qisqa muddatli o‘qitish — 4 haftagacha davom etadi.

33. Kasbga tayyorlash dasturlarini ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra tanlov komissiyasi a’zolari har bir loyiha bo‘yicha baholash mezonlariga muvofiq baholash varaqasiga tegishli ballarni qo‘yadi.

34. Baholash varaqalaridagi ballar komissiya kotibi tomonidan hisoblab chiqiladi va tanlov komissiyasi raisiga taqdim etiladi.

35. Tanlov komissiyasi raisi tomonidan hisoblangan ballarning to‘g‘ri va haqqoniyligi ko‘zdan kechiriladi hamda jamlangan ballar to‘g‘risidagi ma’lumot tanlov komissiyasi a’zolariga e’lon qilinadi.

36. Tanlov natijasiga ko‘ra eng ko‘p ball olgan tanlov ishtirokchisi tanlovda g‘olib deb topiladi.

37. Tanlov natijasiga ko‘ra tanlov ishtirokchilarining ballari teng bo‘lgan taqdirda, ular o‘rtasida ushbu Nizomda belgilangan tartib asosida qayta tanlov o‘tkaziladi.

38. Tanlov komissiyasi qarorlari bayonnomalar bilan rasmiylashtiriladi.

Tanlov komissiyasi yig‘ilishining bayonnomasi tanlov komissiyasi kotibi tomonidan olib boriladi hamda tanlov komissiyasi raisi, kotibi va tanlov komissiyasi yig‘ilishida ishtirok etgan barcha a’zolar tomonidan imzolanadi.

39. Tanlov komissiyasi yig‘ilishning bayonnomalari belgilangan tartibda tanlov tashkilotchisi tomonidan saqlanadi.

40. Tanlov g‘olibi to‘g‘risidagi ma’lumot tanlov o‘tkazilgan kundan boshlab uch ish kuni davomida tanlov tashkilotchisi tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga yuboriladi.

5-bob. Grant ajratish tartibi

41. Tanlov g‘olibi aniqlangandan so‘ng uch ish kuni davomida tanlov tashkilotchisi hamda tanlovda g‘olib deb topilgan tanlov ishtirokchisi o‘rtasida kasbga tayyorlash dasturini amalga oshirish uchun grant ajratish bo‘yicha shartnoma tuziladi.

Ushbu shartnoma tanlov tashkilotchisi va tanlovda g‘olib deb topilgan tanlov ishtirokchisining huquq va majburiyatlarini hamda javobgarligini belgilaydi.

42. Shartnomada quyidagilar nazarda tutilgan bo‘lishi kerak:

kasbga tayyorlash dasturini amalga oshirishning maqsadi;

kasbga tayyorlash dasturini amalga oshirish muddatlari;

qamrab olinadigan hudud, aholi toifasi, o‘qitiladigan kasblar, kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish mexanizmi, grant doirasida qo‘llaniladigan o‘quv qo‘llanmalari va dasturlari, foydalaniladigan axborot-kommunikatsiya vositalari va innovatsion o‘qitish uslublarining tavsifi;

kasbga tayyorlash dasturini amalga oshirish uchun ajratilgan grant miqdori;

mablag‘ bilan ta’minlash muddatlari;

ajratilgan grant mablag‘laridan maqsadli foydalanganlik yuzasidan nazorat shakllari;

amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha hisobotlarni berish muddatlari va shakllari.

43. Agar tanlovda g‘olib deb topilgan tanlov ishtirokchisi shartnomani imzolashdan bosh tortsa yoki tanlovni o‘tkazish davomida o‘z faoliyatini tugatgan bo‘lsa, tugatish, qayta tashkil etish jarayonida bo‘lsa yoki qonunchilikda belgilangan tartibda bankrot deb e’tirof etilgan bo‘lsa, tanlov

tashkilotchilari kasbga tayyorlash dasturini amalga oshirish uchun belgilangan grant mablag‘larini tanlovda ishtirok etgan va yuqori baho olgan keyingi ishtirokchiga shartnomani imzolashni taklif etishga haqli.

6-bob. Grant mablag‘larining samarali sarflanishi yuzasidan monitoring o‘tkazish va natijasiga ko‘ra mukofotlash tartibi

44. Tanlov tashkilotchilari tanlovda g‘olib deb topilgan tanlov ishtirokchisiga ajratilgan grantlar evaziga kasbga tayyorlash dasturining samarali amalga oshirilishi bo‘yicha monitoringini olib boradi, shuningdek, amalga oshirilayotgan ishlarni (ko‘rsatilayotgan xizmatlarni) hamda uning alohida bosqichlarini joyiga chiqqan holda monitoring qilishga haqli.

45. Tanlov tashkilotchilari kasbga tayyorlash dasturining samarali amalga oshirilishi bo‘yicha monitoring o‘tkazishda tanlov tashkilotchilarining tizim idoralari, shu jumladan, tasarrufdagi kasb-hunarga o‘qitish markazlari, “Ishga marhamat” monomarkazlari hamda boshqa soha vakillarini ekspert sifatida jalb qilishga haqli.

46. Tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan hisobot ma’lumotlarining haqqoniyligi o‘tkazilgan monitoring natijalari, hududlardagi tegishli vakolatli organlardan, shu jumladan, hududiy soliq xizmati organlari hamda “Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksidan olingan ma’lumotlar asosida tahlil qilib boriladi.

47. Mazkur Nizomga muvofiq belgilangan tartibda kasbga o‘qitish dasturi doirasida tashkil etilgan o‘quv kurslari bitiruvchilarining rasmiy bandligi ta’minlangan taqdirda, har bir rasmiy bandligi ta’minlangan shaxslar uchun tanlov tashkilotchisi tomonidan tanlov ishtirokchisi O‘zbekiston Respublikasida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlanishi mumkin. Bunda:

tanlov ishtirokchisi ixtiyoriga ko‘ra mazkur Nizomga muvofiq belgilangan tartibda kasbga o‘qitish dasturi doirasida tashkil etilgan o‘quv kurslari bitiruvchilarining rasmiy bandligi (ishga joylashganligi, o‘zini o‘zi band qilganligi, tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tganligi va rasmiy bandlikning boshqa shakllari) to‘g‘risidagi ma’lumotlar ilova qilingan bir martalik pul mukofoti olish to‘g‘risidagi so‘rov xati o‘quv kurslari tamomlangandan so‘ng 15 kun muddatda tanlov tashkilotchisiga taqdim etiladi.

tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan hisobot ma’lumotlariga binoan rasmiy bandligi ta’minlangan bitiruvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar monitoring natijasida shakllantirilgan ma’lumotlar bilan taqqoslash natijasida o‘z tasdig‘ini topgan taqdirda, tanlov tashkilotchilarining monitoring o‘tkazgan mas’ul tarkibiy bo‘linmasi boshlig‘ining asoslangan bildirishnomasiga binoan grant olgan tanlov ishtirokchisi bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlash uchun tavsiya etilishi mumkin.

48. Tanlov tashkilotchisi tanlov ishtirokchisi tomonidan bitiruvchilarning rasmiy bandlik holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar ilova qilingan xat kiritilgan kundan boshlab 45 kun mabaynida bitiruvchilarning rasmiy bandlik holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarning haqqoniyligini o‘rganib chiqadi.

49. Tanlov tashkilotchisi tomonidan ma’lumotlarni mazkur Nizom 46 va 48-bandlariga muvofiq tartibda ko‘rib chiqish, tahlil qilish va haqqoniyligini o‘rganish natijasiga ko‘ra:

agar ushbu ma’lumotlar o‘z tasdig‘ini topsa, rasmiy bandligi ta’minlangan har bir fuqaro uchun O‘zbekiston Respublikasida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlash uchun tavsiya etiladi;

agar ma’lumotlar o‘z tasdig‘ini topmasa, bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlashni rad etish to‘g‘risidagi asoslangan xat uch kun muddatda tanlov ishtirokchisiga yuboriladi.

50. Bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlash tanlov tashkilotchisining monitoring o‘tkazgan mas’ul tarkibiy bo‘linmasi boshlig‘ining asoslangan bildirishnomasiga binoan tegishlicha O‘zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vaziri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar Bandlik bosh boshqarmalari boshliqlarining buyrug‘i asosida amalga oshiriladi.

51. Bir martalik pul mukofoti belgilangan tartibda tanlov ishtirokchisining hisobraqamiga o‘tkazib beriladi.

52. Bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlash Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasining mazkur Nizomga muvofiq tanlov o‘tkazish uchun nazarda tutilgan mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

7-bob. Ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasbga tayyorlash dasturi doirasida kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirishni tashkil etish

53. Mehnat organlari tomonidan belgilangan tartibda ishsiz va ish qidirayotgan shaxs sifatida ro‘yxatga olinganlarni mazkur Nizomga muvofiq kasbga tayyorlash dasturi doirasida kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

54. Kasbga tayyorlash dasturini amalga oshirishda o‘quv kurslari bitiruvchilarining bandligiga ko‘maklashish maqsadida mehnat organlari tomonidan quyidagilar amalga oshirilishi mumkin:

a) tadbirkorlikka jalb etish va o‘zini o‘zi band qilganlik uchun davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan quyidagi subsidiyalardan istalgan bir turini olishi:

bunda mehnat organlaridan ishsiz va ish qidirayotgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tganlarni yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tkazish, kichik korxonalar va mikrofirmalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, “Hunarmand” uyushmasiga a’zo bo‘lish, tadbirkorlikka o‘qitish va kredit olishda sug‘urta polisi to‘lovi uchun;

mehnat organlaridan ishsiz va ish qidirayotgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini boshlayotgan shaxslarga tadbirkorlik subyekti sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgandan so‘ng dastlabki uch oy mobaynida ijaraga olingan bino va inshootning ijara to‘lovini qoplash uchun subsidiya ajratish;

b) o‘z biznesini boshlashi uchun imtiyozli kredit ajratishga tavsiyanoma berish, bunda mehnat organlarida ishsiz sifatida ro‘yxatga olingan shaxslarga qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tuman (shahar) aholi bandligiga ko‘maklashish markazlari rahbarlari tomonidan beriladigan imtiyozli kreditlash bo‘yicha tavsiyanomaga asosan tijorat banklari tomonidan davlat maqsadli jamg‘armalari kredit liniyalari hisobidan garov ta’minotisiz imtiyozli shartlarda kredit ajratish.

55. Kasbga tayyorlash dasturi doirasida o‘quv kurslari bitiruvchilariga o‘z tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4862-son qarorida nazarda tutilgan tartibda mikroqarzlar (mikrokreditlar) ajratiladi.

8-bob. Yakunlovchi qoidalar

56. Tanlovda g‘olib deb topilgan tanlov ishtirokchisi mazkur Nizomga muvofiq ajratilgan grantlardan belgilangan tartibda maqsadli foydalanish uchun mas’uldir.

57. Ushbu Nizom talablarini buzgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

“Eng yaxshi kasbga tayyorlash dasturi” bo‘yicha nodavlat ta’lim tashkilotlari o‘rtasida ochiq tanlov o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga
ILOVA

Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish ketma-ketligi SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Chora-tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Tanlov tashkilotchilari	Tanlov o‘tkazish haqidagi e’lonni ommaviy axborot vositalarida joylashtirish.	Tanlov o‘tkaziladigan kundan

			kamida 10 kun oldin
2-bosqich	Tanlov ishtirokchilari	Tanlovda ishtirok etish uchun ariza va kasbga tayyorlash dasturini tanlov komissiyasiga taqdim etish.	Tanlov o‘tkazish haqidagi e’londa ko‘rsatilgan muddatda
3-bosqich	Tanlov tashkilotchilari	Tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan arizalarni ro‘yxatga olish, umumlashtirish va tanlov komissiyasiga taqdim etish.	3 ish kunida
4-bosqich	Tanlov tashkilotchilari	Tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan kasbga tayyorlash dasturlarini baholash va g‘oliblarni aniqlash.	Kasbga tayyorlash dasturi kelib tushgandan so‘ng 7 ish kuni ichida
5-bosqich	Tanlov tashkilotchisi va tanlov g‘olibi	Tanlovda g‘olib deb topilgan tanlov ishtirokchilari bilan grant ajratish bo‘yicha shartnoma tuzish.	3 ish kuni ichida
6-bosqich	Tanlov tashkilotchilari	Tanlov g‘oliblari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga taqdim etish.	tanlov g‘olibi aniqlangandan keyin 3 kun muddatda
7-bosqich	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	Tanlov g‘oliblarini, ular tomonidan bino-inshootga zarurat bo‘lgan taqdirda, ijara to‘lovlari bevosita ular tomonidan to‘lanishi sharti bilan maqbul shart-sharoitlarga ega binolar bilan ta’minlash choralari ko‘rish.	Tanlov g‘oliblari to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushgan kundan boshlab 15 kun muddatda
8-bosqich	Tanlov tashkilotchilari	1. Tanlovning o‘tishi va natijalarining ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishi tashkil etish; 2. Grant mablag‘larini samarali sarflanishi yuzasida monitoring olib borish;	doimiy
9-bosqich	Tanlov tashkilotchilari	Tanlov tashkilotchilari tomonidan taqdim etiladigan hisobotlar asosida grantlarni amalga oshirish bo‘yicha	doimiy

		ma’lumotlarni yig‘ish, umumlashtirish va tahlil qilish. Natijadorlik ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan tanlov ishtirokchilarini bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlash.	ko‘rsatkichlar tahlili asosida bir martalik

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-apreldagi 183-son qaroriga
5-ILOVA

IShGA JOYLAShTIRIShGA DOIR YO‘LL

Sana: _____-____-____

Tashkilot nomi: _____
Tashkilot joylashgan joy (pochta manzili): _____
Tashkilot telefon raqami _____ elektron pochta manzili _____
Vakansiya e’lon qilingan sana: 20___ yil “___” _____

Fuqaro _____
Telefon raqami _____ elektron pochta manzili _____
1. _____ Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi tomonidan “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi
fuqaroga _____ kasbi (mutaxassisligi) bo‘yicha ishga joylashtirishga doir yo‘llan
2. Mazkur fuqaro “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 38-moddasiga muvofiq aholining ijtimoiy eht
3. Ishga joylashtirishga doir yo‘llanma asosida ish qidirayotgan shaxsni ishga joylashtirish tartibiga muvofiq Siz quyidagilarga amal q
tashkilot ish qidirayotgan shaxsni yo‘llanma bo‘yicha ishga qabul qilgan va u bilan mehnat shartnomasini tuzgan taqdirda, yo‘llanma
bandligiga ko‘maklashish markaziga (keyingi o‘rinlarda — ABKM) ushbu shaxs ishga qabul qilinganligi to‘g‘risidagi xabarnoma bil
ishga joylashtirish rad etilgan taqdirda, yirtib olinadigan talonda rad etish sabablarining asosi ko‘rsatiladi va yirtib olinadigan talon is
shaxsga qaytarib beriladi.

_____tuman (shahar) ABKM direktori

M.O‘.

Izoh. Agar ishga joylashtirish uchun yuborilayotgan shaxs “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 38-modda
2-bandi ustidan chiziladi.

— —

YO‘LLANMANING QIRQIB OLINADIGAN TALONI N

1. Fuqaro _____ _____ _____
_____-son mehnat shartnomasi asosida _____ so‘mlik oylik ish haqi bilan ishga qabul qilindi.
Ishga joylashtirish uchun asos: _____ yil “____” _____ _____ -son buyruq.
2. Fuqaro _____ni _____
_____

(sababini batafsil ko‘rsating)

munosabati bilan ishga qabul qilish rad etildi.

Tashkilot rahbari _____

M.O‘. (imzo)

Izoh: Ishga qabul qilinganda — qirqib olinadigan talonning 1-bandi to‘ldiriladi. Ishga qabul qilish rad etilgan taqdirda — qirqib olina

ISHGA JOYLASHISHGA KO‘MAKLASHISH YuZASIDAN

Sana: _____-____-____

Tashkilot nomi: _____
Tashkilot joylashgan joy (pochta manzili): _____
Tashkilot telefon raqami _____ elektron pochta manzili _____
Vakansiya e’lon qilingan sana: 20___ yil “___” _____

Fuqaro _____
Telefon raqami _____ elektron pochta manzili _____
1. _____ Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi tomonidan “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbe
_____ kasbi (mutaxassisligi) bo‘yicha ishga joylashishiga ko‘maklashish uchun murojaatnoma berildi
2. Ishga joylashishga ko‘maklashish yuzasidan murojaatnoma asosida ish qidirayotgan shaxsni ishga joylashtirish tartibiga muvofiq Si
ish qidirayotgan shaxs ishga joylashishga ko‘maklashish yuzasidan murojaatnoma bo‘yicha ishga qabul qilgan va u bilan mehnat shart
murojaatnoma bergan Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi (keyingi o‘rinlarda — ABKM) xabardor qilinadi;
ishga joylashishga ko‘maklashish yuzasidan murojaatnoma elektron shaklda yuborilgan taqdirda, ABKMga mazkur shaxs ishga joylas
ABKM tomonidan berilgan ishga joylashishga ko‘maklashish yuzasidan murojaatnoma bo‘yicha ishga joylashtirish rad etilgan taqdird
_____tuman (shahar) ABKM direktori

M.O‘.

— —

XABARNOMA № _____

1. Fuqaro _____, _____ _____
_____-son mehnat shartnomasi asosida _____ so‘mlik oylik ish haqi bilan ishga qabul qilindi.
Ishga joylashtirish uchun asos: _____ yil “____” _____ _____ -son buyruq.
2. Fuqaro _____ ni _____
_____

(sababini batafsil ko‘rsating)

munosabati bilan ishga qabul qilish rad etildi.
Tashkilot rahbari _____

M.O‘. (imzo)

Izoh: Ishga qabul qilinganda — qirqib olinadigan talonning 1-bandi to‘ldiriladi. Ishga qabul qilish rad etilgan taqdirda — qirqib olinad

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-apreldagi 183-son qaroriga
6-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

1. Vazirlar Mahkamasining “Ko‘kdumaloq neftgazkondensati konini, Mingbuloq neft konini o‘zlashtirishni, Buxoro viloyatining Qorovulbozor tumanidagi neftni qayta ishlash zavodining hamda Gazli-Nukus quvuri qurilishini tezlashtirish to‘g‘risida” 1993-yil avgustdagi 389-son qarorining 18-bandi ikkinchi xatboshining o‘zbek tilidagi matni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Ko‘kdumaloq konini o‘zlashtirishda, Gazli-Nukus gaz quvuri trassasi, Buxoro viloyati Qorovulbozor tumanidagi neftni qayta ishlash zavodi hamda Navoiy viloyatidagi Zafarobod neft quyish estakadasida bevosita band bo‘lgan barcha toifadagi xodimlarning ish haqlariga suvsizlik va cho‘l sharoitlari uchun qo‘shimcha 1,7 koeffitsiyent to‘lanishi”.

2. Vazirlar Mahkamasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud organlari va notarial idoralar xodimlari mehnatiga haq to‘lashning tarif setkasini joriy etish to‘g‘risida” 1996-yil 12-apreldagi rus tilida qabul qilingan 147-son qaroriga 3-ilova nomlanishi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Razryadi i tarifnie koeffitsiyenti po oplate truda po YETS rukovodyaщix rabotnikov i spetsialistov tsentralnogo apparata Ministerstva finansov, Ministerstva ekonomicheskogo razvitiya i sokraщeniya bednosti, Ministerstva zanyatosti i trudovix otnosheniy, Ministerstva investitsiy i vneshney torgovli, Ministerstva yustitsii, Ministerstva transporta, Ministerstva oboroni i Generalnogo

shtaba Voorujennix Sil (v chasti grajdanskogo personala), Gosudarstvennogo komiteta po statistike, Antimonopolnogo komiteta, Agentstva po upravleniyu gosudarstvennimi aktivami, Agentstva po zaщite prav potrebiteley pri Antimonopolnom komitete Respubliki Uzbekistan, Gosudarstvennogo komiteta Respubliki Uzbekistan po razvitiyu turizma, Gosudarstvennogo komiteta Respubliki Uzbekistan po oboronnoy promishlennosti".

3. Vazirlar Mahkamasining "O‘zbekiston qo‘shiq bayrami to‘g‘risida" 1996-yil 18-noyabrdagi 403-son qarorida:

a) 2-ilovaning "Mukofotlar" bo‘limi ikkinchi — beshinchi xatboshilari quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"birinchi o‘rin uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 110 baravari miqdorida;

ikkinchi o‘rin uchun (uchta) — bazaviy hisoblash miqdorining 80 baravari miqdorida;

uchinchi o‘rin uchun (uchta) — bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari miqdorida;

rag‘batlantiruvchi mukofotlar (uchta) — bazaviy hisoblash miqdorining 25 baravari miqdorida.".

b) 3-ilovaning matni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"O‘zbekiston qo‘shiq bayrami Respublika ko‘rik-tanlovi g‘oliblarining mukofotlari

Mukofotlar	Soni	Miqdori (bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan, baravar)
Birinchi o‘rin	1	110
Ikkinchi o‘rin	3	80
Uchinchi o‘rin	3	50
Rag‘batlantiruvchi o‘rin	3	25
Jami	10	

".

4. Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martdagi 133-son qarori bilan tasdiqlangan Yozma holdagi mehnat shartnomasi (kontrakt) tuzish yuzasidan tavsiyalarning "III. Mehnat shartnomasi (kontrakt)ning zarur shartlari" bo‘limining beshinchi xatboshisidagi "eng kam ish haqi miqdoridan" so‘zlari "mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoridan" so‘zlari bilan almashtirilsin.

5. Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyundagi 286-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi QT, 1997-y., 6-son, 21-modda) bilan tasdiqlangan Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risidagi nizomda:

a) I bo‘limda:

1-bandda:

birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"1. Ushbu Nizom davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo‘jalik birlashmalari (keyingi o‘rinlarda — boshqaruv organlari) hamda tashkiliy-huquqiy shaklidan va idoraviy bo‘ysunuvidan qat’i nazar barcha tashkilotlar, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlarda (keyingi o‘rinlarda — tashkilotlar) mehnat faoliyati bilan bog‘liq holda yuz bergan hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olishning yagona tartibini belgilaydi";

quyidagi mazmundagi oltinchi xatboshi qo‘shilsin:

"belgilangan tartibda xodimlar yollaydigan yakka tartibdagi tadbirkorlar";

oltinchi — to‘qqizinchi xatboshilar tegishli ravishda yettinchi — o‘ninchi xatboshilar deb hisoblansin;

6-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"6. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida tekshirish va hisobga olishni, shuningdek, baxtsiz hodisa kelib chiqishi sabablarini bartaraf etishga oid chora-tadbirlarning bajarilishini korxonaning yuqori turuvchi xo‘jalik organi, kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi, mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha davlat texnik inspektori, O‘zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi xavfli ishlab chiqarish obyektlarida, radiatsiyaviy xavfli obyektlarda va atom energiyasidan foydalanish obyektlarida va O‘zbekiston

Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Elektr energetikada nazorat inspeksiyasi (keyingi o‘rinlarda — “O‘zenergoinspeksiya”) energetika obyektlari va iste’molchilarning elektr qurilmalarida (keyingi o‘rinlarda — nazorat ostidagi obyektlar) nazorat qiladi”;

7-bandning ikkinchi xatboshisidagi “davlat mehnat texnika nazoratchisiga” so‘zlari “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalarining (keyingi o‘rinlarda — hududiy mehnat organlari) Davlat mehnat inspeksiyasiga” so‘zlari bilan almashtirilsin;

8 va 9-bandlardagi “davlat mehnat texnika nazoratchisi” hamda “bosh davlat mehnat texnika nazoratchisi” so‘zlari tegishli ravishda “mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha davlat texnik inspektori” hamda “mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha bosh davlat texnik inspektori” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) II bo‘limda:

1-bandning to‘rtinchi xatboshisidagi “xabar qilish” so‘zlari “xabar qilishi zarur” so‘zlari bilan almashtirilsin;

3-bandning to‘rtinchi xatboshisidagi “uch sutka” so‘zlari “uch ish kuni” so‘zlari bilan almashtirilsin;

4-bandda:

birinchi xatboshidagi “uch sutka” so‘zlari “uch ish kuni” so‘zlari bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“jabrlanuvchiga yoki uning manfaatlarini himoya qiluvchi shaxsga hamda tekshirish materiallari bilan birga korxonaning mehnatni muhofaza qilish xizmati rahbari (muhandisi, mutaxassisi)ga va hududiy mehnat organining Davlat mehnat inspeksiyasiga yuboradi”;

to‘rtinchi xatboshidagi “O‘zenergonazorat” agentliklari” so‘zlari “O‘zenergoinspeksiya” so‘zi bilan almashtirilsin;

beshinchi xatboshisidagi “Boshqa joylarga yuborilgan” so‘zlaridan keyin “tekshirish materiallari,” so‘zlari qo‘shilsin;

6-banddagi “(bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisining” so‘zlari “mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha (bosh) davlat mehnat texnik inspektorining” so‘zlari bilan almashtirilsin;

10-bandning ikkinchi xatboshisidagi “O‘zenergonazorat” agentliklari organi” so‘zlari “O‘zenergoinspeksiyasi” so‘zi bilan almashtirilsin;

11-bandning birinchi xatboshisidagi “muassasi (ATMM)da”, “profilaktoriyalari (DMP va TMP)da” va “vakili” so‘zlari tegishli ravishda “muassasasida (keyingi o‘rinlarda — ATMM)”, “profilaktoriyalarida (keyingi o‘rinlarda — DMP va TMP)” va “vakillari” so‘zlari bilan almashtirilsin;

v) III-bo‘limda:

1 — 3-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“1. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni maxsus tekshirish — mazkur Nizomga muvofiq maxsus tekshirish komissiyasi tomonidan guruhli, oqibati o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir va o‘lim bilan tugagan baxtsiz hodisalarning kelib chiqish sabablarini aniqlashga qaratilgan tekshiruv.

Quyidagi baxtsiz hodisalar maxsus tekshiriladi:

bir vaqtning o‘zida ikki va undan ziyod xodimlar bilan salomatlikka yetkazilgan zararning og‘irligi darajasidan qat’i nazar, yuz bergan guruhli baxtsiz hodisalar;

oqibati o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir baxtsiz hodisalar;

o‘lim bilan tugagan baxtsiz hodisalar.

2. Guruhli, oqibati o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir va o‘lim bilan tugagan baxtsiz hodisa to‘g‘risida ish beruvchi darhol sxemaga binoan (3-ilova) quyidagilarga xabar berishi kerak:

hududiy mehnat organining davlat mehnat inspeksiyasiga;

yuqori turuvchi xo‘jalik organiga;

baxtsiz hodisa yuz bergan joydagi hududiy ichki ishlar organiga;

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga;

O‘zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasining mahalliy organiga va “O‘zenergoinspeksiya”ning hududiy organiga, agar baxtsiz hodisa nazorati ostidagi korxona (obyekt)da yuz bergan bo‘lsa;

ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalovchiga.

3. Guruhli, oqibati o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir va o‘lim bilan tugagan baxtsiz hodisalarni maxsus tekshirish maxsus vakolatli organ bilan oldindan kelishilmagan va xabardor etmagan holda maxsus tashkil etilgan komissiya tomonidan tekshiriladi.

Guruhli, oqibati o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir va uch kishigacha o‘lim bilan tugagan baxtsiz hodisani hududiy mehnat organi buyrug‘iga asosan quyidagi tarkibdagi komissiya maxsus tekshiradi;

rais — hududiy mehnat organining mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha (bosh) davlat texnik inspektori yoki O‘zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi vakili yoxud “O‘zenergoinspeksiya” vakili nazorati ostidagi korxona (obyekt) bo‘yicha;

a’zolar — yuqori turuvchi xo‘jalik organi vakili, ish beruvchi, II bo‘limning 7, 10, 11, 12 va 13-kichik bandlarida ko‘zda tutilgan hollarda jabrlanuvchining asosiy ish joyi kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki korxona xodimlarining boshqa vakillik organi raisi va ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalovchining vakili.

O‘zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi yoki “O‘zenergoinspeksiya” organi nazorati ostidagi korxona (obyekt)larda yuz bergan guruhli, oqibati o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir va o‘lim bilan tugagan baxtsiz hodisani tegishli hududiy mehnat organining Davlat mehnat inspeksiyasi bilan kelishilgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi yoki “O‘zenergoinspeksiya” respublika yoki mahalliy organlari buyrug‘i asosida tuzilgan komissiya yuqori turuvchi xo‘jalik organi vakili ishtirokida tekshiradi. Komissiya raisi qilib shu organ vakili tayinlanadi. Komissiya tarkibiga mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha (bosh) davlat texnik inspektor kiradi.

Guruhli, oqibati o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir va o‘lim bilan tugagan baxtsiz hodisalar yuz berganda, ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi vakillari tarkibida ish beruvchining buyrug‘i bilan tashkil etilgan komissiya tomonidan N-1 shaklidagi dalolatnoma maxsus tekshirish dalolatnomasi tuzilgandan so‘ng bir kun ichida komissiya xulosalariga muvofiq rasmiylashtiriladi.

uch nafardan o‘n bir nafargacha inson sabab bo‘lgan baxtsiz hodisani maxsus tekshirish O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi qaroriga asosan quyidagi tarkibdagi komissiya tomonidan o‘tkaziladi:

rais — O‘zbekiston Respublikasi mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha (bosh) davlat texnik inspektori;

a’zolar — yuqori turuvchi organ rahbarlaridan biri, ish beruvchi, kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki tashkilot xodimlarining boshqa vakillik organi raisi.

O‘zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi yoki “O‘zenergoinspeksiya” nazorati ostida bo‘lgan tashkilot (obyekt)dagi baxtsiz hodisa Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasi bilan kelishilgan holda, Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi yoki “O‘zenergoinspeksiya” organining buyrug‘i asosida tuzilgan komissiya tomonidan yuqori turuvchi organ rahbari ishtirokida tekshiriladi. Komissiya raisi etib Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi yoki “O‘zenergoinspeksiyasi” organi rahbarlaridan biri tayinlanadi. O‘zbekiston Respublikasi mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha (bosh) davlat texnik inspektori komissiya tarkibiga kiritiladi.

O‘n bir nafar va undan ortiq insonning o‘limiga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisalar Vazirlar Mahkamasining farmoyishi asosida tuzilgan komissiya tomonidan tekshiriladi”;

5-bandning birinchi xatboshisidagi “(Bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisi” so‘zlari “Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha (bosh) davlat texnik inspektori” so‘zlari bilan almashtirilsin;

7-bandning o‘n to‘rtinchi xatboshisidagi “(bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisining” so‘zlari “Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha (bosh) davlat texnik inspektorining” so‘zlari bilan almashtirilsin;

8-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“8. Maxsus tekshirish tugagandan so‘ng o‘n besh kun mobaynida mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha (bosh) davlat mehnat texnik inspektori, O‘zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi qo‘mitasi organi yoki “O‘zenergoinspeksiya” organi nazoratchisi tekshirish materiallarini:

guruhli, oqibati o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir va o‘lim bilan tugagan baxtsiz hodisa yuz bergan joydagi hududiy ichki ishlar organiga yuboradi;

maxsus tekshirish bo‘yicha barcha materiallarning nusxalarini hududiy mehnat organiga, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, shuningdek, tegishli boshqaruv organi, tashkilotga va jabrlangan xodimni yuborgan tashkilotga yuboradi;

Agar baxtsiz hodisa nazorati ostidagi tashkilot (obyekt)da yuz bergan bo‘lsa, maxsus tekshirish materiallari nusxalari O‘zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi yoki “O‘zenergoinspeksiya” organiga yuboriladi”;

9-bandning ikkinchi xatboshisidagi “(bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisiga” va “O‘zdavenergonazorat” inspeksiyasi davlat inspeksiyasining” so‘zlari tegishli ravishda “mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha (bosh) davlat texnik inspektoriga” va “O‘zenergoinspeksiyasining” so‘zlari bilan almashtirilsin;

10-bandning birinchi xatboshisidagi “davlat mehnat texnika nazoratchisiga” so‘zlari “mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha davlat texnik inspektoriga” so‘zlari bilan almashtirilsin;

g) IV bo‘limda:

1-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“1. N-1 shaklidagi dalolatnoma bo‘yicha rasmiylashtirilgan barcha baxtsiz hodisalar hisobotga hamda uch ish kuni ichida “Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksiga kiritiladi”;

2-bandga quyidagi mazmundagi ikkinchi xatboshi qo‘shilsin:

“Shuningdek, jabrlanuvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar ish beruvchi tomonidan “Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksiga kiritilishi lozim”;

4-banddagi “Vazirlik, korporatsiya, uyushma, konsern” so‘zlari “Boshqaruv organlari” so‘zlari bilan almashtirilsin;

5-banddagi “O‘zenergonazorat” agentligi” va “(bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisi” so‘zlari tegishli ravishda “O‘zenergoinspeksiya” va “mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha (bosh) davlat texnik inspektori” so‘zlari bilan almashtirilsin;

6-banddagi “O‘zdavenergonazorat” davlat inspeksiyasi” va “bosh davlat mehnat” so‘zlari tegishli ravishda “O‘zenergoinspeksiyasi” va “mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha bosh davlat” so‘zlari bilan almashtirilsin;

7-banddagi “(bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisi” so‘zlari “mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha (bosh) davlat texnik inspektorining” so‘zlari bilan almashtirilsin;

8-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“8. Hududiy ichki ishlar organlari Davlat mehnat inspeksiyasiga, O‘zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasiga hamda “O‘zenergoinspeksiya”ga ishning borishi to‘g‘risida axborot berib turadi”;

d) ilovada:

1-ilovadagi “bosh davlat mehnat texnika nazoratchisiga” so‘zlari “hududiy mehnat organining Davlat mehnat inspeksiyasiga” so‘zlari bilan almashtirilsin;

5-ilovadagi “(Bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisining” hamda “(bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisi” so‘zlari tegishli ravishda “mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha (bosh) davlat texnik inspektorining” hamda mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha (bosh) davlat texnik inspektori” so‘zlari bilan almashtirilsin.

6. Vazirlar Mahkamasining “2004 — 2006-yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2003-yil 30-oktabrdagi 476-son qarorida (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2003-y., 10-son, 105-modda):

a) 6-ilovaning 30-bandidagi “eng kam oylik ish haqidan” so‘zlari “mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoridan” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 10-ilovaning 5.4.-bandi birinchi xatboshisidagi “eng kam oylik ish haqi miqdorida” so‘zlari “bazaviy hisoblash miqdorida” so‘zlari bilan almashtirilsin.

7. Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 11-yanvardagi 4-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2006-y., 1-son, 3-modda) bilan tasdiqlangan Ish beruvchining buyurtmasi bo‘yicha kasanachi tomonidan ishlarni bajarish (xizmatlar ko‘rsatish) uchun namunaviy mehnat shartnomasining 1.7.-bandidagi “eng kam oylik ish haqi miqdoridan” so‘zlari “mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoridan” so‘zlari bilan almashtirilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 29-yanvardagi 26-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2009-y., 1-son, 7-modda) bilan tasdiqlangan Mahsulot tannarxini kamaytirish chora-tadbirlari amalga oshirilishi yuzasidan sanoat korxonalari rahbar xodimlari faoliyatini baholash va ularni moddiy rag‘batlantirish to‘g‘risidagi nizomning 5-bandi uchinchi xatboshisidagi “eng kam ish haqi” so‘zlari “mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori” so‘zlari bilan almashtirilsin.

9. Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 1-martdagi 51-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2011-y., 9-son, 90-modda) bilan tasdiqlangan Bog‘dorchilik-uzumchilik shirkatlari to‘g‘risidagi nizomning 16-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“16. Yer uchastkasiga bo‘lgan huquqning bekor qilinishi qonunlarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Yer uchastkasini olib qo‘yish hollari yer uchastkasiga bo‘lgan huquq bekor qilinganda shirkat a’zolarining ko‘rgan zararlari qonunda belgilangan tartibda to‘lanadi”.

10. Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 25-maydagi 146-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2011-y., 5-son, 40-modda) bilan tasdiqlangan Yer uchastkalari egalari, foydalanuvchilari, ijarachilari va mulkdorlariga yetkazilgan zararlar, qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi ishlab chiqarishi nobudgarchiliklariga, shuningdek, yerlarning qishloq xo‘jaligi muomalasidan chiqishiga sabab bo‘lgan hollarda yetkazilgan zarar o‘rnini qoplash tartibi to‘g‘risidagi nizomning 12-bandi to‘rtinchi xatboshisi chiqarib tashlansin.

Oldingi tahrirga qarang.

(11-band O‘zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-apreldagi 258-sonli qaroriga asosan 2021-yil 1-iyuldan o‘z kuchini yo‘qotadi — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021-y., 09/21/258/0400-son)

12. Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 12-iyundagi 155-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2014-y., 6-son, 61-modda) bilan tasdiqlangan Garov reyestrini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 16-bandi “d” kichik bandining to‘rtinchi xatboshisiga “miqdori” so‘zidan keyin “yoki eng ko‘p miqdori” so‘zlari qo‘shilsin.

13. Vazirlar Mahkamasining “Xodimlar mehnatini muhofaza qilish chora-tadbirlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2014-yil 15-sentabrdagi 263-son qarorida (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2014-y., 9-son, 100-modda):

a) 1-bandning uchinchi xatboshisidagi “Ish o‘rinlarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarning jarohatlash xavfliligi yuzasidan attestatsiyadan o‘tkazish” so‘zlari “Mehnatni muhofaza qilish” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 1-ilovada:

6-bandda:

uchinchi xatboshidagi “nogironlar” so‘zi “nogironligi bo‘lgan shaxslar” so‘zlari bilan almashtirilsin;

beshinchi xatboshidagi “ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan va ish izlashda qiyinchiliklarga duch kelayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun zaxiraga qo‘yilgan” so‘zlari chiqarib tashlansin;

11-bandda:

uchinchi xatboshidagi “mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarning jarohatlash xavfliligi yuzasidan ish o‘rinlarini attestatsiyadan o‘tkazish” so‘zlari “mehnatni muhofaza qilish” so‘zlari bilan almashtirilsin;

to‘rtinchi xatboshidagi “qonun hujjatlarida belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan laboratoriyaga (keyingi o‘rinlarda akkreditatsiyadan o‘tkazilgan sinov laboratoriyasi deb ataladi)” so‘zlari “belgilangan tartibda texnik jihatdan malakaliligi maqullangan laboratoriyaga (keyingi

o‘rinlarda — texnik jihatdan malakaliligi maqullangan sinov laboratoriyasi deb ataladi)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

sakkizinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mehnatni muhofaza qilish sohasida professional xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot rahbaridan sertifikat talab etilmaydi.

Mehnatni muhofaza qilish sohasida professional xizmat ko‘rsatuvchilarning akkreditatsiyadan o‘tgan yoki texnik jihatdan malakaliligi maqullangan sinov laboratoriyasi rahbari faqat mehnatni muhofaza qilish mutaxassisining malakaviy sertifikatiga ega shaxs bo‘lishi kerak”;

21-bandning to‘rtinchi xatboshisidagi “nogiron xodimlar” so‘zlari “ayollar” so‘zi bilan almashtirilsin;

30-bandning “a” kichik bandi to‘qqizinchi xatboshisidagi “akkreditatsiyasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar (akkreditatsiya attestatsiyasining sanasi va tartib raqami)” so‘zlari “texnik jihatdan malakaliligini maqullash to‘g‘risidagi guvohnomasining sanasi va tartib raqami” so‘zlari bilan almashtirilsin;

50-bandga quyidagi mazmundagi to‘rtinchi xatboshi qo‘shilsin:

“Mehnat sharoitlarining gigiyenik me’yorlarga muvofiqligini baholash doirasida ish o‘rinlarida mavjud omillar tegishli me’yorlardan oshgan har bir holat bo‘yicha tadbirlar rejasida ularni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar belgilanishi lozim”;

52-bandning birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Davlat ekspertizasi tegishli ariza kiritilgan sanadan boshlab yigirma besh kalendar kundan oshmagan muddatda belgilangan tartibda pul to‘lash orqali amalga oshiriladi.”;

58-banddagi “Nogironlar”, “nogironlarning” va “nogiron xodimga” so‘zlari tegishli ravishda “Nogironligi bo‘lgan shaxslar”, “nogironligi bo‘lgan shaxslarning” va “nogironligi bo‘lgan shaxsga” so‘zlari bilan almashtirilsin;

59-banddagi “Nogironlarning” so‘zi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning” so‘zlari bilan almashtirilsin;

62-bandda:

o‘ninchi xatboshidagi “akkreditatsiya attestati” so‘zlari “texnik jihatdan malakaliligini maqullash to‘g‘risidagi guvohnomasi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi to‘rtinchi xatboshi qo‘shilsin:

“attestatsiya o‘tkazilgan korxonaning jami xodimlari shundan ayollar va nogironligi bo‘lgan shaxslar soni to‘g‘risidagi ma’lumotnomasi”;

to‘rtinchi — o‘ninchi xatboshilar tegishli ravishda beshinchi — o‘n birinchi xatboshilar deb hisoblansin;

2-ilova nomiga “xaritasi” so‘zidan keyin “(ish joyi nomi)” so‘zlari qo‘shilsin;

7-ilova 2-bandidagi “akkreditatsiya attestatining” so‘zlari “texnik jihatdan malakaliligini maqullash to‘g‘risidagi guvohnomasining” so‘zlari bilan almashtirilsin;

v) 2-ilovada:

nomidagi, 1, 3, 5, 36, 50 va 51-bandlardagi hamda IX bo‘lim nomidagi “ish o‘rinlarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarning jarohatlash xavfliligi yuzasidan attestatsiyadan o‘tkazish” so‘zlari “mehnatni muhofaza qilish” so‘zlari bilan almashtirilsin;

4-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“4. Talabgor malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirgan taqdirda, unga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda — hududiy mehnat organlari) tomonidan ushbu Nizomga 1-ilovaga muvofiq shakl bo‘yicha malaka sertifikati beriladi”;

7-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. Imtihon komissiyasi to‘g‘risidagi nizom, uning tarkibi va ish reglamenti O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Imtihon komissiyasi tarkibiga hududiy mehnat organlarining Davlat mehnat inspeksiyasi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi va O‘zbekston Savdo-sanoat palatasining hududiy boshqarmalari hamda O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi

Kengashining hududiy birlashmalari rahbar va xodimlari, shuningdek, kelishilgan holda amaliy tajribaga ega bo‘lgan mutaxassislar kiritiladilar.

Hududiy mehnat organlarining Davlat mehnat inspeksiyasi imtihon komissiyasining faoliyatini tashkil qilish bo‘yicha ishchi organ (keyingi o‘rinlarda — ishchi organ), hududiy mehnat organlarining boshliqlari — imtihon komissiyasining raisi, ishchi organ o‘rinbosari (mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha) — imtihon komissiyasi raisining o‘rinbosari, ishchi organining mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha davlat mehnat texnik inspektori — imtihon komissiyasining kotibi hisoblanadi”;

17-bandning birinchi xatboshisidagi “10” va “50” raqamlari “3” va “6” raqamlari bilan almashtirilsin;

28-band o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

52-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“52. Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassislar malaka sertifikati olingan yildan keyingi yildan boshlab har uch yil mobaynida O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qitish va malaka oshirish dasturi bo‘yicha kamida davomiyligi 72 akademik soatdan kam bo‘lmagan hajmda malaka oshirish kurslaridan o‘tishlari shart.

Malaka oshirish kurslari shtatida mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha kamida uch nafar mutaxassisga ega bo‘lgan ta’lim muassasalari tomonidan, mehnatni muhofaza qilish sohasidagi nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish va yangilash ularning bajarilayotgan vazifalar va funksiyalarga professional tayyorligini ta’minlash maqsadida o‘tkaziladi”;

1-ilovadagi “Ish o‘rinlarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarning jarohatlash xavfliligi yuzasidan attestatsiyadan o‘tkazish” so‘zlari “Mehnatni muhofaza qilish” so‘zlari bilan hamda “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining o‘rinbosari” so‘zlari “hududiy mehnat organining boshlig‘i” so‘zlari bilan almashtirilsin.

14. Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 30-oktabrdagi 301-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2014-y., 44-son, 539-modda) bilan tasdiqlangan Qishloq aholi punktlari yerlaridan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 13-bandidagi “mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan,” so‘zlari “qonunchilik hujjatlarida” so‘zlari bilan almashtirilsin.

15. Vazirlar Mahkamasining “Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish to‘g‘risida” 2017-yil 27-apreldagi 246-son qarorida (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2017-y., 4-son, 55-modda):

Oldingi tahrirga qarang.

(15-bandning “a” kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-fevraldagi 88-sonli qaroriga asosan 2022-yil 1-martdan chiqariladi — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.02.2022-y., 09/22/88/0165-son)

b) 3-ilovada:

5-bandda:

uchinchi xatboshidagi “akkreditatsiya qilingan” so‘zlari “texnik jihatdan malakaliligi maqullangan” so‘zlari bilan almashtirilsin;

beshinchi xatboshidagi “kasaba uyushmasi tashkilotlarining mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassislari” so‘zlari “kasaba uyushmalarining Mehnat inspeksiyasi texnik inspektorlari” so‘zlari bilan almashtirilsin;

6-bandning uchinchi xatboshidagi “akkreditatsiya qilingan” so‘zlari “texnik jihatdan malakaliligi maqullangan” so‘zlari bilan almashtirilsin;

7-bandning uchinchi xatboshidagi “kasaba uyushmasi tashkilotlarining mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassislari” so‘zlari “kasaba uyushmalarining Mehnat inspeksiyasi texnik inspektorlari” so‘zlari bilan almashtirilsin;

9-bandda:

birinchi xatboshidagi “kasaba uyushmasi tashkilotlarining mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassislari” so‘zlari “kasaba uyushmalarining Mehnat inspeksiyasi texnik inspektorlari” so‘zlari bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshidagi “akkreditatsiya qilingan” so‘zlari “texnik jihatdan malakaliligi maqullangan” so‘zlari bilan almashtirilsin;

10-banddagi “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” hamda “qaror qabul qilishga” so‘zlari tegishli ravishda “mehnatni muhofaza qilish sohasida davlat nazorati organlari” hamda “yozma ko‘rsatma berishga” so‘zlari bilan almashtirilsin;

13 va 14-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“13. Mehnatni muhofaza qilish sohasida qayta tayyorlash va malakasini oshirish, mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozori professional ishtirokchilarining Yagona reyestriga “mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish” xizmat turi bo‘yicha kiritilgan mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilari (keyingi o‘rinlarda — ta’lim tashkiloti) hamda O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Bandlik va mehnatni muhofaza qilish Respublika ilmiy markazi (keyingi o‘rinlarda — Ilmiy markaz deb ataladi) yoki Mehnat organlari xodimlari malakasini oshirish respublika kurslari (keyingi o‘rinlarda — Respublika malaka oshirish kurslari deb ataladi) tomonidan amalga oshiriladi.

14. Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassislik malaka sertifikatini oluvchi nomzodlar Ilmiy markazda yoki Respublika malaka oshirish kurslarida yoxud ta’lim tashkilotlarida malaka oshirishdan o‘tadilar.

Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassis malaka sertifikatini oluvchi nomzodlar tegishli ta’lim tashkilotining xodimi bo‘lsa, ularning ushbu tashkilotlarda malaka oshirishlariga yo‘l qo‘yilmaydi”;

15-bandning birinchi xatboshisiga “Ilmiy markaz” so‘zlaridan keyin “Respublika malaka oshirish kurslari va ta’lim tashkilotlari” so‘zlari qo‘shilsin;

17-bandning ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Imtihon komissiyasi tarkibiga hududiy mehnat organlarining Davlat mehnat inspeksiya xodimlari doimiy asosda kiritilishi lozim.”;

18-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“18. Ta’lim tashkilotlari o‘quv kursi yakuni bo‘yicha bayonnoma rasmiylashtirilgandan keyin o‘n kun ichida o‘quv kursidan o‘tganlar bo‘yicha to‘liq ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasiga yuboradi.

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasi mehnatni muhofaza qilish sohasida malaka oshirish va qayta tayyorlashdan o‘tgan shaxslar bo‘yicha to‘liq ma’lumotlarni ta’lim tashkilotlari bo‘yicha har chorak yakuni bilan hisobot davri keyingi oyining 10-sanasiga qadar O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining rasmiy saytiga joylashtirib boradi”;

v) 4-ilovada:

9-bandning sakkizinchi xatboshiga “akkreditatsiyadan o‘tgan” so‘zlaridan keyin “yoki texnik jihatdan malakaliligi maqullangan” so‘zlari qo‘shilsin;

17-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“17. Ish o‘rinlarini mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazish sifatini baholash yuzasidan davlat ekspertizasi uchun to‘lov ushbu Nizomning 14-bandiga muvofiq ish o‘rinlarini attestatsiyadan o‘tkazgan tashkilot tomonidan Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasiga yoki Ilmiy markazga to‘lanadi”;

23-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“23. Amalga oshirilgan ishlar natijasiga ko‘ra ushbu Nizomga 2-ilovadagi shaklga muvofiq xulosa beriladi yoki rad etish sabablari asoslangan, mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va normativ-huquqiy hujjatlarning buzilgan normalari va ish o‘rinlari attestatsiyasi materiallarini qayta kiritish muddatlari ko‘rsatilgan

holda aniqlangan nomunosibliklarni bartaraf etish uchun ish o‘rinlari attestatsiyasi materiallari attestatsiya o‘tkazuvchi tashkilotga qaytariladi.

Aniqlangan nomunosibliklarni bartaraf etish muddatlari tuzatishlar kiritilishi zarur bo‘lgan ish hajmini inobatga olinib, ammo o‘n kundan kam bo‘lmagan muddatda belgilanadi.

Ish o‘rinlari attestatsiyasi materiallarini qayta ishlash uchun qaytarish xabarnomasida ko‘rsatilgan muddatlar (xabarnomani laboratoriyaga taqdim etish sanasini hisobga olgan holda) o‘tib ketgandan keyin topshirilgan ariza va materiallar yangidan topshirilgan deb hisoblanadi va ular umumiy asoslarda ko‘rib chiqiladi.

Attestatsiya o‘tkazuvchi tashkilot aniqlangan nomunosiblikdan norozi bo‘lsa, ularni bartaraf etish bo‘yicha xabarnomani olgan kundan boshlab 5 kalendar kun ichida aniqlangan nomunosibliklarni asoslab va mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va normativ-huquqiy hujjatlarning talablari ko‘rsatilgan holda yozma rad etish xatini taqdim qilish huquqiga ega”;

25-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“25. Attestatsiya o‘tkazuvchi tashkilot qayta ishlash uchun attestatsiya hujjatlarining qaytarilganligi haqidagi xabarnomada ko‘rsatilgan muddatlarda ish o‘rinlarining attestatsiya hujjatlarini qaytarish sabablari bartaraf etilgandan so‘ng davlat ekspertizasiga qayta topshirish huquqiga ega. Bunda ish o‘rinlarini attestatsiyadan o‘tkazish materiallarini avval ko‘rsatilmagan yangi sabablarni ko‘rsatib, takroran qaytarishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Davlat ekspertizasini qayta o‘tkazish uchun to‘lov undirilmaydi.

Davlat ekspertizasini qayta o‘tkazish o‘n kun ichida amalga oshiriladi.

Agar rad etish uchun asos bo‘lgan sabablar attestatsiya o‘tkazuvchi tashkilot tomonidan bartaraf etilmagan bo‘lsa (ish o‘rinlari attestatsiyasi materiallarini qayta ishlash uchun qaytarish xabarnomasiga e’tiroz berilgan xolatlar bundan mustasno), hujjatlar arizachiga qaytariladi. Bunda navbatdagi davlat ekspertizasiga ish o‘rinlari attestatsiyasi hujjatlari qaytarilgan kundan boshlab o‘ttiz kun o‘tgandan so‘ng umumiy tartibda kiritilishi lozim”;

36-banddagi “akkreditatsiyalangan” so‘zi “akkreditatsiyadan o‘tgan yoki texnik jihatdan malakaliligi maqullangan” so‘zlari bilan almashtirilsin;

Nizomga 2-ilova 2-bandidagi “akkreditatsiyadan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi attestatining” so‘zlari “akkreditatsiyadan o‘tgan yoki texnik jihatdan malakaliligi maqullanganligi to‘g‘risidagi guvohnomasi” so‘zlari bilan almashtirilsin.

16. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-iyuldagi 530-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi QHT, 2017-y., 30-son, 734-modda) bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizomning O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi tizimida bajarilgan ishlar uchun kunlik tarif stavkalari bo‘yicha mehnatga haq to‘lashning izohdagi “eng kam oylik ish haqi” so‘zlari “mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori” so‘zlari bilan almashtirilsin.

17. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 31-avgustdagi 683-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2017-y., 8-son, 191-modda) bilan tasdiqlangan Jismoniy va yuridik shaxslarga avtotransport vositalari uchun xaridorgir harf va raqamlar kombinatsiyasiga ega bo‘lgan ro‘yxatdan o‘tkazish davlat raqami belgilarini oshirilgan to‘lov stavkalari bo‘yicha berish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 3-bandi ikkinchi xatboshisidagi “eng kam oylik ish haqining” so‘zlari “bazaviy hisoblash miqdorining” so‘zlari bilan almashtirilsin.

18. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2017-yil 5-oktabrdagi 799-son qarorida (O‘zbekiston Respublikasi QHT, 2017-y., 40-son, 1059-modda):

a) 5-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. Jamg‘arma Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Lutfiy ko‘chasi, 47-uy manzili bo‘yicha joylashtirilsin”;

b) 1-ilovaning matni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg‘armasi Vasiylik kengashining

TARKIBI

J.A. Qo‘chqorov — O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari — iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vaziri, *Kengash raisi*

N.B. Xusanov — bandlik va mehnat munosabatlari vaziri, *Kengash raisining o‘rinbosari*

S.M. Xolxo‘jayev — iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirining birinchi o‘rinbosari

O.Z. Nasritdinxo‘jayev — moliya vazirining birinchi o‘rinbosari

Sh.J. Teshayev — qishloq xo‘jaligi vazirining birinchi o‘rinbosari

S.I. Saifnazarov — uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirining birinchi o‘rinbosari

B.X. Umurzakov — bandlik va mehnat munosabatlari vaziri o‘rinbosari

B.R. Parpiyev — mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vaziri o‘rinbosari

K.M. Rafikov — O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi raisi

A.A. Xaitov — O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi raisi


Lavozimi bo‘yicha — O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg‘armasi raisi, *Kengashning mas’ul kotibi*

Izoh. Vasiylik kengashi a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, sobiq a’zolarning vazifalari ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan shaxslar zimmasiga yuklanadi”.

v) 2-ilovaning matni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg‘armasi Ijro etuvchi direksiyasining

TUZILMASI



Boshqaruv xodimlarining cheklangan soni — 23 nafar, shu jumladan 14 nafar — Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi bosh mutaxassislar.”.

g) 3-ilovada:

2-bandning to‘rtinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“jamoat ishlarini bajaruvchi shaxs — belgilangan tartibda ishsiz deb e’tirof etilgan, shuningdek, ish izlovchi shaxs sifatida ro‘yxatga olingan va jamoat ishlarida qatnashish uchun jalb qilingan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashab kelayotgan chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar (keyingi o‘rinlarda — fuqaro deb ataladi)”;

7 — 9-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. Budjet tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek, ko‘p kvartirali uylardagi uy-joy mulkdorlarining shirkatlari tomonidan (tutash hududlarni obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish va saqlash bo‘yicha) tashkil etiladigan haq to‘lanadigan jamoat ishlarida ABKMning yo‘llanmalariga ko‘ra haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb etiladigan shaxslarning mehnatiga haq to‘lashga oid xarajatlarning o‘rni O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg‘armasining mablag‘lari hisobidan to‘liq qoplanadi.

Bunda haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb etiladigan shaxslarning mehnatiga haq to‘lash mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoridan kam bo‘lishi va mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining ikki baravaridan ko‘p bo‘lishi mumkin emas.

Mahalliy mehnat organi tomonidan yuborilgan shaxslar mehnatiga haq to‘lash bo‘yicha xarajatlarning o‘rni keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg‘armasining mablag‘lari hisobidan yuz foiz qoplanadi.

8. Tadbirkorlik subyektlari, nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan (fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va ko‘p kvartirali uylardagi uy-joy mulkdorlarining shirkatlari bundan mustasno) tashkil etiladigan haq to‘lanadigan jamoat ishlarida mehnatga haq to‘lash bo‘yicha xarajatlarning ellik foizigacha bo‘lgan qismining o‘rni ish beruvchi bajarilgan ishlarni tasdiqlovchi hujjatni taqdim etgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg‘armasining mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

Bunda haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb etiladigan bir shaxs mehnatiga to‘langan haqning o‘rnini O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg‘armasining mablag‘lari hisobidan qoplashning har oylik miqdori mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining ikki baravari miqdoridan oshmasligi kerak. Haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb etiladigan shaxslarning mehnatiga har oyda haq to‘lash mehnat shartnomasi asosida belgilanadi.

Zarur bo‘lgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vaziri O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg‘armasi tomonidan mehnatga haq to‘lashning o‘rnini qoplashning har oylik miqdorini mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining to‘rt baravarigacha miqdorda belgilashi mumkin.

9. Haq to‘lanadigan jamoat ishlarining asosiy turlari quyidagilardan iborat:

shaharlarning, tumanlarning, aholi punktlarining, mahallalarning hududlarini va boshqa hududlarni obodonlashtirish (ko‘kalamzorlashtirish, yig‘ishtirish, oqlash, ariqlarni, qabristonlarni, ziyoratgohlarni, madaniy obyektlarni tozalash va boshqalar);

uy-joy-kommunal obyektlar va boshqa infratuzilma obyektlari hududlariga tutash uy-joy fondining obyektlarini ta’mirlash hamda ularning faoliyat ko‘rsatishini ta’mirlash;

ko‘chalarni, yo‘llarni va yo‘lkalarni ta’mirlash;

qishloq xo‘jaligi ishlari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish, ularni saqlash va qayta ishlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hosilini yig‘ib-terib olish, irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarini ta’mirlash;

nogironligi bo‘lgan shaxslarni, keksalarni, bemorlarni va boshqa shaxslarni parvarishlash;

sanoat tarmoqlari tashkilotlaridagi va xizmatlar ko‘rsatish sohasidagi ishlar;

obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari.

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining qarorlariga muvofiq haq to‘lanadigan jamoat ishlarining boshqa turlari ham nazarda tutilishi mumkin”;

11 va 12-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“11. ABKM har oyning 20-sanasiga qadar buyurtmachi ish beruvchilardan kelgusi oyda jamoat ishlarini tashkil qilish bo‘yicha buyurtmalarni qabul qiladi va mazkur maqsadlar uchun ko‘zda tutilgan mablag‘lar doirasida har oyning 25-sanasiga qadar yig‘ma buyurtmani shakllantiradi va tasdiqlaydi.

ABKM zarurat bo‘lganda, ishsizlik yoki ishchi kuchiga bo‘lgan talab oshgan hududlarda fuqarolarni tezkor tartibda jamoat ishlariga jalb etish bo‘yicha qo‘shimcha buyurtmalarni shakllantirishi va tasdiqlashi mumkin.

12. ABKM tomonidan yig‘ma buyurtma tasdiqlangandan so‘ng hisobot oyining 1-sanasiga qadar mablag‘ ajratish uchun Jamg‘armaga taqdim etiladi.

ABKM tomonidan tasdiqlangan qo‘shimcha yig‘ma buyurtma mablag‘ ajratish uchun bir ish kuni davomida Jamg‘armaga taqdim etiladi.”;

13-bandga quyidagi mazmundagi ikkinchi xatboshi qo‘shilsin:

“Agar yig‘ma buyurtmaga asosan ABKMning g‘aznachilik hisobraqamiga o‘tkazilgan mablag‘lar hisobot oyidan keyingi oyning 15 sanasiga qadar foydalanilmasa, Jamg‘armaga qaytarish choralari ko‘riladi”;

14-bandga quyidagi mazmundagi ikkinchi xatboshi qo‘shilsin:

“Ushbu Nizomning 11-bandi ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan holatlarda Jamg‘arma qo‘shimcha yig‘ma buyurtmaga asosan mablag‘lar ajratgandan so‘ng jamoat ishlarini bajarishni xohlovchi fuqarolar ro‘yxatini ilova qilgan holda, ABKM ish beruvchilar bilan shartnoma tuzadi”;

15-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“15. Haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb etiladigan shaxslar bilan haq to‘lanadigan jamoat ishlarida ishtirok etish uchun kamida ikki haftalik, lekin olti oydan ko‘p bo‘lmagan muddatga, ayrim hollarda esa O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan kelishilgan holda, o‘n bir oygacha muddatga muddatli mehnat shartnomalari tuziladi”;

19-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“19. ABKM buyurtmachi ish beruvchi bilan shartnoma tuzgandan so‘ng haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb etiladigan shaxslarga haq to‘lanadigan jamoat ishlarida qatnashish uchun 2-ilovaga muvofiq shaklda yo‘llanma beradi.

Buyurtmachi ish beruvchi haq to‘lanadigan jamoat ishlarini amalga oshirish vaqtida mehnatni muhofaza qilishga doir lozim darajadagi shart-sharoitlarni qonun hujjatlariga muvofiq ta’minlaydi.

Haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb etiladigan shaxslarga ish haqi to‘g‘ri hisoblanishi va bajarilgan jamoat ishlarining haqiqiy hajmlari to‘g‘ri hisobga olinishi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg‘armasining haq to‘lanadigan jamoat ishlariga haq to‘lash bo‘yicha xarajatlarning o‘rnini qoplash uchun yo‘naltirilgan mablag‘laridan maqsadli foydalanilishi yuzasidan javobgarlik buyurtmachi ish beruvchining zimmasiga yuklanadi.”;

20-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“20. Jamoat ishlarida qatnashuvchi ishsiz va band bo‘lmagan fuqarolar ro‘yxatlarini shakllantirishda mazkur hududda doimiy va vaqtincha yashovchi band bo‘lmagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi chet ellik fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, shuningdek mehnat faoliyatiga jalb etiladigan chet ellik fuqarolar qamrab olinishi lozim.”;

22-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“22. ABKM haq to‘lanadigan jamoat ishlarini amalga oshirish monitoringini bir oyda bir marta joyning o‘ziga chiqib o‘rganish orqali o‘tkazadi va tegishli monitoring dalolatnomasini rasmiylashtiradi.

Haq to‘lanadigan jamoat ishlarini o‘tkazish tartibi buzilganligi holatlari aniqlangan taqdirda, dalolatnoma rasmiylashtiriladi va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tegishli choralar ko‘riladi.

Jamg‘armaning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida jamoat ishlari dasturlarini shakllantirish va monitoring qilish bo‘yicha bosh mutaxassislari har oyda, shu

jumladan joyiga borgan holda jamoat ishlarining tashkil qilinishi, amalga oshirilishi va haq to‘lanishini nazorat qiladi.

Ish beruvchi jamoat ishlariga jalb qilingan fuqarolarni ish joyida bo‘lmaganligi sabablari to‘g‘risida ABKMni ogohlantirishi kerak. Jamoat ishlariga jalb qilingan fuqarolar muntazam sababsiz ish joyida bo‘lmasa, ABKM ish joyida muntazam yo‘q bo‘lgan xodim uchun ish beruvchilarga xarajatlarni moliyalashtirmaydi.”;

26-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“26. Buyurtmachi ish beruvchi hisobot oyidan keyingi oyning 1-sanasiga qadar ABKMga o‘tgan oy uchun jamoat ishlarida qatnashgan fuqarolarni amalda qatnashgan kunlari bo‘yicha tasdiqlangan hisobga olish tabelini va ish haqi hisoblanganligi bo‘yicha qaydnomani, jumladan, tadbirkorlik subyektlari va nodavlat notijorat tashkilotlari fuqarolarga to‘langan oylik ish haqining Jamoat ishlari jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilmagan qismi bo‘yicha tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etadi.”;

31-bandning ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Jamoat ishlarini bajarish bo‘yicha shartnoma munosabatlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda “YaMMT” IDAKda ro‘yxatga olingan mehnat shartnomasi asosida amalga oshiriladi. Ixtiyoriylik asosida brigadalarga birlashgan fuqarolar tomonidan jamoat ishlarining kompleksini yoki alohida turlarini amalga oshirishda shartnomada tomonlarning majburiyatlari, ishning hajmi va bajarish muddatlari, mehnatni tashkil etish va unga haq to‘lash shakllari nazarda tutiladi.”;

35-bandda:

birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Buyurtmachi ish beruvchilar tomonidan mehnat shartnomasi “YaMMT” IDAKda ro‘yxatdan o‘tkaziladi hamda fuqarolarning jamoat ishlarida qatnashgan davri to‘g‘risidagi ma’lumotlar elektron mehnat daftarchalarida aks ettiriladi.”;

uchinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

1-ilovada:

3-bosqich “Tadbirlar” ustuni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“mazkur maqsadlar uchun ko‘zda tutilgan mablag‘lar doirasida yig‘ma buyurtmani shakllantiradi va tasdiqlaydi”;

4-bosqich “Tadbirlar” ustuni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“ABKM tomonidan yig‘ma buyurtma tasdiqlangandan so‘ng mablag‘ ajratish uchun jamg‘armaga taqdim etiladi”;

d) 4-ilovada:

quyidagi mazmundagi 14^1-band qo‘shilsin:

“14^1. Istisno hollarda, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining tegishli buyrug‘i asosida Jamg‘arma mablag‘lari doirasida dasturdan tashqari jamoat ishlari tashkil etilishi mumkin”.

19. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 4-maydagi 339-son qarori bilan tasdiqlangan Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar rejimini ta’minlash va ularni muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 67-bandidagi “eng kam oylik ish haqining” so‘zlari “bazaviy hisoblash miqdorining” so‘zlari bilan almashtirilsin.

20. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-sentabrdagi 725-son qarori bilan tasdiqlangan Xorijga mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ketayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining kasbiy malakasini tasdiqlash faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslarni akkreditatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 47-bandidagi “vazirligining Respublika bandlik va mehnatni muhofaza qilish ilmiy markazi huzuridagi “Mehnat.uz axborot-kompyuter markazi” so‘zlari “vazirligi tasarrufidagi “Mehnat sohasidagi loyihalarni boshqarish markazi”” so‘zlari bilan almashtirilsin.

21. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 31-dekabrdagi 1066-son qarorida (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2018-y., 12-son, 320-modda):

a) 1-ilovada:

7-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. Quyidagilar Vazirlik tizimiga kiradi:

Vazirlikning markaziy apparati;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman (shahar) aholi bandligiga ko‘maklashish markazlari;

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi, unga bo‘ysunadigan fuqarolarni xorijda ishga joylashtirish bo‘yicha hududiy filiallar, xorijga ketayotgan fuqarolarni jo‘nab ketishdan oldin moslashtirish markazlari va Agentlikning xorijdagi vakolatxonalari;

Respublika bandlik va mehnatni muhofaza qilish ilmiy markazi;

Respublika mehnat organlari xodimlari malakasini oshirish kurslari;

Toshkent shahrida ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o‘qitish markazi;

Ishsiz va band bo‘lmagan aholini kasb-hunarga o‘qitish hududiy markazlari;

Malakani baholash markazlari;

“Mehnat sohasidagi loyihalarni boshqarish markazi” MChJ;

Toshkent xodimlarni boshqarish va mehnatni muhofaza qilish kolleji;

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg‘armasi;

Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg‘armasi;

Band bo‘lmagan aholiga xizmat ko‘rsatuvchi “Ishga marhamat” monomarkazlari;

Chet ellarga ketayotgan fuqarolarni oldindan ko‘niktirish markazlari;

Oldindan ko‘niktirish va kasbga tayyorlash markazlari.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari, tuman (shahar) aholi bandligiga ko‘maklashish markazlari Vazirlikka va tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek, tumanlar (shaharlar) hokimliklariga bo‘ysunadi va hisob beradi.”.

18-bandning o‘n to‘qqizinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“idora bo‘ysunuvidagi tashkilotlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha tovarlar, ishlar va xizmatlar xarid qilish, shu jumladan: “Respublika bandlik va mehnatni muhofaza qilish ilmiy markazi” idora bo‘ysunuvidagi davlat muassasasida ilmiy ishlar bajarish, Vazirlik vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha tadqiqotlar va so‘rovlar o‘tkazish; “Mehnat sohasidagi loyihalarni boshqarish markazi” MChJda bandlik va mehnat munosabatlari sohasiga oid loyihalarni ishlab chiqish, amalga oshirish va muvofiqlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ishlab chiqish, joriy etish va qo‘llab-quvvatlash; Toshkent shahrida ishsiz fuqarolarni kasbga o‘qitish markazida, band bo‘lmagan aholiga xizmat ko‘rsatuvchi “Ishga marhamat” monomarkazida hamda Kasb-hunarga o‘qitish markazlarida o‘qitish, malaka oshirish va qayta o‘qitish; Kasbiy kompetepnsiyalarni baholash markazlarida malakani baholash; Respublika mehnat organlari xodimlari malakasini oshirish kurslarida mehnat organlari xodimlari malakasini oshirish;”;

37-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“37. Mehnat sohasidagi loyihalarni boshqarish markazi” MChJ (keyingi o‘rinlarda — Loyihalarni boshqarish markazi). Loyihalarni boshqarish markaziga Vazir tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor rahbarlik qiladi;

Loyihalarni boshqarish markazi direktorining Vazir tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan ikki nafar o‘rinbosari, shu jumladan bir nafar birinchi o‘rinbosari bo‘ladi.

Loyihalarni boshqarish markazi mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi tashkilot hisoblanadi (ta’sischisi — Vazirlik).”.

40-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“40. Band bo‘lmagan aholiga xizmat ko‘rsatuvchi “Ishga marhamat” monomarkazi (keyingi o‘rinlarda — “Ishga marhamat” monomarkazi) davlat muassasasi hisoblanadi.

Vazirlik “Ishga marhamat” monomarkazining ta’sischisi hisoblanadi.

“Ishga marhamat” monomarkaziga Vazir tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan Monomarkaz direktori rahbarlik qiladi.

“Ishga marhamat” monomarkazi direktorining Vazir tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan uch nafar o‘rinbosari, shu jumladan bir nafar birinchi o‘rinbosari bo‘ladi.

“Ishga marhamat” monomarkazi faoliyati Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari, xo‘jalik faoliyati natijasida tushgan mablag‘lar va qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.”.

49-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“49. Vazirlik markaziy apparati va hududiy mehnat organlarining barcha xodimlariga O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan davlat boshqaruvi organlarida ko‘p yillik mehnati uchun quyidagi hajmlarda (rag‘batlantirish koeffitsiyentini hisobga olgan holda lavozim maoshiga belgilangan koeffitsiyentlarda) har oyda mukofot puli to‘lanadi: 3 yildan 5 yilgacha — 0,2; 5 yildan 10 yilgacha — 0,4; 10 yildan 15 yilgacha — 0,6; 15 yildan yuqori — 0,8.”;

b) 2-ilovaning 8-bandida:

yigirma yettinchi xatboshi quyidagi mazmundagi yigirma yettinchi — yigirma to‘qqizinchi xatboshilar bilan almashtirilsin:

“Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi, yetkazib beruvchi tashkilotlar va tomorqa yer egalari o‘rtasida tuzilgan uch tomonlama shartnomalar asosida yengil konstruksiyali issiqxonalar o‘rnatish uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravarigacha, sug‘orish vositalari xarid qilish uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravarigacha, urug‘liklar va ko‘chatlar sotib olish uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravarigacha subsidiyalar ajratish;

ishsiz fuqarolar, kam ta’minlangan oilalar a’zolari va tashqi mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarga ularning bandligini ta’minlash maqsadida tashkil etiladigan qishloq xo‘jaligi kooperativlari ustav fondiga ulush sifatida kiritish uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravarigacha subsidiyalar ajratish;

“O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tarkibidagi qo‘lda gilam va ipak mato to‘qish bilan shug‘ullanuvchilarga 3 tadan kam bo‘lmagan ish o‘rni yaratish sharti bilan gilam va ipak mato to‘qish dastgohini xarid qilishga sarflanadigan xarajatlarni qoplash uchun — har bir dastgoh uchun bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravari miqdorida subsidiyalar ajratish;”;

yigirma sakkizinchi xatboshi o‘ttizinchi xatboshi deb hisoblansin.

Oldingi tahrirga qarang.

(22-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 11-avgustdagi 356-sonli qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.08.2023-y., 09/23/356/0619-son)

23. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 29-apreldagi 365-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti bakalavriatiga o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomda:

a) 5-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab Institutga o‘qishga kiruvchi nomzodlar uchun test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi ikki bo‘limga ajratilib, birinchi bo‘limga barcha test topshiruvchilar uchun majburiy uchta fan — ona tili (o‘zbek, rus yoki qoraqalpoq tili), matematika va O‘zbekiston tarixi, ikkinchi bo‘limga bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga mos ikkita fan kiritiladi.

Test sinovlari topshiriladigan fanlar majmuasining ikkinchi bo‘limida:

“Bojxona ishi” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha — matematika, chet tili;

“Yurisprudensiya” (iqtisodiy xavfsizlikni huquqiy ta’minlash) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha — tarix, chet tili fanlaridan test sinovlari o‘tkaziladi.

Test sinovlari topshiriladigan fanlar bo‘yicha har bir to‘g‘ri javob uchun ajratiladigan ballar miqdori O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi”.

b) 6-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“6. Institutga:

umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi ma’lumotiga ega bo‘lgan;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentabrdagi PQ-4447-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizom talablariga javob beradigan;

harbiy xizmatni o‘tamagan o‘n yetti yoshdan yigirma uch yoshgacha bo‘lgan, shu jumladan o‘qishga qabul qilingan yili o‘n yetti yoshga to‘ladigan fuqarolar;

o‘n sakkiz yoshdan yigirma besh yoshgacha bo‘lgan, shu jumladan o‘qishga qabul qilingan yili o‘n sakkiz yoshga to‘ladigan, ofitserlar tarkibi harbiy unvonlariga ega bo‘lmagan harbiy xizmatchilar va harbiy xizmatga majburlar tanlov asosida qabul qilinadi.

Nomzodlarning bo‘yi 165 sm.dan (qiz bolalar uchun 160 sm) past bo‘lmasligi lozim”.

v) 38-bandga quyidagi mazmundagi xatboshlar qo‘shilsin:

“Qabul yilida 11-sinf negizidagi umumiy o‘rta yoki o‘rta maxsus ta’lim muassasalarini tamomlagan nomzodlarning ma’lumoti to‘g‘risidagi hujjatlar aslini qabul yilining 25-iyun kuniga qadar Qabul komissiyasiga yetkazishlari lozim.

Test sinovlariga tavsiya etilgan nomzodlar shuningdek, ularning mazkur Nizomning 4-bobida nazarda tutilgan imtiyozlari (agarda mavjud bo‘lsa) haqidagi ma’lumotlar qabul yilining 1-iyuliga qadar Qabul komissiyasi tomonidan Davlat test markazining maxsus onlayn dasturiga kiritiladi”.

g) 54-bandda:

ikkinchi xatboshisidagi “iyuligacha bo‘lgan vaqtda” so‘zlari “iyul kuni katta sig‘imdagi binolarda” so‘zlari bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi xatboshi qo‘shilsin:

“O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi test sinovlari o‘tkaziladigan tegishli joylarni shaxsni identifikatsiyalash vositalari (videofiksatsiya va barmoq izlarini tekshiruvchi vositalar) videokuzatuv, mobil aloqa to‘lqinini to‘suvchi qurilmalar bilan ta’minlaydi, o‘tkazilgan test sinovlari jarayoni bo‘yicha video yozuvlarni saqlaydi va ularni test sinovlari o‘tkazilgan kunning ertasiga Davlat test markaziga topshiradi”.

d) 55-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“55. Davlat bojxona qo‘mitasining Moddiy yordam, ijtimoiy himoya, bojxona organlarini rivojlantirish va ko‘zda tutilmagan xarajatlar maxsus jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan quyidagi harajatlar qoplanadi:

test sinovlari o‘tkaziladigan kunda Davlat test markazi vakillari, bino rahbarlari va guruh nazoratchilarining mehnatiga haq to‘lash;

test sinovlarini o‘tkazish jarayonida nomzodlar, Davlat test markazi vakillari, bino rahbarlari va guruh nazoratchilarini yetarli miqdorda ichimlik suvi, havorang pastali sharikli ruchkalar bilan ta’minlash uchun mablag‘lar”.

e) 57-band quyidagi tahrirda qilinsin:

“57. 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab milliy yoki xalqaro sertifikatning quyidagi darajalarining biriga ega bo‘lgan nomzodlarga chet tili fanidan belgilangan maksimal ball beriladi hamda ular ushbu fan bo‘yicha test sinovidan ozod etiladilar:

ingliz tili uchun — milliy sertifikat yoki International English Language Testing System (IELTS 5,5), Test of English as a Foreign Language (TOEFL IBT 72), Cambridge Assessment English FCE xalqaro imtihon tizimlari bo‘yicha tilni bilish darajalari B2 va undan yuqori;

yapon tili uchun — milliy sertifikat yoki Japanese Language Proficiency Test (JLPT № 2) xalqaro imtihon tizimlari bo‘yicha tilni bilish darajalari B2 va undan yuqori;

nemis tili uchun — milliy sertifikat yoki Goethe-Zertifikat, Deutsches Sprachdiplom (DSD), Test Deutsch als Fremdsprache (Test DAF) xalqaro imtihon tizimlari bo‘yicha tilni bilish darajalari B2 va undan yuqori;

fransuz tili uchun — milliy sertifikat yoki Diplôme d’Etudes en Langue Française (DELF), Test de Connaissance du Française (TCF4) xalqaro imtihon tizimlari bo‘yicha tilni bilish darajalari B2 va undan yuqori;

boshqa tillar uchun — milliy sertifikat yoki xalqaro imtihon tizimlari bo‘yicha tilni bilish darajalari V2 va undan yuqori”.

j) 61-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“61. Xizmat majburiyatlarini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan huquqni muhofaza qiluvchi organlari (ichki ishlar organlari bundan mustasno) xodimlarining farzandlari Institutga dastlabki va maxsus kasbiy tanlov natijalari hamda tegishli vazirlik yoki idora rahbarining taqdimnomasi asosida, O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasining qarori bilan Davlat test markazi tomonidan o‘tkaziladigan test sinovlarisiz belgilangan qabul kvotalari ichida Institut bakalavriatiga o‘qishga qabul qilinadilar.

Harbiy xizmat majburiyatlarini (xizmat majburiyatlarini) bajarish chog‘ida halok bo‘lgan hamda harbiy xizmat majburiyatlarini (xizmat majburiyatlarini) bajarish chog‘ida yaradorlik, kontuziya, shikast olish yoki kasalliklar oqibatida nogiron bo‘lib qolgan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirliklar va idoralarning ofitser, serjant va oddiy askarlar tarkibiga mansub bo‘lgan kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchilarining (Milliy gvardiya xodimlarining) farzandlari tegishli vazirlik va idoralarning tavsiyanomasi asosida O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasining qarori bilan Davlat test markazi tomonidan o‘tkaziladigan test sinovlarisiz, belgilangan qabul kvotalaridan tashqari Institut bakalavriatiga o‘qishga qabul qilinadilar.

Terrorizm va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda jamoat xavfsizligini ta’minlash chog‘ida halok bo‘lgan yoki olgan jarohati tufayli nogiron bo‘lib qolgan ichki ishlar organlari xodimlarining farzandlari dastlabki va maxsus kasbiy tanlov natijalari hamda O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining taqdimnomasi asosida O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasining qarori bilan Davlat test markazi tomonidan o‘tkaziladigan test sinovlarisiz qabul kvotalaridan tashqari Institut bakalavriatiga o‘qishga qabul qilinadilar.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashga munosib hissa qo‘shgan, xizmat yoki ilmiy faoliyatida yuqori natijalarga erishgan ichki ishlar organlarining amaldagi xodimlarining farzandlari ajratilgan besh foizli kvotalar doirasida dastlabki va maxsus kasbiy tanlov natijalari hamda O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining taqdimnomasi asosida Davlat test markazi tomonidan o‘tkaziladigan test sinovlarisiz qabul qilinadilar.

Ichki ishlar organlari amaldagi xodimlarining farzandlarini ajratilgan besh foizli kvotalar doirasida Institutga qabul qilishda o‘rinlar maxsus kasbiy tanlov natijalari bo‘yicha to‘plangan ballardan kelib chiqib ketma-ketlik tartibida taqsimlanadi.

Maxsus kasbiy tanlov natijalari teng bo‘lgan hamda ajratilgan besh foizli qabul kvotalari bo‘yicha oxirgi o‘rinni egallashga da’vogarlar orasida kasbiy tanlov bosqichining yakka tartibdagi yakuniy suhbat tadbirida eng yuqori natijaga ega bo‘lgan nomzod mazkur imtiyozli o‘ringa o‘qishga qabul qilinadi.

Ajratilgan besh foizli qabul kvotalariga qabul qilinmagan nomzodlar maxsus kasbiy tanlov natijalari bo‘yicha to‘plagan ballari bilan umumiy tartibda tanlovda ishtirok etadilar.

Institutga nomzodlar qabuli uchun umumiy o‘rinlar soni tarkibida imtiyozli kvotalar doirasida vazirlik va idoralarga ajratiladigan o‘rinlar sonini belgilashda o‘rta arifmetik hisoblashdan foydalaniladi va quyidagilarga amal qilinadi:

butun raqamdan keyingi raqamlar 0,5 — 0,99 oralig‘ini tashkil esa, yaxlitlangan holda 1 ta qo‘shimcha o‘rin ajratiladi;

butun raqamdan keyingi raqamlar 0,01 — 0,49 oralig‘ini tashkil esa, yaxlitlangan holda qo‘shimcha o‘rin ajratilmaydi”.

z) 64-bandning birinchi xatboshisidagi “61 — 63-bandlarida” so‘zlari “61-bandi birinchi xatboshisi va 63-bandida” so‘zlari bilan almashtirilsin.

i) 67-bandga quyidagi mazmundagi xatboshilar qo‘shilsin:

“Imtiyozga ega amaldagi harbiy xizmatchilarning farzandlariga ajratilgan besh foizli kvota va Milliy gvardiyaning xizmatdagi harbiy xizmatchi va xodimlari farzandlariga ikki foizli kvota bo‘yicha ajratilgan o‘rinlarga nomzodlar vazirlik va idoralar kesimida tanlovda ishtirok etadilar

hamda o‘rinlar Davlat test markazi tomonidan o‘tkazilgan test sinovlari natijasiga ko‘ra to‘plangan ballardan kelib chiqqan holda navbatdagi ketma-ketlik tartibiga muvofiq taqsimlanadi.

Vazirlik va idoralar kesimida imtiyozga ega amaldagi harbiy xizmatchilarning farzandlariga ajratilgan besh foizli kvota va Milliy gvardiyaning hizmatdagi harbiy xizmatchi va xodimlarining farzandlariga ajratilgan ikki foizli kvota bo‘yicha oxirgi o‘rinda turuvchi nomzodning test sinovlarida to‘plagan jami bali bilan undan keyingi o‘rinlarda turuvchi nomzodning to‘plagan ballari bir xil bo‘lgan taqdirda ular orasidan ta’lim yo‘nalishi fanlari bo‘yicha eng ko‘p ball to‘plagani o‘qishga qabul qilinadi”.

k) 6-ilovaning 2-bandiga quyidagi mazmundagi xatboshi qo‘shilsin:

“Nomzodlarni individual-psixologik o‘rganish tadbirini kompyuter texnologiyalariga asoslangan maxsus avtomatlashtirilgan dastur yordamida ham o‘tkazish mumkin”.

24. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 29-apreldagi 366-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Tibbiyot bosh boshqarmasi to‘g‘risidagi nizomning 24-bandi ikkinchi — beshinchi xatboshilari quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sotib olishga moddiy yordam (bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravari miqdorida);

yubiley va muhim sanalar munosabati bilan qimmatbaho sovg‘alar bilan mukofotlash (bazaviy hisoblash miqdorining 6 baravari miqdorida);

ovqatlanish qiymatini va shahar jamoat transportida yo‘lkirani qoplash bo‘yicha kompensatsiya pul to‘lovlari (bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravari miqdorida);

vaqtinchalik qiyinchiliklar va oiladagi fojiali voqealar munosabati bilan xodimlarga moddiy yordam (bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravari miqdorida).”.

25. Vazirlar Mahkamasining “Mehnat bozorida mehnat munosabatlarini tartibga solishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 6-sentabrdagi 743-son qarorida:

a) 4-banddagi “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati markazi (O‘zgidromet)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 1-ilovaning 1-ilovasida:

“Buxoro viloyati” blokiga quyidagi mazmundagi qatorlar qo‘shilsin:

“

Olot tumani	20	2
Qorako‘l tumani	20	2

”.

“Namagan viloyati” blokidan keyin quyidagi mazmundagi blok qo‘shilsin:

“

Qashqadaryo viloyati		
Muborak tumani	20	2

”.

v) 2-ilovaga ilovada:

6-pozitsiya quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

6.	07.10.0 07.29.0 07.21.	Temir rudasini qazib olish Rangli metall rudalarini qazib olish Uran va toriy rudasini qazib olish	Temir rudasini, rangli metallar rudalarini qazib olish va boyitish: mavjud va qurilayotgan korxonalarda yer osti ishlarida (shu jumladan, kon-kapital ishlarida, sanoat razvedkasi, konlardagi va ochiq konlardagi drenaj ishlarida), marksheyderlik tashkilotlarida; temir va rangli metall rudalarini qazib olish uchun mavjud va qurilayotgan korxonalarda erosti ishlarida (shu jumladan, kon-kapital ishlarida, sanoat razvedkasi) va o‘ta og‘ir va o‘ta zararli mehnat sharoitlarida kon-kimyo xomashyosi qazib olish:	1,682

			stavkalarning 1-guruhi bo‘yicha** stavkalarning 2-guruhi bo‘yicha**; ochiq kon ishlarida, uyumlarda, osma kanat yo‘llarida, rudalar shixtasida, draga va gidrav-likalarda, magnezit va kon-kimyo xomashyosi qazib olishda; o‘ta og‘ir va o‘ta zararli mehnat sharoitlarida ish olib boriladigan ishlab turgan konlardagi ochiq kon ishlarida; o‘ta og‘ir va o‘ta zararli mehnat sharoitlarida ish olib boriladigan ishlab turgan konlardagi ochiq kon ishlarida; ishlab turgan va qurilayotgan shaxtalar, konlar, ochiq konlar yuzalaridagi yerlarni rekultivatsiya qilish, rudalarni boyitish ishlarida. Uran va toriy rudasini qazib olish: yer osti ishlarida (shu jumladan, kon-kapital ishlarida, sanoat razvedkasi, konlardagi va ochiq konlardagi drenaj ishlarida), marksheyderlik tashkilotlarida; yer osti ishlarida o‘ta og‘ir va o‘ta zararli mehnat sharoitlaridagi kon-kimyo xomashyosi qazib olish; ochiq kon ishlarida, uyumlarda, osma kanat yo‘llarida, rudalar shixtasida, draga va gidravlikalarda, magnezit va kon-kimyo xomashyosi qazib olishda.	1,854 2,059 1,423 1,520 1,914 1,914 2,339 1,423

”.

16-pozitsiya quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

16.	**Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish**			
	20.11.0 20.12.0 20.13.0 20.14.0 20.15.1 20.15.2 20.16.0 20.17.0 20.20.0 20.30.0 20.41.0 20.42.0 20.52.0 20.53.0 20.59.0 20.60.0	Birlamchi shakllarda asosiy kimyoviy moddalar, o‘g‘itlar va azot birikmalari, plastmassalar va sintetik kauchuk ishlab chiqarish	Quyidagi sharoitlarda birlamchi shakllarda asosiy kimyoviy moddalar, o‘g‘itlar va azot birikmalari, plastmassalar va sintetik kauchuk ishlab chiqarish bo‘yicha ishchilar tomonidan amalga oshiriladigan barcha turdagi ishlar: normal mehnat sharoitlarida; og‘ir va zararli mehnat sharoitlarida; o‘ta og‘ir va o‘ta zararli mehnat sharoitlarida.	 1,053 1,189 1,306
	20.51.0	Portlovchi moddalar ishlab chiqarish	Portlovchi moddalar ishlab chiqarish bo‘yicha ishchilar tomonidan amalga	

			oshiriladigan asosiy ishlab chiqarishning barcha turdagi ishlari:	
			normal mehnat sharoitlarida;	1,211
			og‘ir va zararli mehnat sharoitlarida;	1,367
			o‘ta og‘ir va o‘ta zararli mehnat sharoitlarida.	1,502

”.

19-pozitsiya quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

19.	**Metall bo‘lmagan boshqa mineral mahsulotlar ishlab chiqarish**			
	23.11.0 23.12.0 23.13.0 23.14.0 23.19.0	Shisha va shishadan yasalgan buyumlar ishlab chiqarish	Shisha va shishadan yasalgan buyumlar ishlab chiqarish bo‘yicha ishchilar tomonidan amalga oshiriladigan asosiy ishlab chiqarishning barcha turdagi ishlari:	
			normal mehnat sharoitlarida;	1,053
			og‘ir va zararli mehnat sharoitlarida;	1,189
			o‘ta og‘ir va o‘ta zararli mehnat sharoitlarida.	1,306
	23.99.0	Boshqalar	Boshqa toifalarga kiritilmagan metall bo‘lmagan boshqa mineral mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha ishchilar tomonidan amalga oshiriladigan asosiy ishlab chiqarishning barcha turdagi ishlari, ishlab chiqarishdagi nazoratchilar:	
			normal mehnat sharoitlarida yoki stavkalarning 3-guruhi bo‘yicha;	1,228
			og‘ir va zararli mehnat sharoitlarida yoki stavkalarning 2-guruhi bo‘yicha;	1,306
			o‘ta og‘ir va o‘ta zararli mehnat sharoitlarida yoki stavkalarning 1-guruhi bo‘yicha.	1,443

”.

21 — 23-pozitsiyalar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

21.	**Metallurgiya sanoati***			
	24.10.0	Cho‘yan, po‘lat va temir qotishma ishlab chiqarish	Metallurgiya, prokat, temir qotishmali quvur, koks-kimyoviy, o‘tga chidamli ishlab chiqarishning asosiy sexlari ishchilari, ishlab chiqarishdagi nazoratchilar:	
			normal mehnat sharoitlarida yoki stavkalarning 3-guruhi bo‘yicha;	1,228
			og‘ir va zararli mehnat sharoitlarida yoki stavkalarning 2-guruhi bo‘yicha;	1,306
			o‘ta og‘ir va o‘ta zararli mehnat sharoitlarida yoki stavkalarning 1-guruhi bo‘yicha.	1,443

			Normal mehnat sharoitlarida qora metall parchalarini qayta ishlash korxonalari va sexlari	1,053
	24.20.0	Po‘lat quvur, quvur o‘tkazgich, profil, fitinglar ishlab chiqarish	O‘shaning o‘zi	O‘shaning o‘zi
	24.31.0 24.32.0 24.33.0 24.34.0	Birlamchi ishlov berish yo‘li bilan boshqa po‘lat buyumlarni ishlab chiqarish	O‘shaning o‘zi	O‘shaning o‘zi
	24.41.0 24.42.0 24.43.0 24.44.0 24.45.0	Asosiy asl va rangli metallar ishlab chiqarish	Metallurgiya va kimyo-metallurgiya ishlab chiqarish, ruda aglomeratsiyasi, ko‘mir va graft elektrodlari, qattiq qorishmalar, alyuminiy, florid tuzlari ishlab chiqarish, rangli metallarni qayta ishlash, quvurlar va simlarni ishlab chiqarish, konstruksiyalar, qotishmalar, prokladkalar ishlab chiqarishning asosiy sexlari ishchilari: stavkalarning 3-guruhi bo‘yicha; stavkalarning 2-guruhi bo‘yicha; stavkalarning 1-gurhi bo‘yicha. Normal mehnat sharoitlarida qora metall parchalarini qayta ishlash bo‘yicha korxonalar, sexlar	 1,228 1,306 1,443 1,053
	24.51.0 24.52.0 24.53.0 24.54.0	Metall quyish	O‘shaning o‘zi	O‘shaning o‘zi
22.	**Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish**			
	25.50.0	Rolik list eguvchi mashinada list metallni roliklar bilan bolg‘alab yasash, presslash, qoliplash, profillash; kukun metallurgiyasi	Rolik list eguvchi mashinada list metallni roliklar bilan bolg‘alab yasash, presslash, qoliplash, profillash; kukun metallurgiya bo‘yicha ishlar: normal mehnat sharoitlarida; og‘ir va zararli mehnat sharoitlarida; o‘ta og‘ir va o‘ta zararli mehnat sharoitlarida.	 1,228 1,306 1,443
	25.11.0	Qurilish metall konstruksiyalari va buyumlari ishlab chiqarish	1) Metallga ishlov berish dastgohlarida metall va boshqa materiallarni qirqib ishlov berish bo‘yicha ishlar, metall va boshqa materiallarni qoliplash, asbob-uskunalarni tayyorlash va ta’mirlash ishlari. 2) Asosiy korxona va instrumental sexlar (uchastkalar) ishchilari tomonidan bajariladigan boshqa ishlar.	1,131 1,014
	25.21.0	Radiatorlar va markaziy isitish qozonlari ishlab chiqarish	O‘shaning o‘zi	O‘shaning o‘zi

	25.29.0	Boshqa metall tsisterna, rezervuar va konteynerlar ishlab chiqarish	O‘shaning o‘zi	O‘shaning o‘zi
	25.30.0	Markaziy isitish qozonlaridan tashqari bug‘ qozonlari ishlab chiqarish	O‘shaning o‘zi	O‘shaning o‘zi
	25.40.0	Qurol va o‘q- dorilar ishlab chiqarish	1) Metallga ishlov berish dastgohlarida metall va boshqa materiallarni qirqib ishlov berish bo‘yicha ishlar, metall va boshqa materiallarni qoliplash, asboblar va jihozlarni tayyorlash va ta’mirlash ishlari; 2) Asosiy korxona va instrumental sexlar (uchastkalar) ishchilari tomonidan bajariladigan boshqa ishlar.	1,131 1,014
	25.61.0	Metallarga ishlov berish va metallarni qoplamalar bilan qoplash	Metallarga ishlov berish va metallarni qoplamalar bilan qoplashda bevosita band bo‘lgan ishchilar hamda metallarga ishlov berish va metallarni qoplamalar bilan qoplashga tayyorlash va xizmat ko‘rsatish bilan band bo‘lgan ishchilar, ishlab chiqarishdagi nazoratchilar: normal mehnat sharoitlarida yoki stavkalarning 3-guruhi bo‘yicha; og‘ir va zararli mehnat sharoitlarida yoki stavkalarning 2-guruhi bo‘yicha; o‘ta og‘ir va o‘ta zararli mehnat sharoitlarida yoki stavkalarning 1-guruhi bo‘yicha.	 1,053 1,228 1,306
	25.93.0	Simdan buyumlar, zanjirlar va prujinalar ishlab chiqarish	Simdan buyumlar, zanjirlar va prujinalar ishlab chiqarishda bevosita band bo‘lgan ishchilar: normal mehnat sharoitlarida yoki stavkalarning 3-guruhi bo‘yicha; og‘ir va zararli mehnat sharoitlarida yoki stavkalarning 2-guruhi bo‘yicha; o‘ta og‘ir va o‘ta zararli mehnat sharoitlarida yoki stavkalarning 1-guruhi bo‘yicha.	 1,053 1,228 1,306
	25.94.0	Mahkamlash uchun va rezbali buyumlar ishlab chiqarish	Mahkamlash uchun va rezbali buyumlar ishlab chiqarishda bevosita band bo‘lgan ishchilar: normal mehnat sharoitlarida yoki stavkalarning 3-guruhi bo‘yicha; og‘ir va zararli mehnat sharoitlarida yoki stavkalarning 2-guruhi bo‘yicha; o‘ta og‘ir va o‘ta zararli mehnat sharoitlarida yoki stavkalarning 1-guruhi bo‘yicha.	 1,053 1,228 1,306
23.	**Mashina va uskunalarni ishlab chiqarish**			

	28.11.0 28.12.0 28.13.0 28.14.0 28.15.0	Umumiy foydalanishga mo‘ljallangan mashina va uskunalarni ishlab chiqarish	1) O‘ta aniq va murakkab press-formalar, shtamplar, moslamalar, asbob-uskunalar, priborlar va uskunalar tayyorlovchi instrumental va boshqa sexlarning universal uskunasida band bo‘lgan ishchi chilangar-asbobsozlar va dastgoh ishchilari. O‘ta murakkab mahsulot tayyorlash bilan band bo‘lgan noyob uskunada ishlovchi dastgoh ishchilari. O‘ta murakkab va noyob uskunani ta’mirlovchi va unga xizmat ko‘rsatuvchi chilangar-ta’mirlovchilar, sozlovchilar, elektr montyorlar va elektr mexaniklar; 2) Metallga ishlov berish dastgohlarida metallar va boshqa materiallarni qirqib, ularga ishlov berish bo‘yicha dastgoh ishchilari. Metall va boshqa materiallarni qoliplash ishlari, asbob-uskunalarni tayyorlash va ta’mirlash ishlari. Asbob-uskunalar tayyorlash va ta’mirlash hamda texnik jihozlash ishlari. Gaz bilan keish va elektr payvandlash ishlari; 3) Po‘lat, quyma temir va rangli metallardan quyma ehtiyot qismlar ishlab chiqarish: normal mehnat sharoitlarida; og‘ir va zararli mehnat sharoitlarida; o‘ta og‘ir va o‘ta zararli mehnat sharoitlarida. 4) Asosiy ishlab chiqarishdagi boshqa ishlar.	1,267 <

	28.96.0 28.99.0			

”.

25-pozitsiya quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

25.	**Elektr ta’minoti, gaz, bug‘ yetkazib berish va havoni konditsiyalash**			
	35.11.1 35.11.2	Elektr energiyasini ishlab chiqarish	Elektr energiyasi ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etuvchi barcha mutaxassisliklar ishchilari, shu jumladan, yordamchi ishchilar.	1,126
	35.12.0 35.13.0	Elektr energiyasini uzatish va taqsimlash	Elektr tarmoqlari va podstansiyalar korxonalari ishchilari.	1,126
	35.11.9	Atom elektr stansiyalari tomonidan elektr energiyasi ishlab chiqarish	Elektr energiyasi ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etuvchi barcha ixtisoslikdagi ishchilar, shu jumladan, yordamchi ishchilar.	1,182
	35.21.0	Gaz ishlab chiqarish	Normal mehnat sharoitlaridagi ishlarda; og‘ir va zararli mehnat sharoitlaridagi ishlarda; o‘ta og‘ir va zararli mehnat sharoitlaridagi ishlarda.	1,052 1,189 1,306

”.

34-pozitsiya quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

34.	49.31.0	Shahar va shahar atrofiga qatnaydigan quruqlikdagi yo‘lovchi transporti	Avtotransport vositalari (avtomobillar), elektrtransport haydovchilari***	1,228

”.

quyidagi mazmundagi 53-pozitsiya qo‘shilsin:

“

53.	**Boshqa faoliyat turlari**			
			Suv inshootlarida bevosita band bo‘lgan traktorist-haydovchilar; suvni kimyoviy tozalash, suv sathini o‘lchash va tartibga solish, mineral xomashyoning namunalarini olish ishlari; Metall buyumlarning, kimyoviy tarkibini va fizik-mexanik xususiyatlarini aniqlash va xomashyolarni, o‘ta chidamli buyumlar, yoqilg‘i-moylash materiallarini va boshqa materiallarni nazorat qilish, sertifikatlash sinovlari va ishlab chiqarishdan metall mahsulotlarini nazorat qilish bo‘yicha ishlar.	1,053 1,053 1,053

”.

izoh quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“* Metallurgiya sanoatida texnologik ishlar va ishlab chiqarish turlari bo‘yicha tabaqalashtirilgan tarmoq koeffitsiyentlari mehnat sharoitiga ko‘ra yoki jamoa shartnomasida belgilangan ish haqi shartlariga qarab stavkalar guruhiga asosan qo‘llaniladi.

** Ishchilarga ish haqi to‘lash stavkalari guruhlari korxonalar tomonidan texnologik jarayondagi kasbning ahamiyatiga, ishni bajarishdagi uning murakkabligi va sharoitlariga qarab jamoa shartnomasida belgilanadi.

*** Tarmoq koeffitsiyenti iqtisodiy faoliyat turidan qat’i nazar yer ustida harakatlanadigan avtomobil va elektr yer usti transporti haydovchilarining tarif stavkasiga tatbiq etiladi.”.

(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.04.2021-y., 09/21/183/0283-son, 30.04.2021-y., 09/21/258/0400-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.10.2021-y., 09/21/656/0996-son, 27.12.2021-y., 09/21/774/1198-son; 26.02.2022-y., 09/22/88/0165-son; 10.08.2022-y., 09/22/438/0726-son; 15.10.2022-y., 09/22/596/0923-son; 16.08.2023-y., 09/23/356/0619-son)